


# XORIJJIY INVESTITSIYALAR



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**A.SH. Bekmurodov, YA.K. Karriyeva, I.U. Nematov,  
D.H. Nabihev, N.T. Kattayev**

# **XORIJIY INVESTITSIYALAR**

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini  
Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya  
etilgan  
2010-yil 17-iyun 234-soni buyrug'i asosida berilgan 234-17-guvoxnoma asosida tavsiya etilgan

330.3 (071)

X.76 Bekmurodov A.SH., Karriyeva Y.A.K., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattayev N.T. Xorijiy investitsiyalar: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 150 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati, shakl va turlari, globallashuv hamda iqtisodiy integratsiyallashuvning kuchayib borishida investitsiya jarayonlari, xorijiy investorlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari, xorijiy investitsiyalarini jaib qilishning ilmiy - uslubiy asoslari hamda ularni jaib qilishni rag'baqlanuvishning zamonaviy shakl va usullari, xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotni jalb qiluvchanligini oshirishining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni xorijiy investitsiyalar yordamida rivojlantirish masalalarin, xorijiy investitsiyalarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash, kichik biznes va xususiy radbirkorlikka xorijiy investitsiyalarini jaib etish va ularni sug'ortalash to'g'risida talabalarga bilim berish maqsadida asosiy masalalar atrofliche yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oly o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga qo'llanmadan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar, xorijiy investitsiyalarini o'rganishga qiziquvchilar foydalanshlari mumkin.

**Mas'ul muharrir i.f.d., prof. N.X. Jumayev**

**Taqrizchilar:** i.f.n., dotsent U.V. Gafurov,  
i.f.n., dotsent Sh.E. Mustafakulov

**Бекмуродов А.Ш., Карриева Я.К., Нематов И.У., Набиев Д.Х., Каттаев Н.Т. Иностранные инвестиции. Учебное пособие. – Т.: Иктисодиёт, 2010. – 151 стр.**

В данном учебном пособии излагаются понятие об иностранных инвестициях и их значение, формы и виды иностранных инвестиций, инвестиционные процессы в усиление глобализации и экономических интеграций, особенности правового положения иностранных инвесторов, научно-методические основы привлечения иностранных инвестиций, современные формы и методы стимулирования привлечения иностранных инвестиций, основные направления повышения привлекательности экономики Республики Узбекистан для иностранных инвесторов, основные аспекты развития внешнеэкономической деятельности с помощью иностранных инвестиций Республике Узбекистан, страхование иностранных инвестиций и риски, определение экономической эффективности иностранных инвестиций, привлечения иностранных инвестиций в малый бизнес и частное предпринимательство в условиях мирового финансово-экономического кризиса.

Данное учебное пособие рекомендовано для студентов высших учебных заведений. Учебным пособием также могут пользоваться учителя, научные сотрудники, аспиранты и соискатели, интересующиеся иностранными инвестициями.

**Ответственный редактор д.э.н., проф. Н.Х. Жумаев**

**Рецензенты: к.э.н., доцент У.В. Гафуров,  
к.э.н., доцент Ш.Э. Мустафакулов**

**Bekmurodov A.Sh., Karrieva Y.K., Nabiev D.H., Nematov I.U., Kattaev N.T. Foreign investments: Textbook. – T.: Iqtisodiyot, 2010. - 151 p.**

In this textbook presents the concept of foreign investment and their implications, forms and types of foreign investment, the investment processes of globalization and increasing economic integration, particularly the legal status of foreign investors, scientific and methodological foundations for attracting foreign investment, modern forms and methods of promoting foreign investment, the main directions of improving the attractiveness of the Uzbek economy to foreign investors, the main aspects of foreign trade through foreign investment in the Republic of Uzbekistan, foreign investment and insurance risks, the definition of economic efficiency of foreign investment, attracting foreign investment in small business and private enterprise in the world financial economic crisis.

This textbook is recommended for students of higher educational institutions. A textbook may also enjoy the teachers, researchers, graduate students, and applicants, interested in foreign investments.

**Editor in chief prof. N.X. Jumaev**

**Reviewers: p.h.d., U.Gafurov  
p.h.d., Sh. Mustafakulov**

**ISBN 978-9943-333-40-6**

83 7558 2  
2  
yab

© «Iqtisodiyot», 2010.

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b>	5
<b>1-bob.</b>	<b>Xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati.....</b>	7
1.1.	Investitsiya haqida tushuncha.....	7
1.2.	Investitsiva munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solinishi.....	9
1.3.	Xorijiy investitsiyalar va ularni jalb qilish sabablari.....	12
1.4.	O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli..	14
1.5.	Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari.....	16
<b>2-bob.</b>	<b>Xorijiy investitsiyalarning shakl va turlari.....</b>	19
2.1.	Xorijiy investitsiyalarning turlari.....	19
2.2.	Investitsiya faoliyatiga tegishli huquqiy munosabatlarning obyekti va subyekti.....	24
2.3.	Bevosita va portfelli xorijiy investitsiyalar.....	26
<b>3-bob.</b>	<b>Globallashuv hamda iqtisodiy integratsiyallashuvning kuchayib borishida investitsiya jarayonlari.....</b>	30
3.1.	Jahon iqtisodiyotining globallashuvida xorijiy investitsiyalarning o'mni...	30
3.2.	Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish.....	31
3.3.	O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish.....	34
3.4.	Investitsiyalar eksporti va importi.....	39
<b>4-bob.</b>	<b>Xorijiy investorlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari.....</b>	43
4.1.	O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning huquqlari.....	43
4.2.	O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari.....	44
4.3.	Investitsiya shartnomalari.....	46
<b>5-bob.</b>	<b>Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari.....</b>	52
5.1.	Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotga jalb qilishning obyektiv zarurligi.....	52
5.2.	O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati.....	54
5.3.	Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish shakkleri va uni tartibga solishning jahon tajribasi.....	56
5.4.	O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari.....	59
5.5.	O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi.....	61
<b>6-bob.</b>	<b>Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag`batlantirishning zamonaviy shakl va usullari.....</b>	68
6.1.	O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtiropidagi korxonalar uchun imtiyozlar.....	68
6.2.	Qo'shma korxonalarни tashkil etishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish.....	71
6.3.	To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish.....	72

<b>7-bob.</b>	<b>Xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotini jalb qiluvchanligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....</b>	78
7.1.	Xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish uchun amalga oshirilayotgan ishlar.....	78
7.2.	O'zbekiston iqtisodiyotini jalb qiluvchanligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	82
7.3.	Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihaddan yondashuv.....	82
7.4.	Strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalarning o'rni.....	86
<b>8-bob.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni xorijiy investitsiyalar yordamida rivojlantirish masalalari.....</b>	89
8.1.	Mamlakatimizning eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	89
8.2.	O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish konsepsiysi.....	96
8.3.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarini kreditlash.....	97
8.4.	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati.....	98
<b>9-bob.</b>	<b>Xorijiy investitsiyalarni sug' ortalash va tavakkalchilik.....</b>	100
9.1.	O'zbekiston Respublikasida sug' urta bozorining rivojlanishi.....	100
9.2.	Xorijiy investitsiyalarni sug' ortalash.....	101
9.3.	O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlarni qo'llash masalalari.....	103
9.4.	Investitsiyalarning tavakkalchilik darajasi.....	104
<b>10-bob</b>	<b>Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.....</b>	106
10.1.	Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasini aniqlash.....	106
10.2.	Investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorligini baholash usullari.....	108
10.3.	Investitsiya loyihalarini baholash muammolari.....	113
<b>11-bob</b>	<b>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish.....</b>	117
11.1.	Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati.....	117
11.2.	O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishda investitsiya muhitining roli.....	121
11.3.	O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishda xorijiy investitsiyalarning roli.....	124
11.4.	Kichik biznes subyektlarining investitsiya loyihalarini xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirish.....	127
11.5.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar va ularning mohiyati....	131
	<b>Izohli lug'at.....</b>	133
	<b>Foydalilanilgan adabiyotlar.....</b>	142

## Kirish

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt yaxshi anglaydi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarни, xususan, xorijiy investitsiyalarни kengroq jaib etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining, jumladan xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda, jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzasida quyidagi fikrlarni ta'kidladi: “Barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi.”<sup>1</sup>

Shuningdek, ma'ruzada uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor yo'nalishlardan biri – bu asosiy etakchi sohalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iboratligi hamda 2010-yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 milliard AQSh dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiyalar jaib qilinishini va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshishi rejalashtirilayotganligi alohida e'tirof etildi.

2008-yilda boshlangan va 2009-yilda jahonning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz salbiy ta'sir oqibatlarining oldini olish turli darajalardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda o'ziga xos izchillikni, xatti-harakatlarning har tomonlama o'ylanganligi va asoslanganligini, tub islohotlarni amalga oshirishning bosqichma-bosqichligini, reja va maqsadlarga tomon harakatdagи sobitqadamlikni taqozo etadi. Mamlakatimizda chuqurlashgan jahon-moliyaviy inqirozi sharoitlarida barqaror o'sish sur'atlarining saqlanib qolishi esa tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'limiz va unga muvofiq amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatimizning nechog'liq to'g'ri ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda. Respublikamizda doimo qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jaib etildi. Natijada milliy iqtisodiyotimizning

<sup>1</sup> Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2010-yil 30-yanvar.

xalqaro kreditlar bozoridagi konyunkturaga keskin bog`liqligini va moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarining oldi olindi.

Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarни barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nechog`lik katta hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu avvalambor, aholi bandigi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatini beradi. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar jalb etayotgan korxonalarни iqtisodiy rag`batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o`ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarни zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish mumkin emas. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyatlar va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o`zlashtirishga, ulami ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish orqali davlatimiz iqtisodiy quadratini ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O`quv qo`llanmada O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Markaziy banki va boshqa qator vazirlik va idoralarning ma'lumotlaridan, shuningdek, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o`rinbosarları, ma`naviy-marifiy ishlari bo`yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining 2010-yil yanvar-fevral oyalarida bo`lib o`tgan mintaqaviy seminarlari materiallaridan keng foydalanilgan.

Ushbu maxsus kursni keng o`rganishga yordam beruvchi elektron-vizual va interaktiv vositalar, jumladan, «Iqtisodiyot» nashriyoti tomonidan 2009-yilda chop etilgan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choraları» nomli asarini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma (Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G`afurov U.V., Tuxliev B.K., o`zbek va rus tillarida), «Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchaları» (Bekmurodov A.SH., Gimranova O.B., Shamshiyeva N.N., o`zbek va rus tillarida) ilmiy-ommabop qo`llanma, «O`zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo`lida» (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G`afurov U.V. va Ne`matov I.U., o`zbek tilida) ekspress-prospekti, «2008-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida» (Bekmurodov A.Sh., Amonboyev M.A., Kattayev N.T.) ekspress-testlar hamda ularning elektron-vizual versiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

## **1-bob. XORIJIV INVESTITSIYALAR HAQIDA TUSHUNCHА VA UNING MOHIYATI**

### **1.1. Investitsiya haqida tushuncha**

O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilingan bo'lib, ular o'tgan vaqt ichida ancha takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilishicha, "investitsiya - bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobjiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir"<sup>1</sup>. Bu iqtisodiy tarif investitsyaning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to'laligicha tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining obyektlariga keng tarif berilgan. Ikkinchidan, investitsyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlardan kelib chiqib berilgan tarifning o'zidayoq investitsiya jarayonining hajmi, asosiy bosqichlari, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilma mablag'lari (sarfxarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq va ravshan ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsiya faoliyatining bozor munosabatlari o'tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontal usullaridan bir xilda foydalanishni ta'minlab beradi.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida tariflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdag'i milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobjiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobjiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiya kiritishda, avvalo:

- investitsiya faoliyati subyektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ta'minlanishi;
- kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqarolarning o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun sotib olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);
- qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya tushunchasiga yangi kapitalni barpo etish uchun sarflangan xarajat sifatida ham tarif berish o'rinni. Investitsiyalar yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan


<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Chet el investisiyalari to'g'risida"gi Qonuni, 30.04.1998 y.

xarajatlardir. Investitsiya tushunchasining mazmunini to'liq olib berish uchun unga berilgan tariflarni keltirish joiz. Investitsiyalar hali mahsulot ko'rinishiga keltirilmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansha, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob-uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatli qog'ozlarga (masalan, aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin. Investitsiyaga ketgan xarajatning miqdori ikki omilga bog'liq: birinchisi – sof foydaning kutilayotgan me'yori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan xarajatlaridan olishni mo'ljallaydi; ikkinchisi – foiz stavkasi. Agar, kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda me'yordan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavkasi narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflatsiya darajasini ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16 %ga teng bo'lsa, inflatsiya darajasi yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4% (16%-12%)ni tashkil etadi. Agar, bu miqdor kutilayotgan sof foyda me'yordan past bo'lsa, investitsiya xarajatlari o'sib boradi.

Investitsiya talabining egri chizig'i istalgan investitsiya hajmi ( $I$ ) va real foiz stavkasi miqdori ( $r$ ) o'rtasidagi bog'liqlikni o'matadi. Real foiz stavkasi, ya'ni pul kapitalini qarzga olish narxi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo'ladi va aksincha real foiz stavkasi qanchalik past bo'lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham investitsiya funksiyasi grafigi pasayuvchan ko'rinishda bo'ladi (1.1.1-chizma).



**Investitsiya hajmi**  
1.1.1-chizma. Investitsiya funksiyasining grafigi

Makroiqtisodiy siyosatda foiz stavkasi bilan investitsiya hajmi o'rtasidagi mavjud bog'liqlik hisobga olinadi va keng foydalaniladi. Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim quroli hisoblanadi. Davlat uni o'zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi. Foiz stavkasini ko'tarilishi pulning qimmatlashuvi va unga bo'lgan talabning qisqarayotganini bildiradi. Demak, investitsiya xarajatlari ham qisqarib boradi. O'z navbatida, investitsiya xarajatlarining qisqarishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmining pasayishini bildiradi.

Investitsiyalashda aylanma kapitalga ustuvorlik berilishini faqat kapitalning tarkibiy tuzilishi bilan tushuntirish yetarli emas. Gap shundaki, dastlabki kapital jamg'arish davrida pulni tez toplash uchun uni kapital aylanishi tez sohalarga joylashtirilishi yuz beradi, chunki bunda yuqori foyda me'yori yuzaga keladi. Foyda me'yori yuqori joyda esa, uni kapitallahtirish imkonni katta bo'ladi. Bu omil ham xususiy sektorda pulni aylanma kapitaliga aylantirish uchun rag'bat yaratadi. Bozor talablariga binoan tejamli xo'jalik yurita bilmaslik tannarxning ortishiga olib keladi, bu narx o'zgarmagan sharoitda ham zararga olib keladi. Bu albatta, investitsiyalarni o'z mablag'i hisobidan ta'minlash imkonini cheklab qo'yadi.

Investitsiyalarni jalb etilishi ko'p jihatdan investitsiya bozorini har tomonlama o'rGANISH, uni bashorat qilish bilan uzviy bog'liqdir. Investitsiya bozori investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish uchun zamin yaratib beradi. Investitsiya bozori ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismi va investitsiya xizmatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Uning asosiy unsurlariga talab, taklif, raqobat va baho kiradi. Bu unsurlar doimo o'zgarib turadi, ushbu o'zgarishlar iqtisodiyotdagi va bozor ichidagi omillar ta'sirida yuz beradi. Har bir investor uchun investitsiyaga bo'lgan talabni o'rGANISH, investitsiya bozorini tahlil etib, buning zaminida o'zining investitsiya dasturini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi

## **1.2. Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi**

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug'ortalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi. Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o'z ifodasini topadi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) Investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish.
- 2) Soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash.
- 3) Normalar, qoidalar, standartlarni belgilash.
- 4) Monopoliyaga qarshi choralarни qo'llash.
- 5) Kredit siyosati va narx siyosatini o'tkazishga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash.
- 6) Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtai nazaridan, turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish

me'yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha subyektlari – chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va norezidentlar)gacha bu munosabatlarning ishirokchilariga aylanadilar. Huquq nuqtai nazaridan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakati ko'pdan-ko'p qo'shimcha risklar bilan to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalgalashirish maqsadlarini ko'zlaydi. Respublika qonun hujjatlariga muvofiq chet el investitsiyalari milliylashtirilishi, davlat tasarrufiga olinishi mumkin emas. Chet el investitsiyalari tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar hollarini mustasno qilganda, rikvizisiya qilinmaydi. Chet el investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olingen o'z foydasи va boshqa mablag'larini chet el valutasida chetga o'tkazish kafolatlanadi. Qonun hujjatlarida chet ellik investorlarga ularning davlat boshqaruvining vakolatlari organlari bilan tuzadigan konsessiya shartnomalari asosida tabiiy resurslarni qidirish, foydalanishga tayyorlash va foydalanish hamda boshqa xo'jalik faoliyatini joriy qilish uchun konsessiyalar berish nazarda tutilgan. Respublika qonun hujjatlarini bilan taqiqlanmagan faoliyatning hamma sohalari va turlari bo'yicha konsessiya berilishi mumkin. Chet ellik investor qarori bilan investitsiyalarga hamda ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, tasarruf etish huquqi respublika qonun hujjatlarini bilan belgilangan tartibda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalgalashirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligini qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'naliishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birlgilikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirishdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan biri chet el investitsiyalari ishtirokida korxonalarini respublika mintaqalari bo'ylab bir tekis joylashtirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jaib qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jaib qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalar oqimini rag batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtiroy etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. Shunday qilib davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomonidan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomonidan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik subyektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jaib etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

### 1.2.1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalg etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar

<b>Rasmiy muassasa nomi</b>	<b>Muassasaning chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalg etish bilan bog'liq faoliyat doirasi</b>
Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiglashtirish departamenti	<i>Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiglashtiradi:</i> - investitsiya faoliyatini, bиринчи navbatda chet el investitsiyalari bilan amalgalashiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; - davlat boshqaruvi idoralari, vazirliliklar va idoralar ishini tashkil etish
Iqtisodiyot vazirligi	<i>Investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish</i>
Tashqi Iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	<ul style="list-style-type: none"><li>- Mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to'g'risida ma'lumotlar bankini shakllantirish;</li><li>- investitsiya muhitini o'rghanish;</li><li>- xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatish;</li><li>- investitsiya loyihalarini amalgalashirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko'rsatish;</li><li>- chet el kapitali ishtirokida amalgalashiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring);</li><li>- korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarzida ro'yxatga olish va xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini akkreditatsiyalash</li></ul>
Davlat mulkini boshqarish qo'mitasi	<i>Davlatga tegishli mulkni xususiylashtirish va tasarruf etish jarayonlarida chet el investitsiyalarini tartibga solish</i>
Moliya vazirligi	<i>Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish.</i>
Adliya vazirligi	<i>Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatga olish</i>
Tashqi ishlar vazirligi	<i>Xorijiy investorlarga va O'zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarga vizalar berish</i>
Ichki ishlar vazirligi	<i>Xorijiy investorlarni va O'zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarni turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish</i>
Davlat qo'mitasi soliq	<i>Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxonasi bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish</i>

	Markaziy bank	Konvertatsiya tartib-qoidalalarini, shuningdek uning o'tkazilishini, valuta mablag'laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati
	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko'rsatish va loyihami moliyalashni amalga oshirish
	«O'zbekinvest» davlat sug'urta kompaniyasi va «O'zbekinvest-interneshnl» qo'shma korxonasi	Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan va xavf-xatarlardan sug'ortalash
	«O'zbekinvestloyihha» milliy injiniring kompaniyasi	Dastlabki texnik-iqtisodiy asosnomani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asosnomalarini tayyorlash
	Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantrish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish. Mamlakat va xorijiy emitenlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish orgali majmua investitsiyalarini amalga oshirish

Davlat xorijiy investitsiyalarini tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug'ortalash va kafolatlash;

2) nomoliyaviy: yer uchaskalari ajratish; zaruriy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

### 1.3. Xorijiy investitsiyalar va ularni jalb qilinish sabablari

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkn to'la qonli ravishda xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixona chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjalariда taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday

daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi<sup>1</sup>. Xorijiy investitsiyalarining umumiyligi tarifi F. Xeniusning 1947-yil AQSHda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar»<sup>2</sup>.

Chet el investitsiyalari deyilganda chet mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarini tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarini barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarini yaratish, xususiy lashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lish, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 2 guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromonda ushlab turilishi;

- jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-tehnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

- ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;

- jahon iqtisodiyoti transmilliy lashtirilishining o'sib borishi (masalan, AQSH transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSH tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

- ishlab chiqarishning baynalminallahuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) siyosiy omillar:

- kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (erkin iqtisodiy hududlar (EIX), offshor hududlari va boshqalar);

- rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

- iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiy lashtirish, xususiy sektor va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

- bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Investitsiyalar zamonaliv texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ilmiy-tehnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositasidir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaliv,

<sup>1</sup> O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son. -T.: Adolat, 1998. -532bet

<sup>2</sup> Dictionary of Foreign Trade by F.Henus Sec/ Ed. N4, 1947. P 387.

raqobatbardoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal bo‘lishiga olib keladi.

#### **1.4. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli**


O‘zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o‘ynaydi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalarining sonini tobora ortib borishi va barpo etilayotganligi hukumatimizning bu sohaga bo‘lgan katta e’tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarни iqtisodiy rag‘batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo‘lib kelmoqda. Investitsiya muhiyi – mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me’yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui. Investitsiya muhiyi eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o‘rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy konyunktura holati, ichki bozor sig‘imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va h.k. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

O‘tgan yili iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish hajmi 8,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2008-yilga nisbatan 24,8 foizdan ko‘p demakdir. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 68 foizga o‘sdi, eng muhimmi, ularning asosiy qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilgan investitsiyalar bo‘lib, ularning hajmi 1,8 barobar oshdi (1.4.1-rasm).

**O'zbekiston Respublikasida 2005-2009-yillardagi investitsiyalar suratlari (oldingi yilga nisbatan foizda)**



**1.4.1-rasm.**

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini yanada jondantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinalarini shakllantirish va bular asosida milliy iqtisodiyotimizni barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori<sup>1</sup> tasdiqlangan bo'lib, ushbu dastur asosidagi kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimi investitsion kreditlarning ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

**1.4.1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida 2010-yilgi investitsion dasturi kapital qo'yilmalarining asosiy parametrlari**

Nº	Moliyalashtirish manbalarining nomlari	2010 yilgi prognoz. mlrd. so'm	Jamiga nishbatan foizda
	Kapital qo'yilmalar, jami	18220,3	100
1.	<i>Markazlashtirilgan investitsiyalar</i>	3819,8	20,9
2.	<i>Nomarkazlashtirilgan investitsiyalar</i>	14400,5	79,1
2.1.	Korxonalar mablag'lari	7777,7	42,7
2.2.	Tijerat banklari kreditlari	1530,0	8,4
2.2.1	Shu jumladan, ATB «Qishloq qurilish bank»ining imtiyozli kreditlari	256,3	1,4
2.3.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	3876,8	21,2
2.4.	Aholi mablag'lari	1216,0	6,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2010-yilgi investitsion dasturda belgilangan kapital qo'yilmalarining umumiyligi hajmi 18220,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, uning 8,4 foizi tijorat banklari kreditlari hisobiga moliyalashtiriladi.

Mamlakatimizdagi investitsiya jarayonlarining takomillashib borayotganligi namoyon etuvchi yana bir jihat - davlat budgetidan moliyalashtirish tarkibidagi nisbatlarning sezilarli darajada o'zgarib borayotganligi hisoblanadi.

Investitsiya jarayonlariga davlat budgetidan moliyalashtirilgan mablag'lar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, agar 2005-yilda davlat budgetidan moliyalashtirilgan mablag'larning 36,2 % respublika budgeti, 63,8 % mahalliy budget hisobiga ta'minlangan bo'lsa, 2009-yilda bu nisbat tegishli ravishda 35,5 % va 64,5 %ni tashkil etishi ko'zda tutilmagda. Bu esa investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishda mahalliy budgetlarning ishtiroki va roli kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

### **1.5. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarida investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos manbalari shakllantirilgan bo'lib, bunday manbalar korxonalarning o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyillariga asoslanadi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ishtirokchilari quyidagi jadvalda keltirilgan (1.5.1-jadval).

#### **1.5.1-jadval**

#### **Investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari va ishtirokchilari tasnifi**

Guruhi	Kichik guruhi	Investitsiya faoliyatini ishtirokchilari tashkili shakllari
Budget va nobudget fondlar	Davlat budgeti	Hukumat Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi
	Mahalliy budgetlar	Mahalliy vakolati organlar
	Nobudget fondlar	Pensiya fondi Bandlik fondi Investitsiya fondi va boshqa fondlar
Kredit tizimi	Banklar Kredit muassasalari	Markaziy bank Davlat g'aznachiligi Investitsion banklar Kredit uyushmalari
Sug'urta tizimi	Sug'urta fondlari va tashkilotlari	Davlat sug'urta kompaniyalari Nodavlat sug'urta kompaniyalari
Moliyalash-tirishning jamoaviy shakllari	Investitsion tashkilotlar Investitsion banklar Sug'urta tashkilotlari	Investitsiya kompaniyalari va fondlari Nodavlat pensiya fondlari Sug'urta kompaniyalari Payli investitsion fondlar
Xorijiy investorlar	Chet el davlatlari, hukumatlari, xalqaro moliyaviy institutlar, tijorat banklari, institutsional investorlar, investitsion banklar	Jahon banki Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliyaviy korporatsiya
Korxonalar, jismoniy shaxslar		Mulkchilikning turli shakllaridagi har qanday korxonalar

Hozirgi kunda respublikamizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjuddir:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg'armalari.
2. Bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish.
3. Davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga moliyalashtirish.
4. Xorijiy investitsiyalar.

So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, budjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o'zgardi.

Ayni paytda investitsiyalar moliyaviy manbalari tarkibiy tuzilishida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi (1.5.2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindiki, investitsiyalar moliyaviy manbalari tarkibida davlat budgetining ulushi 2008-yildagi 9,0 dan 2009-yilda 8,1 foizga qadar, korxonalar va aholi mablag'lari ulushi tegishli ravishda 53,9 foizdan 46,9 foizga qadar pasaygan. Chet el investitsiyalarining ulushi esa, aksincha, 25,8 foizdan 32,4 foizga qadar ko'tarilgan.

#### 1.5.2-jadval

#### 2005-2009-yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, foizda

Moliyalashtirish manbalari	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil
Davlat budjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1
Chet el investitsiyalar	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

O'zbekistonda ham investitsiya loyihalarni tuzish va moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ular negizida ikki asosiy omil yotadi:

- iqtisodiy barqarorlik;
- inflatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valuta-so'mning to'lov qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya loyihalarini tuzish va ularni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi omillar mayjud:

- investitsiya loyihalari bilan shug'ullanuvchi shaxslarni rag'batlantirish;
- sanoatning ustuvor sohalari, yoqilg'i, energetika majmualari bo'yicha investitsiya loyihalarini tuzishni jadallashtirish;
- iqtisodiyotda ilm-fanga talab kuchli tarmoqlarida ishlab turgan quvvatlarni yangilash va yangilarini barpo etish bo'yicha intellektual investitsion loyihalarni amalga kiritilishi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ilmiy- texnika, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdosh tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinnarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal bo'lishiga olib keladi.

2. Investitsiya munosabatlариниң давлат томонидан тартибга солиниши huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

3. Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomонидан yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir. Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarini yaratish, xususiy lashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog'ozlarni sotib olishi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lishda, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarida investitsiyalami moliyalashtirishning o'ziga xos manbalari shakllantirilgan bo'lib, bunday manbalar korxonalarining o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyillariga asoslanadi.


### **Nazorat uchun savollar**

1. Investitsiya tushunchasiga tarif bering.
2. «Investitsiya» atamasi qanday ma'noga ega?
3. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad nima?
4. Xorijiy investitsiya tushunchasiga tarif bering.
5. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering.
6. Investitsiya munosabatlari davlat tomонидан qanday qilib tartibga solinadi?
7. Xorijiy investitsiyalarning mohiyatini yoritib bering va ularni jalb qilinish sabablari tushuntirig.
- 8.O'zbekiston iqtisodiyetini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar qanday ahamiyat kasb etadi?
- 9.Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning qanday manbalari mavjud?

## 2-bob. XORIJY INVESTITSIYALARING SHAKL VA TURLARI

### 2.1. Xorijiy investitsiyalarning turlari

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to'g'risida mamlakatimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin. (2.1.1-chizma)



#### 2.1.1-chizma. Investitsiya turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'mi bo'ladi. **Moliyaviy investitsiyalar** tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

**Moddiy investitsiyalar** tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdag'i asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

**Aqliy (intellektual) investitsiyalar** miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ujar mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning turlari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilari beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. **Yalpi investitsiyalar** - bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni oladi. **Sof investitsiyalarni** aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratmalari chiqarib tashlanadi. Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rta sidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, yo'ng'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda

bo`ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo`lgan chog`da iqtisodiyotda turg`unlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga teng bo`lib, iqtisodiyotda shu yili qancha kapital iste'mol qilingan bo`lsa, uni qoplash uchun shuncha kapital qo`yilmalar kerak bo`ladi.

Iqtisodiy faoliik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo`lgan holdagi vaziyat xosdir, ya`ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko`proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishorasi manfiy bo`lib, uning mutlaq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga qaraganda kam bo`ladi. Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o`rtasidagi faol harakati zamoniaviy jahon xo`jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlarga aylandi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo`jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaqtida xalqaro investitsiyalarning o`rtacha yillik o'sish sur'ati 30 %dan oshadi. Bu ko`rsatkich jahon savdosining o'sish sur'atlaridan deyarli 5 marotoba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o`zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo`lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg`arilgan zaxiralarни mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo`ladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

**Kapital investitsiya** jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, uning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Innovatsiya investitsiyalar** jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o`zlashtirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Ijtimoiy investitsiyalar** jumlasiga insон salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo`shadigan investitsiyalar kiradi. Xorijiy investitsiyalar ko`lamiga qarab xalqaro investitsiyalar ko`rinishiga ham ega bo`ladi. Qurilish obyektiiga, yo`naltirilayotgan sohalar va ularni ishlatishdan olinadigan natijalarga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi.

**Real investitsiyalar** – pul mablag`lari korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat. **Moddiy investitsiyalar** asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog`liq bo`lib, ko`pchilik hollarda investitsiya loyihalari doirasida amalga oshiriladi. Shuningdek, real investitsiyalar real kapitalning o'sishini, ya`ni ishlab chiqarish mablag`lari, moddiy boyliklarning o'sishini ta'minlashi zarur.

**Moliyaviy investitsiyalar** deb aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog`ozlar uchun sarflangan qo`yilmalarga aytildi. Bu qo`yilmalar buyum ko`rinishdagi kapitalning o'sishini o`zida mujassam etmasada, lekin foyda, shu jumladan, spekulyativ foyda, ya`ni qimmatli qog`ozlar kursi o`zgarishi natijasida

vujudga keladigan foyda keltiradi. Moliyaviy investitsiyalar ikki xil ko'rinishi bo'ladi. Aksiyalarni sotib olish real moddiy ko'rinishdagi kapitalni yaratmaydi. Lekin kelajakda spekulyativ ko'rinishda foyda olish mumkin bo'ladi. Aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'ni ishlab chiqarish uchun, asbob uskunalar sotib olish uchun sarflaganda u real kapitalga aylanadi va real investitsiya ko'rinishini oladi. Shu sababdan qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi operatsiyalari natijasida olinadigan spekulyativ foyda keltiruvchi moliyaviy investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida pul ko'rinishdagi real moliyaviy investitsiyalarni farqlash lozim.

Fan-texnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishning eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo'yilmalar oshib bordi. Shuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadriar tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar o'sib bordi. Masalan, AQSH, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, bataysil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuterlashgan tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazkur sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi.

Shuning uchun ham jadal sur'atlar bilan rivojlanishda real investitsiyalar tarkibida fan-texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rnlardan birini egallashi zarur. Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadi sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflangan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino, inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiylar harakat yig'indisidagi ulushi texnologik tarkibini tashkil etadi. Investitsiyalarning qayta ishlab chiqarish tarkibi ularning qanday maqsadlarga yo'naltirilganligi yangi qurilishga, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini kengaytirishga, rekonstruksiyaiga va yangi texnika bilan qayta qorollantirishga jalb qilingan xarajatlarni umumiylar xarajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.


Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi. Davlat sektorida real investitsiyalar sarfi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital qo'yilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi. Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar dastlabki bozor infratuzilmasini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalarning samaradorligini oshirish asosiy kapitalning faol qismlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi. Real investitsiyalarni tafsiflash ularning hajmi va daromad keltirishi asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aksiyalar) va

qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'laroq moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portfel investitsiyalar deb atashadi, chunki bu holda investoring asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga va bank depozitlariga, uzoq muddatga jalb qilinadigan qo'yilmalardir. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi kapitalni noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat holatlarda real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga bo'lgan davlatlarda ko'proq tarqalgan.

Quyida keltirilgan chizmada xorijiy investitsiyalarning tasniflanish belgilari keltirilgan (2.1.2.-chizma). Xorijiy investitsiyalar investitsiya turlari, investoring ishtirok etish shakliga, qayta ishlab chiqarish shakliga, mablag' qo'yish obyektiiga, investitsiya kiritiladigan davriga, investitsiya bilan ta'minlashda ishtirok etishning xususiyatiga va moliyaviy xavf darajasiga ko'ra tasniflanadi.

Investitsiyada qatnashish tavsifiga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel (bilvosita) investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar investoring o'z moliyaviy mablag'larini joylashtirish obyektiini barpo etish imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar esa tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq) bo'ladi. Masalan, oddiy aksiyalarning muomalada bo'lishi umuman biror-bir muddat bilan cheklanmaydi. Depozit sertifikati (olti oy muddatga berilishi mumkin) qisqa muddatli qo'yilma turi bo'lsa, obligatsiyalar (masalan, 20 yilda qaytarish muddati bilan) uzoq muddatli qo'yilma turiga kiradi. Lekin, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib olish va qisqa muddatda, masalan olti oy o'tgandan so'ng, investor uzoq muddatli vositalardan qisqa muddatli maqsadlar uchun foydalaniishi mumkin. Ko'pincha investorlar ana shunday vositalarni tanlaydilar va o'z pullarini qisqa muddatlarga qo'yishni xohlaydilar. Masalan, yaqin olti oy mobaynida investor kerak bo'lmaydigan mablag'iga olti oylik muddatga ega bo'lgan depozit sertifikati sotib olishi mumkin. Qirq yoshga to'lgan investor pensiyaga chiqquncha pul yig'ish uchun biron-bir kompaniya ning obligatsiyasini 20 yilga sotib olishi mumkin. Odatda uzoq muddatli investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida namoyon bo'ladi.

Mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslari va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo'yilishini anglatadi.



### 2.1.1-chizma. Xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi

**Davlat investitsiyalari** - davlat tomonidan milliy daromadning davlat budjeti mablag`lari ko`rinishida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun sarflayotgan mabalag`laridir. Investitsiya munosabatlari shu darajada murakkab va ko`p qirratiki, ko`pincha davlatlar o`rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar o`rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog`langan bo`ladi. Bunday aloqa investor huquq va talablarini davlatga topshirganda yaqqol ko`rinadi. Xorijiy investitsiyalar ham davlat yoki xususiy investitsiyalar shaklida bo`lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat investitsiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqacha shakldagi qarzlar berishi mumkin. Bunday munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo`llaniladi. Ikkinci shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalari yoki fuqarolari boshqa mamlakatning tegishli subyektlariga beradigan investitsiyalar tushuniladi.

Hududiy joylashtirilishi bo`yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo`linadi.

Hozirgi davrda bir qator davlatlarda moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi investitsiyalashdan tashqari ijimoiy-madaniy sohalar uchun, fan tarmoqlari uchun, madaniyat, ta`lim, sog`liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalari uchun, informatika sohasi, tabiatni muhofaza qilish uchun investitsiya mablag`lari ajratilmoqda. Bu investitsiyalar xorijiy adabiyotlarda «inson investitsiyasi», «inson kapitaliga investitsiya qilish» deb atalmoqda. Bu investitsiyaning alohida bir ko`rinishi bo`lib, asosan kishilarning sog`lig`ini saqlash, aqliy va ma`naviy rivojlanishi uchun, hayotini uzaytirish hamda kishilarning ish faoliyatida ijodiy qatnashishi va uning samaradorligini oshirish uchun sarflanadi. Hozirgi vaqtida O`zbekiston Respublikasida investitsiyaning asosiy qismlari sog`liqni saqlash, maorif uchun sarflanmoqda. Bunga misol qilib, qishloq joylarda vrachlik ambulatoriya punktlari, kollej va litseylar qurish dasturlarini misol qilib keltirish mumkin.

## **2.2. Investitsiya faoliyatiga tegishli huquqiy munosabatlarning obyekti va subyekti**


Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne`matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblansa, investitsiya faoliyatini subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog`liq harakatlari majmui **investitsiya faoliyati** deb yuritiladi. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko`rinishidir, shuning uchun ham tadbirkorlikka xos bo`lgan belgilari, ya`ni mulkiy mustaqillik, tashabbuskorlik va tavakkalchilik unga ham xos bo`lgan xususiyatdir.

Investitsiya faoliyatining obyekti moddiy va nomoddiy ne`matlar ishlab chiqarish obyektlari hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining subyektlaridan biri investor bo`lib, u o`z mablag`larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag`larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyatini obyektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o`ziga xos faoliyat subyektlarining yana bir katta guruhi mayjud bo`lib, ular investitsiya faoliyati ishtirokchilari deb yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta`minlash bo`lib hisoblanadi.

### Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari

**O'zbekiston Respublikasining rezidentlari, fuqarolari, yuridik shaxslari**



**Investitorlar buyurtmachi** (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi ham bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar (investitorlar) quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi.

1. Joriy faoliyatning yo'naliishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar rolida sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalardagi aksiyadorlik jamiyatlari namoyon bo'lsalar, individual investorlar rolida fuqarolar namoyon bo'ladi.


2. Investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar. Ular o'z oldiga kompaniyalarni boshqarish huquqini olishni maqsad qilib qo'yadilar. Buni ular boshqa kompaniyalar aksiyalarining nazorat paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalining katta qismini egallash orqali amalga oshiradilar.

3. Rezidentlikka tegishliligi bo'yicha investorlar milliy va xorijiy investorlarga ajratiladi.

### 2.3. Bevosita va portfelli xorijiy investitsiyalar

Maqsadiga ko'ra xorijiy investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga bo'linadi. **Bevosita investitsiyalar** – kapitalning to'g'ridan-to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniya'ning xorijdagi shohobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI) asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo'ladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni BXIlar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega ega bo'lgan aksionerlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniлади (2.3.1-rasm).



2.3.1-rasm. Bir qator mamlakatlarda aksionerlik kapitalida xorijiy investorning nazorat qilish huquqini beruvchi hissasi

Bu ko'rsatkich AQShda 10 %, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20 %ga yaqin, Germaniyada 25 %dan 50 %gacha, O'zbekistonda esa 49 % darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilardan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun mas'uliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

BXI borasidagi yana bir yondashuv bu turdag'i investitsiyalarni faqat mulkchilik ko'lami bilan, ya'ni aksionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Unga muvofiq BXIlarni:

- a) xorijda aksiyalarni sotib olish orqali;
- b) foydani qayta investitsiyalash yordamida;
- v) firma ichki qarzlarini va qarzdorliklari orqali amalga oshirish mumkin.

Ko'pchilik iqtisodchilar bu shakllar yetarli emas, deb hisoblaydilar va asosli ravishda turli xil noaksioner shakllar orqali bu ro'yxatni davom ettirishadi:

subkontraktlar, boshqaruv kelishuvlari, franchayzing, litsenzion kelishuvlar va boshqalar.

BXIIlarning shakl va usullariga bog'liq tushunchalar bilan bog'liq turli xil yondashuvlarning ko'payishi qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar umumbashariy tavsifga ega bo'lib, nostandard yondashuvlar yechimini talab etadi.

Bevosita investitsiyalar asosan ikki guruhga ajratiladi:

1. Transkontinental kapital qo'yilmalar.

2. Transmilliy qo'yilmalar.

**Transkontinental kapital qo'yilmalar** - investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoti bo'lgan boshqa bir davlat yoki qit'aga investitsiya eksportini analga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish. **Transmilliy kapital qo'yilmalari** esa asosan qo'shi davlatlarga analga oshiriladi.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadda yo`naltiriladi:

• yangi kompaniya tashkil etish;

• bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

**Portfel investitsiyalar** - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'matish huquqini bermaydi. Xerijiy portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni analga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu turdag'i investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar.

Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- aksioner qimmatli qog'ozlari - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqqa egaligini tasdiqlaydi;

- zayom qimmatli qog'ozlar - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Zayom qimmatli qog'ozlari quyidagi shakkarda chiqariladi:

- obligatsiya (oddiy veksel, qarz majburiyati) qimmatli qog'oz bo'lib, uning sohibiga kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi yoki shartnoma asosida belgilangan o'zgaruvchan pul daromadini olish huquqini beradi;

- pul bozori dastaklari (g'azna veksellari, depozit sertifikatlari), uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi.

Bu dastaklar bozorda ko'p hollarda pasaytirilgan narxlarda sotiladi, narxni pasaytirish darajasi foiz stavkasining katta - kichikligiga va qarzni qoplanish muddatiga bog'liqidir. Bularga g'azna veksellari, depozit sertifikatlari va boshqalar kiradi.

**Moliyaviy derivativlar** – bozor narxiga ega bo'lib, uning sohibiga birlamchi qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga opsiyonlar, fyucherslar, varantlar, svoplar kiradi.

**Nota (qarz majburiyati)** - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo`lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o`z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta`minlanadi. Keng tarqalgan notalar – Yevronotalardir.

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatli qog`ozlar tezda naqd valutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o`z mablag`larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatli qog`ozlarga joylashtirishi mumkin.

Ma`lum bir ma`noda portfel investitsiyasi pulni inflatsiya va spekulyasiya yo`li bilan foyda ko`rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatli qog`oz turi ham hech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs o'sishiga qarab istalgan foydani berishi kerak bo`ladi.

Quyida portfel va bevosita investitsiyalar o`rtasidagi farq jadval ko`rinishida (2.3.1-jadval) yaqqol tasvirlab berilgan. Jadvalda portfel va bevosita investitsiyalarni kapital chiqarish maqsadi, maqsadga erishish yo`llari, maqsadga erishish usullari, daromad shakllari kabi belgilari keltirilgan.

### 2.3.1-jadval

#### Bevosita va portfel investitsiyalar o`rtasidagi farqlar

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
<b>Kapital chiqarishdan asosiy maqsad</b>	Xorijiy firma ustidan nazorat o`rnatish	Yuqori foyda olish
<b>Maqsadga erishish yo`llari</b>	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatli qog`ozlarini sotib olish
<b>Maqsadga erishish usullari</b>	a) xorijiy firmaga to`liq egalik kilish b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan kompaniya aksioner kapitalining 25 %dan kam bo`lnasligi kerak)	Xorijiy firma aksioner kapitalining 25 %dan (AQSh, Yaponiya, Germaniyada 10 %dan) kamini sotib olishi
<b>Daromad shakllari</b>	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

## **Qisqacha xulosalar**

1. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi. Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdag'i asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi. Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning turlari bozor munosabatlarning nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

2. Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

3. Investitsiyada qatnashish tavsifiga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z moliyaviy mablag'larini joylashtirish obyektini tiklash imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

4. Investitsiya faoliyatining subyektlaridan biri investor bo'lib, u o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalg etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga jalg etishni amalga oshiradi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Investitsiyaning shartli ravishda qanday turlarini ajratish mumkin?
2. Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab qanday turlarga ajratiladi?
3. Xorijiy investitsiyalarning qanday shakllari mavjud?
4. Investitsiyada qatnashish tavsifi va maqsadiga ko'ra investitsiyalar qanday turlarga ajratiladi?
5. Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qanday turlarga ajratiladi?
6. Mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar qanday turlarga ajratiladi?
7. Investitsiya faoliyatiga tegishli huquqiy munosabatlarning obyekti va subyekti haqida tushuncha bering.
8. Bevosita va portfelli xorijiy investitsiyalarning asosiy o'ziga xos xususiyatlari hamda farq qiluvchi jihatlarini tushuntirib bering.

## **3-bob. GLOBALLASHUV HAMDA IQTISODIY INTEGRALLASHUVNING KUCHAYIB BORISHIDA INVESTITSIYA JARAYONLARI**

### **3.1. Jahon iqtisodiyotining globallashuvida xorijiy investitsiyalarning o'rni**

**Globallashuv jarayoniga qo'shilish** - dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator belgililar ham xosdir. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti uchun investitsion faoliyik va jahon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi roli ortib borayotganligi ham unga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

MDH mamlakatlarining paydo bo'lishi bilan xorijiy investorlarning investitsion faoliyatlarini amalga oshirishdagi yangi imkoniyatlar maydoni paydo bo'ldi. Shuni aytish kerakki, xorijiy investorlar bu masalada katta tajribaga ega. Albatta bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni investitsiyalar qabul qiluvchi (MDH) davlatlar uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini qabul qilishdagi investitsion tanlov imkoniyati yaratildi. Bunga oddiy hol deb qarash kerak emas, chunki, investitsiyalar-iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uni olg'a siljituvchi kuchdir.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilar ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish garovi, iqtisodiyotni harakatga keltiruvechi kuch hisoblanadi. Yaqin yillargacha faqat xomashyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan O'zbekiston bugun dunyo xaritasida o'zining munosib o'mini egallashga, boshqa taraqqiy topgan mamlakatlar, avvalambor, AQSh, G'arbdagi demokratik davlatlar, sharqdagi Yaponiya, Koreya, Malayziya yoki shunga o'xshash davatlarga teng bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunda birinchi galdag'i chet el sarmoyalari, chet el investitsiyasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu davlatlarning tarixi shuni ko'rsatadi, agar bu xorijiy mamlakatlarga sarmoya kelmasa, hech qachon bu davlatlar bugungi rivojlanish darajasiga ko'tarila olmas edi.

O'zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo'lindi, degani emas. Endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni, salmog'i mazkur davlatdag'i investitsion muhitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jihatdan xorijiy investitsiyalarga

nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari bilan baholanadi. Strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yo'naltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va chet el investorlarini birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollar qiziqtiradi.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy jarayonlar hisoblanib, jahon bozori bilan o'zaro yaqin va to'liq bog'liqlikda bo'ladi. Shu nuqtai nazardan u ko'pgina iqtisodiy jarayonlarni o'zida qamrab oladi. Xorijiy investitsiyalar bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Eng muhim yo'naliш sifatida xorijiy investitsiyalarni jalg etishni o'z ichiga olgan investitsiya faoliyatining jadallahuvি bugungi kunda o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayni muddao. Xorijiy investitsiyalarni jalg etish u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga bog'liq.

### **3.2. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish**

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakkidan qat'i nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalg etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib olishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi.

**Kioto Protokoli** - Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konvensiyasiga (IO'HK) 1997-yil 11-dekabrda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1999-yil 20-avgustda ratifikasiya qilingan va 2005-yil 16-fevraldan boshlab kuchga kirgan bo'lib, "parnik effekti"ni hosil qiluvchi gazlarni atmosferaga chiqarishni qisqartirish mexanizmlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 6-dekabrdagi PQ-525-son qaroriga muvofiq Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha (MRM) Idoralararo kengash tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha Milliy organ hisoblanadi. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskori tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, arizaga MRM bo'yicha nazarda tutilayotgan investitsiya loyihasi to'g'risidagi umumiy axborot ilova qilinadi. Loyiha bo'yicha buyurtmanoma O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishiladi. Zarurat bo'lganda, loyiha bo'yicha buyurtmanomaga kiritish uchun MRM Milliy organi tomonidan loyiha bo'yicha qo'shimcha axborot va hujjatlar so'rab olinishi mumkin. MRM Milliy organi loyiha bo'yicha buyurtmanoma taqdim etilgan vaqtidan boshlab ikki hafta muddatda loyihami MRM doirasida barqaror rivojlanish milliy

mezonlariga muvofiq amalga oshirish mumkinligini ko'rib chiqadi. Loyihani MRM dorasida amalga oshirish mumkinligi to'g'risidagi masala ijobiy ko'rib chiqilgan taqdirda MRM Milliy organi Idoralararo kengashga loyiha bo'yicha buyurtmanomani ma'qullash uchun loyihani amalga oshirish mexanizmi bo'yicha xulosa hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablar bilan birga kiritadi. Idoralararo kengash taklifni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko'rib chiqadi va loyihani amalga oshirish mumkinligi to'g'risida yoxud loyihani puxtalashtirish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Loyihani amalga oshirish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Idoralararo kengash tomonidan, zarurat bo'lganda, ayni bir vaqtida investor tanlash bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi, tanlovnı o'tkazish muddatlari va loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga talablar tasdiqlanadi. Idoralararo kengash tomonidan loyihani amalga oshirish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi uch kun muddatda loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi. xabarnomada loyihani amalga oshirishning tavsiya etilayotgan mexanizmini hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablarni ko'rsatadi. Loyihani xalqaro moliya institutlari orqali amalga oshirish mexanizmini tanlashda loyiha-texnik hujjatlarini (LTH) tayyorlash, investorlarni, vakolatli operativ organlarni va chiqindilarning sertifikatlangan qisqartirishlari xariderlarini tanlash tegishli xalqaro moliya institutlari tomonidan belgilangan tartibotlarga muvofiq amalga oshiriladi. MRM Milliy organi tomonidan tanlov asosida tanlab olish zarurligi ko'rsatilgan taqdirda loyiha tashabbuskor loyihani amalga oshirish uchun Idoralararo kengash tomonidan belgilanadigan muddat va talablarga muvofiq investor tanlash bo'yicha tanlov e'lon qiladi.

Ikkinch bosqichda tashabbuskor tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, unga quyidagilar ilova qilinadi:

- muzokaralar davomida erishilgan dastlabki va yakuniy qiyosiy jadvallar, loyiha tashabbuskor tomonidan tanlangan taklif ko'rsatilgan holdagi tanlov qatnashchilari takliflari;

- MRM tartibotlariga muvofiq ishlab chiqilgan rus va ingliz tillaridagi loyiha-texnik hujjatlar;

- loyihani amalga oshirishning oylar bo'yicha jadvali;

- Gidrometeorologiya xizmati markazining loyiha bo'yicha ijobiy xulosasi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining loyiha bo'yicha ijobiy ekologik xulosasi.

Quyidagilar Idoralararo kengash tomonidan loyihani baholashning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligi;

- loyihaning ekologiya talablariga muvofiqligi;

- texnologik asbob-uskunalarining zamonaviy sifat standartlariga muvofiqligi.

Idoralararo kengash ikki hafta muddatda takliflarni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko'rib chiqadi va loyihani amalga oshirishning mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi. MRM bo'yicha loyiha amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihasiga qo'shimcha deb hisoblangan taqdirda asosiy investitsiya loyihasini

tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish tartibi ana shunday loyihalar uchun tatbiq etiladigan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Asosiy investitsiya loyihasi bo'yicha dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash tasdiqlangungacha yoxud O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro moliya institutlari o'rtaida o'zaro hamfikrlik to'g'risidagi memorandum imzolangungacha loyiha bo'yicha buyurtmanoma berish bosqichida MRM bo'yicha loyiha komponentini amalga oshirish yuzasidan Idoralararo kengashning ijobi qarorini olish zarur. Idoralararo kengashning loyihami amalga oshirish to'g'risida ijobi qarori qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi va IO'HK Ijro etuvchi kengashiga loyiha bo'yicha ma'qullash xati jo'natadi. MRM Milliy organidan ma'qullash xati olingandan keyin MRM loyihasi tashabbuskori validasiya (loyihani tasdiqlash to'g'risidagi qaror) qilish va keyinchalik loyihami IO'HK Ijro etuvchi kengashida MRM tartibotlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli Vakolatlari organni tanlash bo'yicha mas'ul hisoblanadi. Loyiha-texnik hujjatlar ekspertizadan ijobi o'tkazilganda va Vakolatlari operativ organ tomonidan tasdiqlanganda loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga MRM loyihasini amalga oshirish to'g'risida Hukumat qarori loyihasini kiritadi. MRM loyihasi tashabbuskori, shuningdek chiqindilar chiqarishning kamayishi monitoringi, MRM talablariga muvofiq chiqindilar chiqarishning qisqarishini tasdiqlash va sertifikatlash bo'yicha tadbirlarning bajarilishi uchun javob beradi. Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha investitsiya loyihalariga nisbatan qo'llanadigan Barqaror rivojlanish milliy mezonlari quyidagi chizmada aks ettirilgan (3.2.1-chizma).



### 3.2.1.- chizma. Barqaror rivojlanish milliy mezonlari

#### Iqtisodiy mezonlar:

- tayyor mahsulot birligi hisobiga energiya va xomashyo sarfini kamaytirish;
  - zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarish samaradorligi yoki tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
  - O'zbekiston Respublikasida xususiy sektorini rivojlantirishga ko'maklashish.
- Ekologik mezonlar:

- atrof-muhitning saqlanishiga va yomonlashishining oldini olishga ko'maklashish;
- tabiiy xomashyo sarfini va ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytirish;
- xomashyodan takroriy foydalanishga va tiklanayotgan tabiiy resurslardan foydalanishga yo`naltirilgan texnologiyalarni joriy etish;
- atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirish.

Ijtimoiy mezonlar:

- aholining ish bilan bandligining o'sishiga va haqiqiy daromadlarining oshishiga ko'maklashish;
- loyihami amalga oshirishga jalg etilgan xodimlarning va loyiha amalga oshirilayotgan hududda yashaydigan aholining sog'lig'ini yaxshilash;
- aholining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalaridan xabardorligini oshirish.

Tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasi barcha Barqaror rivojlanish milliy mezonlarini qondirishi shart emas, lekin ko'rsatib o'tilgan mezonlarga muvofiq mamlakatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

### **3.3. O`zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini ishlab chiqish**

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbir va ishlar majmuidir.

O`zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi:

- a) dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA) - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish;
- b) dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIH) - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish;
- v) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarni ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) O`zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan - DTIA (DTIH) hamida tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoraarning - Shaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor konyunkturasi darajasiga muvofiqligi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni ama'ga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek xomashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori konyunkturasini ta'minlash nuqtai nazaridan loyihami amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan,

DTIH bo'yicha - ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va "boshqa tarmoqlar"ni rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullahtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

v) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda "Davarxitektqurilish" qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing konsepsiysi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori konyunkturasi, shuningdek tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari nuqtai nazaridan loyihami amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtidan boshlab ikki hafta muddatda ko'rib chiqiladi.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal tavsifini taqdim etish mumkin bo'lmanan taqdirda asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA(DTIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihamarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uch besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar.

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtidan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - loyihaming moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaming maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, shuningdek loyihami moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - loyihami amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasiining maqbulligi, loyihaming maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

d) xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaming iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaming maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtidan boshlab ikki hafta muddatda. Moliyalashtirishni budget mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan obyektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lган obyektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to'lash uchun mablag'lar taqchilligini budget mablag'lari hisobiga uzishni nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarida nazarda tutilayotgan budget mablag'laringin maqsadga muvofiqligi (muvofig)

emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi xulosalar mayjud bo'lishi kerak.

Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda xulosa huquqiy voris bo'lgan tashkilot tomonidan beriladi.

DTIA (DTIH)ni tasdiqlash to'g'risidagi hujjat loyihaning nomi, uning tashabbuskor, qurilishning cheklangan qiymati (shu jumladan, import texnologik va boshqa asbob-uskunalarini sotib olish xarajatlari), obyektning hisoblab chiqilgan quvvatini (ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmi va nomenklaturasini), shuningdek iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini, shu jumladan eksport hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) parametrlari, shu jumladan, xarajat turlari bo'yicha moliyalashtirishning cheklangan limitlari asosida loyiha tashabbuskor tomonidan, belgilangan tartibda:

a) moliyalashtirish manbalari belgilanadi va kelishiladi;

b) pudratchilarni va loyiha bo'yicha xarid qilinadigan texnologik asbob-uskunalarini yyetkazib beruvchilarni aniqlash uchun tanlov hujjatlari ishlab chiqiladi.

Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) - davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi (hamkorlikda moliyalashtiruvchi) institutlardir.

Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) - O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi (hamkorlikda moliyalashtiruvchi) xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridir.


XMII va XHMT qarz mablag'lari jalb etilgan holda ro'yobga chiqariladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskorlari "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga XMII(XHMT)ning baholashdan oldingi missiyalari hisobotlari asosida tayyorlangan, loyiha qiymatining dastlabki bahosini va jalb etiladigan qarz mablag'lari miqdorini o'z ichiga oluvchi loyihani amalga oshirish zarurligi to'g'risida takliflar kiritadilar.

XMII(XHMT)ning loyihani moliyalashtirish/hamkorlikda moliyalashtirish yuzasidan roziligi elning taqdirda ularning baholash komissiyalari hisobotlari asosida O'zbekiston Respublikasi bilan XMII(XHMT) o'rtasida o'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum belgilangan tartibda imzolanadi. Ikkinci bosqichda loyiha tashabbuskor XMII(XHMT)ning baholash missiyasi hisoboti asosida TIAni ishlab chiqadi va ayni bir vaqtda ko'rib chiqish uchun vakolatli ekspertiza organlariga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga(hamkorlikda moliyalashtirishga) tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining DTIA(DTIH) va TIA(TIH) ushbu bo'limda bayon qilingan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi (3.3.1-chizma).

Loyihaoldi hujjatlari - qabul qilingan parametrarga ko'ra loyihani amalga oshirish imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek uning hayotiyligini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi hisoblanadi.



### **3.3.1-chizma. Loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish sxemasi**

Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar yonetkazib berish, qurilish-montaj ishlarni va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o'tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, shuningdek moliyaviy takliflar yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag'lari jalb etilgan taqdirda) kiradi.

Loyiha hujjatlari - ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni, qurilishning smeta qiyomatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi (3.3.1-jadval).

**Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning  
namunaviy tarkibi**

<b>No</b>	<b>Mazmuni</b>
1.	Loyiha maqsadi (rezyume)
2.	Loyiha buyurtmachisi
3.	Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari)
4.	Marketing tahlili (bozorni o'rganish, marketing konsepsiysi)
5.	Moddiy resurslar
6.	Obyektning joylashgan joyi
7.	Loyihalashtirish va texnologiya
8.	Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo'shimcha xarajatlar
9.	Mehnat resurslari
10.	Loyihani amalga oshirish sxemalari
11.	Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash
12.	Xulosalar ( Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari, noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari, loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash)
13.	Milliy va xorijiy valutada (xarajatlar alohida aks ettirilgan holda) moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar aks ettirilishi kerak, ularning sxema ko'rinishlari mavjud bo'lishi kerak
14.	Tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo'lishi kerak: - yuridik hujjatlar; - kontrakt hujjatlar; - smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar; - ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar; - tayyor mahsulotni sotish va xomashyo, materiallar xarid qilish marketing tadqiqotlari bo'yicha hujjatlar

Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIA yoki DTIH) - variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy yechimini tanlashni, umuman loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan manbalari bo'yicha variantlarni hisobga olgan holda moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (TIA va TIH) - investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi loyihaoldi hujjatidir

Investitsiya loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishi quyidagi vakolatli ekspertiza organlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o'tadi (3.3.2-jadval).

### 3.3.2-jadval

#### Vakolatli ekspertiza organlari

Vakolatli ekspertiza organlari	Xulosa natijasi (tavsiya etildi/ rad etildi)
Iqtisodiyot vazirligi	
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	
"Davarxitektqurilish" qo'mitasi	
Moliya vazirligi	
Vakolatli bank (banklar)	

#### 3.4. Investitsiyalarning eksporti va importi

Tobora kengayib borayotgan kapitallar bozorining baynalmillashuv jarayoni bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlар о'rtasidagi kapital oqimi hajmining ortib borishi bilan ajralib turadi. Xalqaro kapitallar oqimi ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o'sha tomonga oqib o'tadi. Bu haqda bevosita va portfel investitsiyalar hajmining umumiy o'sishi, qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmining ortishi, yevrovaluta bozorlaridagi operatsiyalar miqyosining oshib borishi va boshqalar darak beradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yetakchi o'rnlardan birini egallar ekan, u o'z navbatida jahon xo'jaligi rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir, avvalambor, kapitallar migratsiyasining jahon iqtisodiyotini o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi. Kapital ishlab chiqarishning qulay investitsiya muhiti mayjud sohalarni izlab, chegaralarni kesib o'tadi. Xalqaro investitsiyalar ko'pchilik mamlakatlар uchun ishlab chiqarishdagi kapital yetishmasligi muammosini hal etish, investitsiya salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlatish imkonini beradi. Kapitalning chetga chiqishi xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatlарaro kapitallar harakati ular о'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikni mustahkamlaydi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini chuqurlashtiradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon savdosи rivojini rag'batlantirar ekan, u mamlakatlар о'rtasidagi o'zaro tovar ayrboshlash hajmini oshiradi, jumladan, xalqaro korporatsiyalar filiallari о'rtasidagi oraliq mahsulotlar ayrboshlanishini tezlashtiradi. Moliyaviy bozorlarning o'zaro integratsiyalashuv va baynalminallahuv sharoitida kapitalning xalqaro takroriy ishlab chiqarilishi ta'minlanadi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalar mexanizmining samaradorligi oshadi. Boshqa tomondan esa

nazorat qilinmaydigan kapitallar oqimi mamlakat to'lov balansi muvozanatining buzilishiga va valuta kursining sezilarli darajada tebranishiga olib keladi.

Deyarli barcha mamlakatlar amalda investitsiyalarni ham eksport, ham import qiladi (chunki, BXllar asosan TMK orqali amaiga oshiriladi) yoki investitsiyalarni yetkazib beruvchi (qayerda TMK bosh boshqaru bo'limi joylashgan bo'lsa) hamda qabul qiluvchi (TMK o'z shaxobchalar, bo'limlariga ega bo'lsa, ular BXllar asosida harakat qilishadi) sifatida ishtirok etishadi.

Xalqaro capitallar migratsiyasi bilan bog'liq oqibatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishga bevosita ta'sir o'tkazadi. Tabiiyi, ulardan kutiladigan salbiy va ijobjiy oqibatlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun turlichadir. Ammo har qanday sharoitda ham salbiy oqibatlarni chetlab o'tgan holda faqatgina ijobjiy omillardan foydalanish mumkin emas. Xorijiy kapitalni jalg qilish bilan bog'liq o'ta murakkab va ziddiyatlari jarayon bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatida bu borada ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda capitallarni jalg qilish va chetga chiqarish borasidagi salbiy oqibatlarga qaramasdan kapitalni chetga olib chiqish tendensiyasi tobora kuchaymoqda. Chetga kapital olib chiqishni faollashtiruvchi omillardan biri milliy iqtisodiyotlar o'rtafiga o'sib borayotgan o'zaro bog'liqlik hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminalashuvi capitallar xalqaro migratsiyasiga katta ta'sir o'tkazadi va uning harakatini tezlashtiradi. Kapital eksporti, ayniqsa, bevosita investitsiyalar shaklida chetga olib chiqilishi ishlab chiqarishning xalqaro tus olishiga va xalqaro mahsulot deb atalmish mahsulotlarning yaratilishida asosiy omil hisoblanadi. Xalqaro capitallar migratsiyasi jahon xo'jaligining rivojlanishida rag'battantiruvchi omil sifatida yuzaga chiqishi bilan birgalikda xorijiy kapitalni jalg qiluvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar uchun turli oqibatlarga olib keluvchi ta'sir o'tkazadi.

Kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun capitallar migratsiyasi quyidagicha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- chetga chiqarilayotgan kapital o'mini qoplovchi xorijiy investitsiyalarni jalg qilmaslik chetga kapital chiqaruvchi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin;

- kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitalni chetga chiqarish ularda bandlik darajasining pasayishiga olib keladi;

- chetga kapital chiqarish mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir qiladi.

Kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlar uchun esa quyidagi ijobjiy tomonlar xos:

- boshqariladigan kapital importi mamlakat iqtisodiy o'sishiga yordam beradi;

- jalg qilingan kapital qo'shimcha ish o'rinnarini yaratadi;

- xorijiy kapital yangi texnologiyalarni olib keladi, samarali menejment esa mamlakatda ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT)ni tezlashtiradi;

- kapitalning kirib kelishi retsipyent mamlakat to'lov balansining yaxshilanishiga olib keladi.

O'z navbatida kapitalni jalg qilishning salbiy oqibatlari ham mavjud:

- xorijiy kapital milliy kapitalning o'mini egallab, uni foyda normasi yuqori tarmoqlardan siqib chiqaradi, natijada ma'lum sharoitlar ta'sirida mamlakat

iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi va uning iqtisodiy holati xavf ostida qolishi mumkin;

- kapital importi ko'pincha retsipliyent mamlakat bozorlarida o'z hayotiy siklini o'tab bo'lgan tovarlarni o'tkazish bilan bog'liq, shuningdek, ishlab chiqarishdan sifatsizligi aniqlanganligi bois olib tashlangan tovarlar bilan bog'liq bo'ladi;

- ssuda kapitali importi mamlakat tashqi qarzining ko'payishiga olib keladi;

- moliyaviy inqirozlar natijasida va fond bozorlaridan kapitalning oqib ketishi mamlakat valutasining barqarorligiga va umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatga jiddiy zarar yetkazadi. Misol uchun 1997-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarda yuz bergen moliyaviy inqiroz va uning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini keltirish mumkin.

TMKlarning ko'plab filiallari orqali kapital qo'yish ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuviga olib keladi. Turli mamlakatlarning mustaqil yuridik kompaniyalari bir xalqaro korporatsiya doirasida tarmoqli, texnologik, detallli ixtisoslashuv orqali yaqin aloqada bo'lleshadi. Kapital eksporti esa bu aloqlarni mustahkamlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish, bandlilikni oshirish uchun salmoqli hajmdagi xorijiy kapitalni jalg etish bilan bog'liq iqtisodiy siyosatlari ham kapitallar migratsiyasini ragbatlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiya muhitini erkinlashtirish orqali xorijiy kapitalni jalg etish va bu orqali iqtisodiy rivojlanishga turki berishga harakat qilishadi. Kapitallarning xalqaro harakatini rag'batlantiruvchi omillardan yana biri xalqaro moliyaviy tashkilotlar faoliyatini bo'lib, ular kapitallar oqimini tartibga solib turishadi.

Mamlakatlar o'rtaida tuzilgan daromadlar va kapitallarni ikki karra soliqqa tortishning oldini olish maqsadidagi xalqaro kelishuvlar o'z navbatida mamlakatlar o'rtaсидаги savdo, ilmiy-texnik hamda investitsiyalarni jalg qilish borasidagi aloqlarni mustahkamlaydi.

Amalda dunyodagi barcha mamlakatlar BXIlarni faol qo'llab-quvvatlashmoqda. Ularning erkin harakati uchun qulay muhit yaratishga intilmoqda, mavjud cheklanishlar bekor qilinmoqda, amaldagi bozor raqobati uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston kapitalni import qiluvchi mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqmoqda. Bu borada bir qator milliy manfaatlar hisobga olinadi. Kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hozircha yetishmayotgan milliy resurslarni to'ldirishi, zamonaviy texnologiyalar, uskunalar, «nou xau»ni olib kirishi, xorijiy mutaxassislar, ekspert va konsultantlarni jalg qilish tufayli mahsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, qo'shimcha ish joylari yaratadi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperatsiya tufayli mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Globallashuv jarayoniga qo'shilish dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Globallashuv jarayoniga

iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator omillar ham xosdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni, salmog'i mazkur davlatdag'i investitsion muhitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jihatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari bilan bahoланади.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalb etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib olishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihibalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi. Kioto Protokoli - Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konvensiyasiga 1997-yil 11-dekabrda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1999-yil 20-avgustda ratifikasiya qilingan va 2005-yil 16-fevraldan boshlab kuchga kirgan, parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish mexanizmlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasi (loyiha) iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar majmuasidir.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yetakchi o'rnlardan birini egallar ekan, u o'z navbatida, jahon xo'jaligi rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir, avvalambor, kapitallar migratsiyasining jahon iqtisodiyotini o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi. Kapital ishlab chiqarishning qulay investitsiya muhiti mavjud sohalarni izlab, chegaralarni kesib o'tadi. Xalqaro investitsiyalar ko'pchilik mamlakatlar uchun ishlab chiqarishdagi kapital yetishmasligi muammosini hal etish, investitsiya salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlatish imkonini beradi.

### Nazorat uchun savollar

1. Globallashuv jarayoniga qo'shilish nimani anglatadi?
2. Globallashuv jarayoniga xos bo'lgan qanday belgililar mavjud?
3. Kioto Protokoli qanday hujjat hisoblanadi?
4. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi va investitsiya loyihibalarini tayyorlash o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konvensiyasining asosiy maqsadi nima?
6. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihibalarini tayyorlash va amalga oshirish nimalarni o'z ichiga oladi?
7. Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha investitsiya loyihibalariga nisbatan qo'llanadigan Barqaror rivojlanish milliy mezonlarini tushuntirib bering.
8. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari qanday izchillikda ishlab chiqiladi?
9. Xalqaro kapitallar migratsiyasi va oqimi haqida tushuncha bering.

## **4-bob. XORIJİY INVESTORLAR HUQUQIY HOLATİNİNG O'ZİGA XOS XUSUSİYATLARI**

### **4.1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning huquqlari**

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'mni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tafbiq etish, yangi ish o'rinnari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

O'zbekistonda Prezidentimiz I. Karimov rahbarligida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlash maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etishga strategik ustuvor vazifa sifatida qaralib, mazkur masala davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi etib belgilangan. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Eng muhimmi, xorijiy va mahaliyi sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhitini yaratilgan.

Bular Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda chet el investitsiyasini jalb etishning tegishli tashkiliy-huquqiy, institutsional tuzilmalari va infratizimini yaratish hamda mavjud shart-sharoitlarni izchil rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirilganini yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, bunda qonuniy kafolatiarni yaratish alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni qabul qilish, ularga zamon talablariga mos ravishda o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borishning sababi bitta - qayerda imtiyoz va sharoit yaratilgan bo'lsa, qonuniy kafolat beriladigan bo'lsa, shu yoqqa investitsiya keladi. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonun yigirma ikkita moddadan iborat bo'lib, uning o'ninchisi moddasi chet ellik investorlarning huquqlari alohida belgilab qo'yilgan.

Chet ellik investor xalqaro huquq prinsiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;
- o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorlarning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish.

ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

- O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingen o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

- investitsiya faoliyati natijasida olingen daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliksiz repatriatsiya qilish);

- O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlar tariqasida pul mablag'lari jalb etish;

- o'z hisobvarag'idagi milliy valuta mablag'lardan ichki valuta bozorida chet el valutasini sotib olish uchun foydalanish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'ilarini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;

- o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

- davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining hamda ular mansabdon shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida yetkazilgan zararlarni undirish.

Chet elliq investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

#### **4.2. O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari**

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar uning huquqiy asosi bo'lib xiznat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 04.12.1998-y.;

- O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, 30.04.1998 y.;

- O'zbekiston Respublikasining «Chet elliq investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralarini to'g'risida»gi Qonuni, 30.04.1998-y.;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida»gi Qarori, 28.10.2009-y.;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalg etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 11.04.2005 y.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralar to'grisida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari xorijiy investitsiyalarni jalg etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizdag'i siyosiy, iqtisodiy, moliviayi barqarorlik chet el investitsiyasi uchun har tomonlama qulay sharoit yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining oqilonqa siyosati natijasida qabul qilinayotgan imtiyozi muhitini yaratuvchi qonunlar chet ellik investorlarda tobora katta qiziqish uyg'otmoqda.

Ma'lumki, chet el investorlari mamlakatimiz hududida o'z ishlab chiqarish faoliyatini, qoidaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etish yo'lli bilan amalga oshiradilar. O'z ehtiyojlari uchun yurtimiz hududiga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar, ularga butlovchi buyumlar, shuningdek xomashyo va materiallar olib kirayotgan xorijiy investorlar uchun amaldagi qonun hujjatlarida muayyan imtiyozlar nazarda tutilgan. Jumladan, "Boj tarifi to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasi va "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulkka bojxona boji solinmas edi.

Yangi qonun asosida, chet ellik investorlar uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida yuqorida qayd etilgan har ikki qonunga o'zgartishlar kiritildi. Endilikda nafaqat chet ellik investorlar, ayni chog'da, ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ham o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiradigan mol-mulk bo'yicha boj undirilishidan ozod qilindilar. Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida "Boj tarifi to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasida va "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida belgilangan imtiyozlar ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalarga ham tatbiq etiladigan bo'ldi.

Yangi qonunda ko'zda tutilgan imtiyozlar ana shu xayrli maqsadlarga erishishimizda muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qonun xalqimiz farovonligini oshirishda ham ulkan ijobjiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Xususan, aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinnari ochish, eng zamonaviy texnologiya va jihozlamni keltirish hisobiga ish unumi va samaradorligi oshishi muqarrar. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir huquqiy hujjatlar tizimida xorijiy investitsiyalar masalasiga bevosita taalluqli bo'lgan qonunlar muhim o'r'in tutadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy o'sishning jadal borishini ta'minlash, respublika iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini jalg qilish va umuman, jahon andozalariga erishish uchun xorijiy investitsiyalar sohasidagi mavjud qonunchilik bazasini qayta ko'rib chiqish zarurati obyektiv ravishda paydo bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalg etish strategiyasi bo'lajak chet ellik investorlarning manfaatlarini hamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan holda ularni qondirish imkoniyatlarini o'rganishga asoslanadi. Buning uchun, bir tomonidan, iqtisodiyotni tarkiban qayta qurishga qaratilgan bir qator aniq

loyihalarni amalga oshirish zarur bo`ladi; ikkinchi tomonidan, ichki investitsiya resurslari cheklangan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati juda yuqori baholanadi. Investitsiya muhitini yanada yaxshilash shartlaridan biri bank tizimini takomillashtirish, moliya bozorida raqobatni vujudga keltirish, naqd puldag'i va naqd bo'limgan puldag'i operatsiyalarni amalga oshirishni yaxshilash, shuningdek xorijiy investorlarni axborot bilan ta'minlashni yaxshilashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning boshlanish davridan chet el investitsiyalarini jalb qilishga tuzil maviy qayta qurishning hamda umumjahon iqtisodiy hamjamiyatiga kirib borishini tezlashtiruvchi omil sifatida asosiy ustuvorlik berildi. Hozirda, respublikada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha huquq baza yaratildi, investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlarga xizmat ko'sratuvchi infratuzilma barpo qilindi va bu jarayon takomillashib bormoqda. Bu borada «Valutani tartibga solish» to'g'risidagi Qonun qabul qilindi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining vazifalari qayta ko'rib chiqildi va uning milliy valutani konvertatsiyasi hamda import kontraktlarini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan vazifalari bekor qilindi. Jumladan, 2003-yil 15-oktyabrdan milliy valuta joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha erkin konvertasiyasining ochilishi mamlakatdagi investitsiya iqlimini yaxshilashga va xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishiga katta imkoniyatlar yaratdi. 1998-yil 30-aprelda Oliy Majlis tomonidan yangi hujjat — "Chet el investitsiyalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni va "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Xorijiy investorlarning huquqlatini kafolatlash va himoyalash maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari, respublika tomonidan Adliya vazirligiga ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat organi vakolati berildi. Jumladan, Adliya vazirligining tarkibida 2003-yildan boshlab chet el investorlari manfaatlariga zarar yetish holatlarining oldini olish bo'yicha maxsus bo'limmlar tashkil etildi. Olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xorijiy kapitalning tarkibida ma'lum bir siljishlar yuz berdi.

#### **4.3. Investitsiya shartnomalari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 2-avgustdag'i 180-soni qaroriga asosan "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risida nizom ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-iyuldag'i 133-sloni qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq chet ellik investorlarga qonun hujjalardida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralar (imtiyozlar va preferensiylar) berishda ular bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan investitsiya shartnomalari tuzish tartibini belgilaydi. Chet ellik investorlar bilan ularning qo'shimcha kafolatlar va himoya choralar (imtiyozlar va preferensiylar) berish bilan bog'liq bo'limgan investitsiya majburiyatlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan shartnomalarni tuzish va amalga oshirish qonun hujjalardida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq chet ellik investorlarga quyidagi yo`nalishlarda kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferensiyalar) berish ko`zda tutilgan:

- barqaror iqtisodiy o'sishni, mamlakat iqtisodiyotini progressiv tarkibiy o`zgartirishlarni ta'minlovchi ustuvor tarmoqlarni rivojlantirilishida;
- respublikaning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini mustahkamash va kengaytirishni, respublikani jahon xo`jalik aloqalariga integratsiyalashni ta'minlovchi ustuvor loyihalarni amalga oshirilishida;
- xomashyo va materiallarni qayta ishlashga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga, aholini ish bilan ta'minlashga yo`naltirilgan kichik tadbirdorlik sohasidagi loyihalarni investitsiyalashning amalga oshirilishida.

Bunda soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar xorijiy investorlar tomonidan tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga faqat aniq belgilangan muddatga beriladi va muddatsiz tusda bo'lishi mumkin emas. Qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferensiyalar) beriladigan chet ellik investorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida investor bilan investitsiya shartnomasi tuziladi. Investitsiya shartnomasi investitsiya faoliyatni subyektlarining investitsiya faoliyatni obyektlariga nisbatan huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda chet ellik investor (investorlar) o'tasida tuziladi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan chet ellik investorga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferensiyalar) berilgan taqdirda majburiy tartibda tuziladi. Bunday kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferensiyalar) O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolatlar berishni, maxsus bojxona, soliq va to'lov rejimi yaratishni, loyihalarni amalga oshirish davlat monitoringini yuritishni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ko'maklashishni, investitsiya dasturiga kiritishni yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Investitsiya shartnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- investitsiyalar obyekti va hajmi;
- investitsiya shartnomasining amal qilish muddati va shartlari;
- investoring, shu jumladan investitsiyalash hajmi, ishlab chiqarishning muayyan hajmini ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sifatining kafolatlangan darajasi, o'zi ishlab chiqargan tovarlar eksporti va ko'rsatadigan xizmatlari hajmi, O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida jaib etiladigan kreditlarning qaytarilishini ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilonqa foydalanish sohasidagi qonun hujjatlariga mehnat qonunchiligiga va texnika xavfsizligiga rioya qilish, ishlab chiqarish faoliyatining boshqa sohalari bo'yicha huquq va majburiyatlari;

- O'zbekiston Respublikasi hukumatining, shu jumladan qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari berish bo'yicha huquq va majburiyatlari;

- loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, pudrat ishlariga shartnomalar tuzish muddatlari, moliyalashtirish manbalari, loyihani amalga oshirish jadvallari, investitsiya loyihasining amalga oshirilishini texnik nazorat qilish tartibi to'g'risidagi axborotlar;

- chet ellik investor tomonidan uning majburiyatlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish tartibi va muddatlari;

- tomonlarning investitsiya shartnomasi shartlariga riosa qilmaganligi uchun javobgarligi;

- o'zgartirishlar kiritish tartibi;

- investitsiya shartnomasining amal qilishini to'xtatish tartibi;

- investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi va ko'rib chiqish joyi.

Investitsiya shartnomasida investitsiya loyihasi xususiyatiga qarab boshqa shartlar, shu jumladan:

- tomonlarning mintaqaning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha o'zaro majburiyatlari;

- investorning shartnomani bajarish natijasida o'ziga tegishli mahsulot va olingan foyda (daromadlar)ni O'zbekiston Respublikasidan chetga chiqarish huquqi;

- chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari bo'lган xodimlarni yollash va o'qitish bo'yicha majburiyatlari, texnologiyalardan foydalanish shartlari, shuningdek investorning investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallangandan keyin tashkil etilgan tashkilot xodimlarini o'qitish bo'yicha majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Chet ellik investor investitsiya shartnomasini tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga quyidagilarni taqdim etadi:


- investitsiya shartnomasining loyihasi;

- qonun hujjatlarida belgilangan hollarda vakolatli organlarda ekspertizadan o'tkazilgan texnik-iqtisodiy asoslash (texnik-iqtisodiy hisoblash) negizida bajarilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar;

- investitsiya shartnomasi loyihasining huquqiy ekspertizasi yuzasidan - Adliya vazirligining xulosasi;

- chet ellik investorlarga va (yoki) tashkil etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha ravishda soliq solish bo'yicha imtiyozlar va preferensiylar berish yuzasidan - Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi xulosalari.

Zarurat bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi chet ellik investordan investitsiya shartnomasi loyihasini baholash bilan bog'liq bo'lган qo'shimcha materiallarni so'rab olishi mumkin.



Manba. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005-yil, 30-31-son, 232-modda

#### 4.3.1-chizma. Investitsiya shartnomasini tuzish va amalgam oshirish sxemasi

Chet ellik investor tomonidan taqdim etilgan investitsiya shartnomasi loyihasi va boshqa materiallar investitsiya shartnomasi loyihasi olingen kundan boshlab o'n to'rt ish kuni mobaynida vakolati organlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Zarurat bo'lgan taqdirda, investitsiya shartnomasi qoidalarini kelishib olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda chet ellik investor (investorlar) o'rasisida muzokaralar o'tkaziladi.

Chet ellik investor hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan imzolangan investitsiya shartnomasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga uni tasdiqlash to'g'risida hukumat qarorini qabul qilish uchun kiritiladi. Agar investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lsa investitsiya shartnomasini tasdiqlash to'g'risidagi tegishli band investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi)ni tasdiqlash haqidagi hukumat qarori loyihasiga kiritilishi mumkin. Agar investitsiya shartnomasida soliq hamda bojxona imtiyozlari va preferensiyalari berish nazarda тутила bunday shartnomasi qonun hujjalarda belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Chet ellik investor bilan investitsiya shartnomasi agar ushbu qarorda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, uni tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi. Chet ellik investor investitsiya shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga (TIAISV) qabul qilingan majburiyatlarining bajarilishi to'g'risida hisobotlar taqdim etadi.

TIAISV investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarining chet ellik investor tomonidan bajarilishini nazorat qiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'grisida", "Investitsiya faoliyati to'grisida"gi Qonunlar va boshqa qonun hujjalari uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoyalash maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari, respublika tomonidan Adliya vazirligiga ularning manfaatlarini hinoya qiluvchi davlat organi vakolati berildi. Jumladan, Adliya vazirligining tarkibida 2003-yildan boshlab chet el investorlari manfaatlariga zarar yetish holatlarini oldini olish bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etildi. Olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xorijiy kapitalning tarkibida ma'lum bir siljishlar yuz berdi.

Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 2-avgustdag'i 180-sod qaroriga asosan "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risida nizom ishlab chiqilgan. Ushbu Nizom "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 4-moddasiga muvofiq chet ellik investorlarga qonun hujjalarda belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralar (imtiyozlar va preferensiyalar) berishda

**ular bilan** O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan investitsiya shartnomalari tuzish tartibini belgilaydi. Chet elliq investorlar bilan ularning qo'shimcha kafolatlar va hissoya choralari (imtiyozlar va preferensiylar) berish bilan bog'liq bo'lmasa investitsiya majburiyatlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan shartnomalarni tuzish va amalga oshirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlar uchun berilgan huquqlarni tafsiflab bering.
2. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
3. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qanday huquqiy asoslari mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasi "Chet elliq investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonunining mazmunini tushuntirib bering.
5. "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risidagi Nizomning mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
6. "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risidagi nizomga muvofiq chet elliq investorlarga qanday kafolatlar va himoya choralariga ega bo'ladi?
7. Investitsiya shartnomasining tarkibiga nimalar kiradi?
8. Investitsiya shartnomasida investitsiya loyihasi xususiyatiga qarab qanday shartlar bo'lishi mumkin?

## **5-bob. XORIJIY INVESTITSIYALARНИ JALB QILISHNING ILMIY - USLUBIY ASOSLARI**

### **5.1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mobiyati va iqtisodiyotga jalg qilishning obyektiv zarurligi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'rurasida quyidagi fikrlarni ta'kidladi: “2010-yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 milliard AQSh dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini e'tiborga oladigan bo'lsak, o'yaymanki, amalga oshiriladigan loyihalarning ko'lami va salmog'i o'z-o' zidan ayon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshadi”<sup>1</sup>.

Ushbu fikrlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini o'ta muhimligini anglatadi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning muntazam ravishda kengaytirib borilishi, uzoq muddatli investitsiyaviy qarzlarining va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi O'zbekistondagi Inqirozga qarshi choralar dasturida yetakchi o'rinni tutadi. Quyidagi raqamlar bu to'g'rida eng ishonchli ma'lumotlarni beradi: 2009-2014-yillarda modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan muhim loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 2009-yilning 12-martida tasdiqlangan dastur doirasidagi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar, ikki tomonloma shartnomalar va yetakchi xorijiy kompaniyalarning umumiyligi miqdori 22 milliard dollardan ziyod kreditlar va investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan edi. Hozirgi kunda umumiyligi qiyamti 19 milliard dollardan ortiqroq bo'lgan 80 dan ziyod loyihalarni investitsiyalash va moliyalash bo'yicha aniq manbalar belgilanib, xorijiy sheriklar bilan shartnomalar imzolandi.

Bu sheriklar orasida Osiyo Taraqqiyot banki (OTB), Jahon banki (JB), Islom Taraqqiyot banki (ITB) va boshqa xalqaro moliyaviy institutlari alohida o'rinni tutadi. Uzlusiz makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlarini ta'minlash, tuzilmaviy o'zgarishlarni izchil amalga oshirib borish, shuningdek iqtisodiyotni hamda uning tayanch va ijtimoiy infratuzilmalarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirib bo'ishni ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiy strategiyasi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik ko'lamingan yanada jadal o'sib borishiga zamin yaratadi.

Umuman aytganda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining muvaffaqiyatlari va barqaror rivojlanishining asosida chuqur o'yilangan, O'zbekistonga xos xususiyatlari to'la hisobga olingan iqtisodiy

<sup>1</sup> Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir Prezident Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rurasasi. // Xalq so'zi, 2010-yil 30yanvar

islohotlarning o'ziga xos va o'zimizga mos modeli mujassam. Ushbu dasturning izchil amalga oshirib kelinishi mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikasiyalashgan, jahon bozoriga raqobatbardosh, keng darajada xilma-xil tayyor mahsulotlar bilan chiqayotgan, uzlusiz yuqori sur'atlardagi iqtisodiy yuksalishga moyil, jiddiy rasmiy omillar va benuqson kredit tarixiga ega bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga aylanishini ta'minlaydi.

Bu, o'z navbatida, inqirozning nafaqat salbiy oqibatlarini yumshatishga, balki O'zbekiston iqtisodiyotini yanada kuchli va bardoshli iqtisodiyotga aylantirishga qaratilgan inqirozga qarshi choralarining keng miqyosli kompleks dasturini ishlab chiqish hamda uni tezroq amalga oshirish imkonini berdi. Bunda esa eng hal qiluvchi vazifa xorijiy investitsiyalar va uzoq muddatli investitsiyaviy kreditlarni jalg etish evaziga iqtisodiyotning ishlab chiqarish asosini tubdan modernizatsiyalash, uni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdan iborat.

Ma'lumki, xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalg etish va ulardan foydalanan samaradorligini oshirish yuqori likvidli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, iqtisodiyotning real sektorini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siridan himoya qilish imkonini beradi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun o'tgan 2009-yilda prezidentimiz qarorlari asosida respublikada infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va dasturlar qabul qilinib, hayotga keng tatbiq etildi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalg yetish muhimligini e'tirof etish barobarida uning iqtisodiy mohiyatini anglab etish maqsadga muvofiqdir.

Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarda taqiqlanmagan boshqa turdag'i obyektlariga qo'shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida **chet el investitsiyalari** deb e'tirof etiladi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljalangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o'mini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-teknika bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

"Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida quyidagilar chet ellik investorlar bo'lishi mumkin (5.1.1- chizma).

Chet ellik investorlar			
Chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari	Davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar	Chet el davlatlarining qonun hujjalariiga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar	Chet el davlatli fuqarolari bo'lmish jismoniy shahshlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellardagi doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari

### 5.1.1-chizma. Chet ellik investorlar


#### 5.2. O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to'liq aks ettirilishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'rurasida "Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljalangan, mamlakatimizning salohiyati, quratlari va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'naliш — bu asosiy yetakchi sohalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik

ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat"<sup>1</sup> - deb ta'kidladi.

Mustaqillikka erishilgandan boshlab, mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'lidan bormoqda. Bu yo'lida investitsiya siyosatining ahmiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda (5.2.1 - chizma).



### 5.2.1-chizma. O'zbekiston Respublikasining tuzilmaviy investitsiya siyosati

Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqidir. Hududlar investitsiya siyosati - investitsiya ni sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'mini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-tehnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylarga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'mirlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;
- to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;

<sup>1</sup> Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltishdir. Prezident Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bug'ishlangan Vazirlar Mahkamasи majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010-yil 30-yanvar.

- ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta'minlash;
- mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;
- samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko`rsatish sohasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg`unlashtirish;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;
- aholining ish bilan bandligi hamda iqtisodiy faolligini oshirish;
- hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to`liq shakllantirish.

Tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borishda muhim strategiyalar ishlab chiqarilgan bo`lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy subyektlar rivojlanishini qo`llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalg etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muhitining juda qulayligi xorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishda asos bo`lmoqda. Bundan tashqari, jalg etilgan chet el investitsiyalar va kreditlar uchun kafolatlar taqdim etish, soliq va bojxona tariflari bo`yicha imtiyozlar, zayom va foiz stavkalarini subsidiyalash kabi shart-sharoitlar yaratilmoqda, o`nlab qonuniy hujjalarni amal qilmoqda.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo`nalishlari orasida quyidagilarni alohida ta`kidlab ko`rsatish mumkin:

- investitsiya jalg qilish uchun xalqaro me`yorlar va konvensiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;


- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaliviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshkilar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;

- ishlab chiqarish bilan bog`liq investitsiyalarni kiritishga ko`maklashish;
- mamlakatning kredit qobiliyatini qo`llab-quvvatlash;
- mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam berish.

### **5.3. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalg qilish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi**

O`zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalg qilish siyosati mavjud mablag`lardan, vaqt va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo`l bilan respublika iqtisodiyotini ko`tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo`shilishiga, rag`batlantirish yo`li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalg qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning bir qancha shakllari mavjud. Ular quyidagi chizmada aks ettiligan(5.3.1-chizma):



### 5.3.1-chizma. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari

Chizmada aks ettirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini quyida alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qo'shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo'shma korxonalarini tashkil etishdir. O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxona deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150 ming AQSh dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytildi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona nizom jamg'armasining 150 ming AQSh dollaridan kam bo'imasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan kichik qo'shma korxonalarining keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o'z mol-mulkulari bir qismini ajratib, shu'ba korxonalar

ochishi mumkin. Bunday shu'ba korxonalarga ham qo'shma korxonalarga qo'yilgan talablar belgilangan.

Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o'z kapitallarini jamlagan holda xalqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

**Konsessiya shartnomalari** tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o'zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi chet el investitsiyalari ishtirokida asbob-uskunalarni, texnika-texnologiyalarni uzoq muddatga ijara olishdir.

**Tenderlar** tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jaib etilishidir.

**Erkin iqtisodiy hudud** ma'lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiyot hududlar to'g'risida"gi Qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta'rif berilgan: "Erkin iqtisodiy hududlar - mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jaib etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir". Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo'lishi lozim. Davlatning bosh islohotchi sifatida qatnashishi xorijiy tajribasida aniq namoyon bo'ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar chet el investitsiyalarini jaib etish uchun 4 dollar o'z mablag'larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga Naxodka, Kaliningrad viloyati, Sankt-Peterburg shahri va boshqalar kiradi. Qozog'istonagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991-yilda paydo bo'lgan. Bular: Jezqozg'on viloyatidagi "Jayren-Atasu", Kostanay viloyatidagi "Lisakov" va Olmaota shaharidagi "Otakent" erkin iqtisodiy hududlaridir.

2009-yilda Navoiy viloyatida tashkil etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy zonaning asosiy obyektlaridan biri sifatida Navoiy shahri aeroporti bazasida xalqaro tashishlar bo'yicha intermodal markaz qurilishi yuzasidan katta ishlар amalga oshirildi.

**Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonası** – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaivy yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jaib etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 3-dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi qarori asosida tashkil etilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi – zamonaivy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar,

inovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko`lamda ishlab chiqarishdan iborat.

O`tgan yil mobaynida «Korean Eyr» kompaniyasidan milliy aviakompaniyamiz ijara olgan zamonaviy transport samolyotlari bilan ushbu aeroportdan xalqaro yo`nalishlar bo`yicha 330 dan ortiq reys amalga oshirildi va qariyb 8,5 ming tonna yuk tashildi. Bu Navoiy shahri aeroportini global logistika tarmog`iga integratsiyalash imkonini berdi.

Moliyaviy aktivlar qimmatli qog`ozlar bo`lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek investitsiya faoliyatining subyekti va obyektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish muvofiq hisblanadi.

Rivojlanigan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksport-importini milliy va xalqaro darajada rag`batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o`z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog`liq. Shunisi xarakterlik, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

#### **5.4. O`zbekiston Respublikasida investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo`nalishlari**

Mamlakatimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo`lib kelmoqda. 2009-yili iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish hajmi 8,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2008-yilga nisbatan 24,8 foizdan ko`p demakdir. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 68 foizga o`sdi, eng muhim, ularning asosiy qismi to`g`ridan-to`g`ri kiritilgan investitsiyalar bo`lib, ularning hajmi 1,8 barobar oshdi.<sup>1</sup> Iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarning o`rnini beqiyosdir. Bunda ilg`or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o`rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta`minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlanigan davlatlar tajribasi shuni ko`rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo`lgan. Quyida berilgan jadvalda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar,

<sup>1</sup> Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltishdir. Prezident Islomi Karmonoving 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010-yil 30-yanvar

shuningdek to`g`ridan-to`g`ri kiritilgan investitsiyalarni yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi keltirilgan.(5.4.1-jadval)

#### 5.4.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan va to`g`ridan-to`g`ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmining yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi

Yil	Xorijiy investitsiyalar (mln. AQSh dollari)	To`g`ridan-to`g`ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar (mln. AQSh dollari)
2001	823,9	96,5
2002	516,5	80,1
2003	602,1	166,7
2004	754,6	333,8
2005	746,6	545,5
2006	895,7	683,8
2007	1009,3	768,4
2008	1700	1258
2009	2856	2264

Manba: Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma'lumotlari

Jadvalda ko`rinib taribdiki 2009-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi salkam 2,9 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etgan. Bu ko`rsatkich 2008-yildagidan 1 mlrd. AQSh dollardan ortiqroq hajmda o`sgan. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to`qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo`nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Eng muhimmi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan. Ushbu yaratilgan investitsiya muhiti iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini yildan-yilga ortishiga olib kelmoqda.

Quyidagi jadvalda ko`rinib turibdiki, 2008-yilda jami 8483,7 mlrd.so'mlik investitsiya mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarining asosiy kapitaliga kiritilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, investitsiyalarning asosiy qismi iqtisodiyotning transport va aloqa tarmoqlariga yo'naltirilgan bo`lib u 2227,6 mlrd.so'mni yoki umumiyl investitsiya hajmiga nisbatan 26,3 % tashkil etdi.

#### 5.4.2-jadval

### 2008-yilda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

Tarmoqlar	Investitsiya hajmi (mlrd.so'm)	Jamiga nisbatan %
Hammasi	8483,7	100
Ishlab chiqarish sohasiga	6397,5	75,4
Sanoat	2556,6	30,1
jumladan:		
yoqilg'i-energetika sanoati	1170,2	13,8
metallurgiya sanoati	430,2	5,1
kimyo va neft kimyosi sanoati	164,4	1,9
mashinasozlik sanoati	190,2	2,2
yengil sanoat	240,1	2,8
oziq-ovqat sanoati	198,1	2,3
qurilish materiallari sanoati	100,3	1,2
Oishloq xo'jaligi	258,4	3,1
Qurilish	191,5	2,3
Transport va aloqa	2227,6	26,3
Savdo	212,1	2,5
Geologiya va geolog.qidiruv	903,8	10,7
Boshqalar	47,5	0,4
Ishlab chiqarish uchun	2086,2	24,6
mo'ljalanganmagan maqsadlarda		
Uy-joy qurilishi	841,8	9,9
Kommunal xo'jalik	123,6	1,5
Ta'lim	134,4	1,6
Sog'liqni saqlash	748,9	8,8
Madaniyat va san'at	43,3	0,5
Boshqalar	194,2	2,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Shuningdek, yoqilg'i-energetika sanoatiga 1170,2 mlrd. so'm yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan 13,8 %, geologiya va geologiya qidiruv sohasi uchun 903,8 yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan 10,7 % va metallurgiya sanoatiga 430,2 mlrd. so'm (5,1%) investitsiya kiritilgan.

#### 5.5. O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lgan davlat tomonidan rag'batlantriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy

samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi – ichki va tashqi siyosatning unumiy yo'naliishi hisobga olingen ijtimoiy-iqtisodiy va xususiy xo'jalik qarorlari majmuasi bo'lib, mablag'lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida mamlakat ichiga va xorijga kiritilgan sarmoyalarning yo'naliishi va joylashuvini belgilaydi. Ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining ko'tarilishi va butun infratuzilmasining rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiya va investitsiya dasturiga bog'liq. Investitsiya dasturi davlatning investitsiya mablag'larini mamlakatda moddiy boyliklar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun safarbar qilish vazifasidan iboratdir. Tashkiliy-huquqiy jihatdan davlat siyosatining bu sohasi uning tegishli idoralari tomonidan ushbu siyosatning maqsad va vazifalari amalga oshiriladigan faoliyatdir. Investitsiya dasturining tashqi tomoni ham bor bo'lib, u iqtisadiyotni zamona niy texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish asosida jadal rivojlantirish vazifasini hal etish uchun iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalg etishni o'z ichiga oladi. Bu vazifani qo'shma korxonalar barpo qilish, ya'ni to g'ridan-to g'ri xorijiy xususiy investitsiyalardan foydalanish yo'lli bilan hal etish mumkin. Shu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish masalalari dolzarblashadi. Aniq, samarador va hayotiy rioya qilinadigan qonunlariga ega bo'lgan ochiq va liberal investitsiya dasturi xorijiy investitsiyalarini jalg etishning qadratli qurolidir. Bunday siyosatni ishlab chiqish republikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolishi kerak.

Xorijiy investitsiya faqat ishlab chiqarish va bozor rivojlangan sharoitda, ya'ni xalqaro bozordagi sarmoya eksporti bungacha mavjud bo'lgan tovarlar eksportidan yuqori bo'lganda paydo bo'ladi.

Davlat investitsiya jarayonini tashkil qiluvchi va asosiy investor bo'lib xizmat qilishi kerak, ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan bu uning asosiy vazifikasi hisoblanadi.

Investitsiyalarning miqdoriy o'sishi ichki investitsiya dasturi (mablag'larni noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga safarbar qilish) vositasida ta'minlanadi. Investitsiyalar sifatining o'sishi ichki (fan va texnika yutuqlarini tatbiq qilish) va tegishli tashqi investitsiya dasturi (xorijiy investitsiyalar-texnik tarkibi va xususiyatiga ko'ra yuqoriq bo'lganlarini jalg etish) vositasida ta'minlanadi. Ichki investitsiya dasturi ham tashqi investitsiya dasturi ham investitsiyalashning turli manbalaridan turli shakklardagi investitsiyalarini jalg etish zaruratini nazarda tutadi. Investitsiya dasturining mohiyati va mazmuni eng qulay huquqiy vositalarni topish – investitsiya jarayoni va investitsiya ni huquqiy tartibga solishdan iborat. Ratsional investitsiya dasturini amalga oshirayotgan davlat ixtiyorida huquqiy tartibga solishning ikki vositasi mavjud: milliy-huquqiy va xalqaro-huquqiy. Davlatning tashqi investitsiya dasturi huquqiy nuqtai nazaridan xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratishdan iborat bo'lib, bu milliy huquqiy tartibot, milliy huquqiy shakl va normalardan (qonun va boshqa me'yoriy aktlar) hamda xalqaro-huquqiy tartibot, xalqaro-huquqiy shakl va normalardan (ikki va ko'p tomonlama shartnomalar va bitimlar) foydalanishni nazarda tutadi. Bularning barchasida ham ichki, ham tashqi investitsiya siyosatlari hisobga olinishi shart.

**Investitsiya dasturining aniq maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan asosiy vazifasi davlatning jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun investitsiya mablag'larini safarbar qilish bo'yicha faoliyat yuritishidan iborat. Investitsiya faoliyati (ingl. investment activity) investitsiya kiritish va investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha olib boriladigan amaliy barakatlarning yig'indisidir.**

**Investitsiya dasturi alohida davlatlar tomonidan investitsiya munosabatlari subyektlarining (davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar, jumladan xorijiy) investitsiya faoliyatini kuchaytirish maqsadida choralar tizimini nazarda tutadi. Investitsiya faoliyati esa uning subyektlarining investitsiya'ni amalga oshirish bilan beg'liq faoliyatları yig'indisidir.**

**Investitsiya dasturi tovar-pul munosabatlarini takomillashtirish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur siyosat rivojlangan tovar-pul munosabatlarida uncha katta ahamiyatga ega emas. Chunki o'z-o'zini boshqaruvchi iqtisodiyot sharoitida investitsiya dasturi asosan tartibga soluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Investitsion loyihalarning manziliy dasturi har yili ishlab chiqilib, moliyalashning asosiy manbalari asosida investitsion loyihalarning kerakli ro'yxatini o'z ichiga oladi.**

**Investitsion loyihalarning manzilli dasturiga kiritishning zarur shartlari mavjud:**

- texnik - iqtisodiy asoslarning mavjudligi;
- shartnomada ko'satilgan kreditlarning vaqtida qoplanganligi va moliyalashtirish manbalari tasdig'ining mavjudligi ham zarur.

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 420-sonli "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ishlab chiqildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi investitsion dasturi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning muhim qismi bo'lib davlat investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi. Dasturning asosiy maqsadi bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotini dinamik rivojlanishiga, O'zbekiston iqtisodiyotning zarur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirishga, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar asosida jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyasi, tabiiy mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilonqa foydalananishga erishish hisoblanadi.**

**Dastur quydagilarni o'z ichiga oladi:**

- kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari yordamida prognoz qilish;
- muhim investitsion takliflarning taqqoslama ro'yxati;
- investitsion loyihalarning manzilli dasturi.

**Dastur quydagilarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar prognozini o'z ichiga oladi:**

**- tabiiy mineral xomashyo moliyaviy moddiy va mehnat resurslaridan foydalananishning samarasini oshirish;**

**- davlat budgeti respublikaning ichki va tashqi qarzdorligi bilan bog'liqligi;**  
**- moliyaviy mablag'lar bilan tasdiqlangan obyektlarni va kreditlar qaytarilishi, shuningdek, qurilish va qurish materiallari sanoatidagi kuchlarning balanslashtirishni kiritish;**

**- iqtisodiy va ekologik jihatdan asoslangan yangi korxonalarni joylashtirish va regionlarning kompleks rivojlanishini hisobga olgan holda faoliyat yurituvchi**

korxonalarda qo'shimcha kuchlarni yaratish hamda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish infratuzilmasidagi va mehnat resurslaridagi tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturining moliyalashtirishda asosan xorijiy investitsiyalar katta o'rinni egallaydi.

Mamlakatimizda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalgan etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi. Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalgan etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlарини yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxona foydasи, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir tomonдан, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamli va oqilona foydalanishni ta'minlasa, boshqa tomonidan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mamlakat miqyosidagi investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida **investitsiya dasturi** ishlab chiqiladi.

**Investitsiya dasturi** respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmui.

Investitsiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettiriladi. Investitsiya dasturlari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, unda har bir yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalangan bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatimizda texnik modernizatsiyalash bo'yicha **tarmoq dasturlari** ham ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejamkor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Jumladan, mamlakatimizda 2009-2014-yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralarini dasturi umumiyligi qiymati 42,51 mlrd. doll.dan iborat 852 ta investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi. 2009 yilda tasdiqlangan ayrim tarmoq dasturlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (5.5.1-jadval).

### 5.5.1-jadval

#### **Modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirishning tasdiqlangan tarmoq dasturlari**

Tarmoqlar	Loyihalar soni, dona	Loyihalar qiymati, mln. doll.
Paxta tozalash sanoati	41	129,7
To'qimachilik sanoati	65	477,7
YOG'-moy sanoati	63	31,7
Kimyo sanoati	30	291,7
Avtomobil sanoati	26	255,1
Qurilish materiallari sanoati	36	343,1
«O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi	9	49,0
Farmatsevtika tarmog'i	45	26,5
Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati	26	892,1
Ol'maiq tog'-kon metallurgiya kombinati	13	405,3
Qishloq xo'jaligi mashinasozligi	13	28,0
Temir yo'l tarmog'i	18	1734,2

Respublikamizda 2009-yil mobaynida qayd etib o'tilgan investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatlari yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta ob'ekt foydalishiga topshirildi. Yil davomida nihoyasiga yetkazilgan bir qator strategik loyihalarni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (5.5.2-jadval).

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi.

Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqimiz farovonligini oshirishda mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda, elektr va gaz tarmog'ni barpo etish bo'yicha strategik investitsiya loyihalarning mamlakatimiz uchun nechog'liq muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Aynan shu yo'nalishdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida:

1) mamlakatimizda yagona elektr va gaz tarmog' i tizimlarini tashkil etish ishlari yakunlanib, ulardan uzlusiz va tejamli foydalishni nazorat qilish va ta'minlash;

2) Farg'ona vodiysi va O'zbekiston janubida yashaydigan aholini tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash;

3) elektr energiya eksport qilishni sezilarli ravishda oshirish imkoniyatlari qo'lga kiritildi.

**2009-yil davomida nihoyasiga yetkazilgan strategik loyiҳalar**

<b>Loyiҳa obyekti</b>	<b>Loyiҳaning qisqacha mazmuni</b>
«Farg'onaazot» korxonasi	Ammiak agregatlarini rekonstruksiya qilish
«Maksam-Chirchiq» korxonasi	
Namangan shahridagi yengil avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish zavodi	Yengil avtomobillar uchun fara va chiroqlar ishlab chiqarish
Buxoro shahridagi «DEU tekstil» to'qimachilik kompleksi	Paxta tolasini qayta ishslash asosida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
«Gazli» qo'shimcha kompressor stansiyasi	Gaz mahsulotlarini iste'molga tayyorlash va ishlov berish jarayonlarini ta'minlash
«Qo'ng'irot» kompressor stansiyasi	
Turkmaniston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy transmilliy magistral gaz quvuri	Turkmanistondan O'zbekiston hududi orqali Xitoya o'tadigan gaz quvurini tortish ishlari
«Yangi Angren-O'zbekiston» LEP-500 elektr uzatish liniyasi	Mamlakat hududlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash
«G'uzor-Surxon» yuqori voltli elektr uzatish liniyasi	
«Ohangaron-Pungon» magistral gaz quvuri	Mamlakat hududlarini tabiiy gaz bilan ta'minlash

Xususan, mamlakatimizda elektr, tabiiy gaz va ichimlik suvi ta'minotini zamonaviy talab darajasida yo'lga qo'yish borasida:

- me'yordagidan ortiqcha yoki kam quvvat bilan ishlayotgan 283 ta transformator podstansiyalarini yangilariga almashtirildi (ushbu tadbirlarga 2,9 mlrd. so'm mablag' sarflandi);

- me'yordagidan ortiqcha quvvat bilan ishlayotgan 308 km elektr tarmoqlarini almashtirish ishlari amalga oshirildi (1 mlrd. so'm);

- hududlarda jami 964,2 km gaz tarmoqlarida qurilish va rekonstruksiya ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirildi;

- hududlarda 2,3 ming km SUV tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi;

- 366 ta qishloq aholi punktlarida ichimlik suvi obyektlari qurib foydalanishga topshirildi (19 mlrd. so'm).

## **Qisqacha xulosalar**

Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan **har** qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalar deb e'tirof etiladi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning **amalga** oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarini jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqidir. Hududlar investitsiya siyosati-investitsiya ni sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui.

Investitsiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihiilar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda utilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettiriladi. Investitsiya dasturlari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, unda har bir yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalangan bo'ladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Xorijiy investitsiyalarini iqtisodiyotga jalb qilishning obyektiv zarurligini asoslab bering.
3. O'zbekiston Respublikasida yaratilgan qanday imtiyozli moliyaviy sharoitlar mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati qanday o'ziga xos jihatlarga ega?
5. Tuzilmaviy investitsiya siyosati nima?
6. Xorijiy investitsiyalarini milliy iqtisodiyotga jalb qilishning qanday shakllari mavjud?
7. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarini jalb qilishning qaysi asosiy yo'nalishlarini bilasiz?
8. Investitsiya dasturining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
9. O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturining mohiyatini tushuntirib bering.

## **6-bob. XORIJY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI RAG'BATLANTIRISHNING ZAMONAVIY SHAKL VA USULLARI**

### **6.1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyozar**

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalg qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtilish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Ular quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan:

**Ko'rilgan zararlarning qoplanishi  
uchun kafolatlar**

**Xorijiy investorlar kapitalining saqlanishi  
uchun kafolatlar**

**Soliqqa tortish tizimida ularga oid  
belgilangan imtiyozlar**

**Foyda va daromadni xorija olib  
chiqib ketishning erkinligi**

**Milliy so'mda va chet el valutasida olingan foydalarni  
o'tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati**

**Bojxona imtiyozlarining  
mavjudligi**

**Xorijiy investorlar mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan  
sug'urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi**

#### **6.1.1-chizma. O'zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar**

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o'z ijobjiy samarasini bermoqda. Masalan, respublikamizda xorijiy investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to'lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari daromad (foyda) solig'idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg'armasida xorijiy investitsiya mablag'lari

hissasi 50 % va undan yuqori bo'lsa, ular 2 yil muddatga daromad (foyda) solig'idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan.

O'zbekistonda mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish shabirilarini (jumladan, imtiyozlami berish) amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga qosilaniladi:

• tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;

• respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

• respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yuritish;

• mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'mini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyaga ega korxonalarining bir maromda faoliyat yurishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Sir emaski, o'z mablag'ini biror mamlakat iqtisodiyotiga kiritmoqchi bo'lgan chet ellik sarmoyador, birinchi navbatda, o'zi uchun yaratilgan imtiyoz va yengilliklarni biliishni istaydi. Shu o'rinda «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq chet ellik investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida yashab turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to'lovi olinmasligini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklolvlsiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari, xorijiy investorlar respublika banklarida hech bir cheklolvlsiz istalgan valutada hisob raqamiga ega bo'lislari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalananish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o'rtaida tuziladi. Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan o'zining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar

ishtirokida tuzilgan korxonalarning xo`jalik ishlarida hisob-kitoblar O`zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim.

Agar O`zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko`rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko`rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi. Shunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O`zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga etkazildi va amalda qo`llanilmog`da. Bu faoliyatni rag`batlantirishga yo`naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurallanish;
- xalq iste`moli va eksportga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag`batlantirish.

O`zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliylashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko`rsatilgan zarar miqdorida kompensasiya qilinadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatları orqali qilingan daromadlari xorijiy valutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o`tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

O`zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o`zlashtirish maqsadida investorlarga bir qator imtiyozlar (iqtisodiy platforma) beriladi. Xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xomashyo yetkazib beruvchilardan tashqari) ro`yxatdan o`tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig`idan birinchi yil 25 foiz qismidan, ikkinchi yil 50 foiz qismidan, uchinchi yil 100 foiz ozod qilinadi, qishloq hududida esa birinchi yildan 100 foiz ozod qilinadi;

- mulk solig`idan 2 yilga ozod qilinadi;
- ishlab chiqargan mahsulotining 30 foizdan ortig`i eksportga chiqarilsa, 50 foiz daromad solig`idan (foyda solig`i), 15-30 foiz eksportga chiqarilsa, 30 foiz daromad (foyda) solig`idan ozod qilinadi;

- ishlab chiqarish bilan band bo`lsa, yer solig`idan 2 yilga ozod qilinadi.

O`zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko`zda tutilgan. Unga ko`ra neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariiga xorijiy kompaniyalarni jalb etgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan, shuningdek ushbu ishlarni amalga oshirish uchun zarur uskunalarini import qilishda bojlardan ozod qilinadi.

Mazkur soha korxonasi chet ellik hamkorlar bilan birga ochilsa:

- neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) solig`idan;

- xorijiy hamkorlar ulushi kapitalidan olinadigan daromad va mulk solig'idan ozod qilinadi.

Yengil sanoat sohasida:

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha soliqlardan ozod qiladi;

- o'z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyyot qismlarini import qilishda korxonalar bojxona to'lovlardan ozod qilinadi.

## **6.2. Qo'shma korxonalarни ташкіл етішіда xorijiy investitsiyalarни жалб етішни rag'batlantirish**

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining rivojlanib borishi, foyda olishning turli yo'llarini amalga tatbiq etishga olib kelmoqda. Agarda avval korxonalarda asosiy daromad o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan iborat bo'ladijan bo'lsa, bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda investitsiya va moliyaviy daromad olishga kengroq e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda investor oldida turgan asosiy maqsad optimal investitsiya portfelini shakllantirish bo'lib, uning ushbu portfel tarkibiga kiruvchiga investitsiya qimmatliklarini, boshqacha aytganda, investitsiya mulk obyektlarini qanday joylashtirishi ham muhim hisoblanadi. Bugungi kunda investor mulkini qaysi faoliyatga yo'naltiriliishi ham muhim masalalar qatoriga kiradi. Jumladan, investor mulki tarkibida bo'lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mulklari ko'proq jalg etilsa, uning oladigan daromadi yanada oshishi mumkin. Investitsiya faoliyatining vositasi hisoblangan mulk barcha ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etib, ularning xususiyatlarini belgilab beradi.

Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakkalaridan biri qo'shma korxonalar hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil etish korxona va tashkilotlarning chet ellik sheriklar bilan aloqasini yuksaltiradi, mamlakat hududida xorijlik tadbirkorarga keng sharoit yaratadi, mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarini jalg etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilishidir. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O'zbekistonni o'zlari uchun qulay va ishonchli sherik deb hisoblaydilar, chunki respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratigan. Natijada ularda o'z sarmoyalalarini respublikamizda joylashtirish va biz bilan hamkorlik qilish istagi ortib bormoqda. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari respublikamizdag'i qulay siyosiy barqarorlik, boy xomashyo resurslarining mavjudligi, qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

Qo'shma korxonalarining tashkil etilishi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtiradi va xalqaro doirada mavqeい ortishiga olib keladi. Qo'shma korxonalarining ahamiyatli tomoni olingan foydani taqsimlash, sarfn qoplash, korxona faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishdadir. Chet el investitsiyalarini respublikamiz iqtisodiyotiga jalg etish to'g'risidagi qonun hujjalariiga binoan, korxonaning nizom fondiga ta'sischilarning o'z ulushi bo'yicha ishtirok etishi, korxonalarining mulki, aksiyasi va boshqa turdag'i qog'ozlarni sotib

olishi, mahalliy fuqarolar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda yerlarni sotib olish ko'rinishlarida ko'proq jalb etilmoqda.

Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalami respublika iqtisodiyotiga jalb etish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil etish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orgali mehnat unumdarligi oshiriladi va jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga erkin konvertatsiya qilinadigan valutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushi oshirilishi quyidagi jihatlarga bog'liq:

- xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksport qiluvchi korxonalar o'tasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish va yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi soha va soha ichi tizimi yaxshilanishiga xizmat qiladi;

- eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarning jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;

- ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvi asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha yetkazish;

- o'zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldag'i yetakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijorat va texnologiya menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rghanish, xorijiy bozorlarning konyunkturasi, sig'imi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rghanish.

### **6.3. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish**

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamenti kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish

mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining to'g'riliqi hamda samaradorligidan dalolatdir.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, ya'ni foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa, bozor iqtisodiyotining misbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi yechim hisoblanadi, ya'ni qayerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha yerdagi bozorga ko'proq intiladi. Shuningdek, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhitini yaratgan mamlakatlardan biriga aylandi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kuchaytiradi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shinchcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chigарishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mayjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan. Farmonning ahamiyatli tomoni shundaki, u xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Farmonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni har tomonlama qulay, ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan bir qator viloyatlarning qishloq aholi punktlarida joylashtirilishining belgilanishi mamlakatimizda bandlik masalalarini ijobji hal etishga qaratilgan. Huquqiy kafolatlarning aniq va oddiyligi sarmoyadchlarning investitsiya kiritish haqida qaror qabul qilishini tezlashtirish bilan birga, ularga mayjud xatarlarni ham baholash imkoniyatini yaratadi. Davlatimiz iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga oshib bormoqda. O'z navbatida, respublika mintaqalaridagi boy mineral-xomashyo resurslari, yetarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, toza atrof-muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar, shubhasiz, xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz hududlarida bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etish va chet el investitsiyasi ishtirokidagi qo'shma korxonalarning tashkil etilishini ayrim viloyatlar misolida ko'rish mumkin. Yurtimizning aholisi ko'p bo'lgan viloyatlari va qishloq aholi punktlarida to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar asosida xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil etilgan bo'lib, farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanmoqdalar. Xususan, farmonda keltirilgan shartlar asosida 10 ta korxona daromad (foyda) solig'i, molmulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, va

(yoki) yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod qilingan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Yuniver» qo'shma korxonasi, «To'rtko'l Tekstil» qo'shma korxonasi, Andijon viloyatida «Oltinko'l Tekstil» qo'shma korxonasi, Namangan viloyatidagi «Marmar-F» qo'shma korxonasi, Sirdaryo viloyatidagi «Lola Model» qo'shma korxonasi, Surxondaryo viloyatidagi «Surxontek» qo'shma korxonasi hamda Xorazm viloyatidagi «Urgench yog» qo'shma korxonasi shular jumlasidandir.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining qishloq aholi punktlarida to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar jaib qilinib, yangi qo'shma korxonalar tashkil qilingan, masalan «Molochnaya Dolina», «Unimobile» va «Aziya Paints Keramik» qo'shma korxonalari farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanoqdalar.

Mamlakatimizga bu tarzda sarmoya oqib kelayotgani esa xorijiy investorlar, ya'ni chet ellik sheriklarimiz respublikamizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining to'g'riliqi hamda samaradorligini tan olgani, ularning biz bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanining yana bir tasdig'i idir.



### 6.3.1-chizma. O'zbekiston Respublikasiga jaib etilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (mln. AQSh dol.)

Chizmadan ko'rinish turibdiki, mamalakatimiz iqtisodiyotiga jaib qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. 2009-yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2264 mln. AQSh doll. tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2008-yilga nisbatan 1,8 barobarga ortgan. Bunday o'zgarish albatta to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jaib qilishni rag'batlantirish borasidagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasidir.

2005-yilning 1-iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jaib etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyatni bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy

infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

- 1) 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;
- 2) 3 million AQSH dollaridan 10 million AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga;
- 3) 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo'llanilishi mumkin:

- mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar-Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'onaviyoylatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

- xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

- korxonaning nizom jamg'amasida xorijiy ishtirokchilarining ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim;

- ushbu korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni kiritish;

- xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valuta yoki yangi zamona viy texnologik uskuna tarzida qo'yish;

- mazkur imtiyozlarni qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish.

Imtiyoz olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan keyin bir yil barvaqtroq faoliyatini to'xtatgan taqdirda foydani o'z mamlakatiga o'tkazish va xorijiy investoring kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat berilgan imtiyozlar summasini budgetga qaytargandan keyin amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining to'rtinchisi qismida xorijiy investorlar uchun belgilangan kafolatlar quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

- xorijiy investorlarga to'lanadigan, dividend tarzida olinadigan daromadlarga soliq miqdori (stavkalari) ko'payishi;

- xorijiy investoring chet elga o'tkaziladigan daromadlari (foydasini) o'z mamlakatiga qaytarish tartibotini murakkablashtiruvchi yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo'shimcha talablar joriy etilishi, bunda davlat xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarining huquqlarini himoya qilish, xorijiy investor - jismoniy shaxs sodir etgan jinoiy qilmish yoki ma'muriy huquqbazarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning qaroriga muvofiq daromad (foydasini) o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda xorijiy investor mablag'larini qonun hujjalari kamsitmaydigan tarzda qo'llash shartlari asosida o'z mamlakatiga qaytarishini to'xtatib turish hollari mustasno;

- investitsiyalarning miqdori bo'yicha investitsiyalash hajinlariga miqdoriy cheklashlar hamda boshqa qo'shimcha talablar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar

ishtirokidagi korxonalarda xorijiy investitsiyalarning minimal miqdorini ko`paytirish tarzidagi talablar joriy etilishi;

- respublika korxonalarining nizom jamg`armalarida xorijiy investoring ulush bilan ishtirok etishi bo`yicha cheklashlar joriy etilishi;

- xorijiy investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish borasidagi qo'shimcha tartibotlar, shuningdek xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bo`yicha boshqa qo'shimcha talablar joriy etilishi.

To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Radioelektronika sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

2. Yengil sanoat:

-tayyor ip gazlamalar ishlab chiqarish;

-tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to`qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish;

-terini qayta ishlash; poyabzal, tayyor ko'n-galantereya buyumlari ishlab chiqarish.

3. Ipakchilik sanoati - shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.

4. Qurilish materiallari sanoati - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 24-martdagи PF 358-soni Farmoni la-ilovasida ko`satilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

5. Parranda go`shti va tuxumini sanoat miqyosida yetishtirish.

6. Oziq-ovqat sanoati mahalliy xomashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogollli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).

7. Go`sht-sut sanoati - go`sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog` ishlab chiqarish.

8. Kimyo-farmatsevtika sanoati:

- dori-darmon vositalari ishlab chiqarish;

- sintetik kir yuvish vositalari, maishiy kimyo tovarlari ishlab chiqarish.

Prezidentimizning mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun o'ta muhim bo`lgan «To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi PF-3594-soni Farmoni ishlab chiqarish sohalariga to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya ni jalb etish, yurtimizning eksport salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim dasturilamal bo`lib xizmat qilish bilan bir qatorda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qo'yilgan yana bir muhim qadamdir.

### **Qisqacha xulosalar**

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, ya'ni foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi yechim hisoblanadi, ya'ni qayerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha yerdagi bozorga ko'proq intiladi.

Prezidentimizning mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun o'ta muhim bo'lgan «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3594-son Farmoni ishlab chiqarish sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya'ni jalb etish, yurtimizning eksport salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilish bilan bir qatorda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qo'yilgan yana bir muhim qadamdir.

Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari - respublikamizdagи qulay siyosiy barqarorlik, boy xomashyo resurslarining mavjudligi, qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga qanday imtiyozlar belgilangan?

2. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda qaysi tamoyillarga asoslanildi?

3. O'zbekistonda xorijiy investorlar qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini istalgancha chet davlatga o'tkazishi mumkinmi?

4. Qo'shma korxonalar tashkil etishning ahamiyati qanday?

5. Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga qanday ijobji o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi?

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmonining mohiyatini yoritib bering.

7. Imtiyoz olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan bir yil barvaqtroq faoliyatini to'xtatgan taqdirda foydani o'z mamlakatiga o'tkazishi mumkinmi?

8. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi Qonun asosida xorijiy investorlar qanday kafolatlarga ega bo'ladilar?

**7-bob. XORIJIV INVESTORLAR UCHUN O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTINI JALB QILUVCHANLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY  
YO'NALISHLARI**

**7.1. Xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish uchun amalga oshirilayotgan ishlar**

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning muntazam ravishda kengaytirib borilishi, uzoq muddatli investitsiyaviy qarzlarning va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi O'zbekistonda Inqirozga qarshi choralar dasturida yetakchi o'rın tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 2009-yilning 12-martida tasdiqlangan dastur doirasidagi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar, ikki tomonloma shartnomalar va yetakchi xorijiy kompaniyalarning kreditlari va investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan edi. Hozirgi kunda umumiy qiymati 19 milliard dollardan ortiqroq bo'lgan 80 dan ziyod loyihalarni investitsiyalash va moliyalash bo'yicha aniq manbalar belgilanib, xorijiy sheriklar bilan shartnomalar imzolandi.

Uzluksiz makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlarini ta'minlash, tuzilmaviy o'zgarishlarni izchil amalga oshirib borish, shuningdek, iqtisodiyotni hamda uning tayanch va ijtimoiy infratuzilmalarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirib borishni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston iqtisodiy strategiyasi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik ko'laming yanada jadal o'sib borishiga zamin yaratadi.


Umuman olganda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining muvaffaqiyatlari va barqaror rivojlanishining asosida chuqr o'ylangan, O'zbekistonga xos xususiyatlar to'la hisobga olingan iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos va o'zimizga mos modeli mujassam. Ushbu dasturning o'tgan 18 yil mobaynida izchil amalga oshirib kelinishi sobiq "Markaz»ga har tomonloma bog'lanib qolgan agrar, past texnologiyali va samarasiz iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyalashgan, jahon bozoriga raqobatbardosh, keng darajada xilma-xil tayyor mahsulotlar bilan chiqayotgan, uzluksiz yuqori sur'atlardagi iqtisodiy yuksalishga moyil, jiddiy rasmiy omillar va benuqson kredit tarixiga ega bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga aylanishini ta'minlaydi.

Bu, o'z navbatida, inqirozning nafaqat salbiy oqibatlarini yumshatishga, balki O'zbekiston iqtisodiyotini yanada kuchli va bardoshli iqtisodiyotga aylantirishga qaratilgan inqirozga qarshi choralarning keng miqyosli kompleks dasturini ishlab chiqish hamda uni tezroq amalga oshirish imkonini berdi. Bunda esa eng hal qiluvchi vazifa - xorijiy investitsiyalar va uzoq muddatli investitsiyaviy kreditlarni jalb etish evaziga iqtisodiyotning ishlab chiqarish asosini tubdan modernizatsiyalash, uni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdan iborat.

Ma'lumki, moliyaviy maqsadlarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish va ulardan foydalinish samaradorligini oshirish yuqori likvidli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, iqtisodiyotning real sektorini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy ta'siridan himoya qilish imkonini beradi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun o'tgan 2009-yilda Prezidentimiz qarorlari asosida respublikada infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va dasturlar

qabul qilinib, hayotga keng tatbiq etildi. Xususan, Investitsiya dasturi (2008-yil 2-oktabrdagi PQ-969-son), «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi (2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-son), «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish» dasturi (2009-yil 20-yanvardagi PQ-1041-son) hamda «Qo'shimcha infratuzilma obyektlarini qurish» dasturi (2009-yil 17-martdagi PQ-1073-son) shular jumlasidandir.

2010-yilda belgilab olingen investitsiya dasturida eng yuqori ko'rsatkich korxona mablag'lari hissasiga (42,6 foiz) to'g'ri kelishi, undan so'ng esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (21,3 foiz)ni jalb etish orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan (7.1.1-rasm).



**7.1.1-rasm.**

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, aholi mablag'lari va Tiklanish va taraqqiyot mablag'lari hisobiga 2010-yilda jam'i investitsion mablag' larning 22,6 foizi to'g'ri kelishi nazarda tutilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, asosiy e'tibor korxona mablag'lari va bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi ko'lamini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnika va texnologik quvvatlарини modernizatsiyalash, mehnat unumdorligini oshirish orqali aholining yuqori daromad olishiga erishish, bularning oqibatida esa, mamlakat farovonligini yuksaltirish maqsad etib qo'yilgan.

Bu yo'nalishda aniq maqsadli ish olib borish nafaqat investitsiyalarni, balki eng avvalo, ilg'or texnologiya va nou-xaularni jalb etishni ko'zda tutadi. Ular esa O'zbekistonga jahon bozorida o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish

imkonini beradi. Aytish joizkiki, jiddiy xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollar va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari yetakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning mamlakatimizga o‘z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta‘minlaydi. So‘nggi yillarda jalb etilgan hamda izchil va yanada iqtisodiy o‘sish, yangi yuqori texnologiyali ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi daromadi darajasini ko‘tarishning ishonchli manbaiga aylangan uzoq muddatli investitsiyalar hajmi 35 milliard dollarlardan oshdi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari bo‘lgan neft-gaz va neft-kimyo sohalarida «Xitoy milliy neft korporatsiyasi», Janubiy Afrikaning «Sasob», Malayziya’ning «Petronas», Koreya’ning «Lotte», «LG international», «SK» korporatsiyalari, Koreya milliy neft korporatsiyasi, Koreya milliy gaz korporatsiyasi, Rossiya’ning «Gazprom» va «Lukoil», Amerikaning «Texaco», Yaponiya’ning «Misui» va «Marubeni» korporatsiyalari, mashinasozlik sohasida – Amerikaning «Jeneral Motors», Germaniya’ning «MAN», Yaponiya’ning «Isuzu»; aviasiya infratuzilmasi va multimodal logistika sohasida – Koreya’ning «Koreyan Eyn» va Yaponiya’ning «Mitsubishi»; oziq-ovqat va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida – Shveysariya’ning «Nestle», Angliya-Amerikaning «VAT», kimyo sohasida – Ispaniya’ning «Maksam»; to‘qimachilik va engil sanoat sohalarida – Koreya’ning «DEU interneyshnl», Hindistonning «Spenteks», Yaponiya’ning «Mitsubishi» va boshqa o‘nlab xorijiy kompaniyalar, bank-moliya sektorida «Royal Bank of Scotland», «Koreya Taraqqiyot banki» va hokazolar yaqin sheriklar hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investorlar bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan qo’shma korxonalarining soni 4 mingdan oshdi.

Keng miqyosdagi investitsiyalar, rivojlanish maqsadlarida xalqaro moliyaviy institutlar bilan o‘matilgan faol hamkorlik, xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar izchil ravishda kengaytirilib borilishi ancha murakkab bo‘lgan joriy yilda ham, kelgusi 2010-yilda ham O‘zbekistondagi iqtisodiy o‘sishni kamida 8,3 foiz darajasida belgilash va unga erishish imkoniyatini beradi. Bunday maqsadlarning asosli ekanligi eng obro‘li xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan bir necha bor tasdiqlangan.

Shu o‘rinda ichki investitsiyalardan foydalanish borasida ham mamlakatimizda talay ishlar amalga oshirilib kelinayotganligini ta‘kidlab o‘tish joizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi 1090-sonli Qarori hamda mazkur qaror bilan tasdiqlangan «Aholi va xo‘jalik subyektlarining bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklaridagi depozitlariga yanada jalb etish bo‘yicha qo’shimcha choratadbirlar kompleksi» doirasida bank tizimida bu borada olib borilayotgan ishlar yanada faollashdi.

Bugungi kunda ichki investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha:


- tijorat tuzilmalarini kafolatga bo‘lgan talabini ta‘minlash maqsadida kafolatgarov jamg‘ armalari tizimini shakllantirish;
- aholi bo‘sh pul mablag‘larini investitsion jarayonlarga jalb etish maqsadida qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikatlari va uy-joy obligatsiyalari);

- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarning bir qismini tez qoplayadigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan kichik biznes obyektlariga yo'naltirish;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo'lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni kengaytirish;

- investitsion loyihalarni sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil etish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Respublikamizga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalg etish sxemasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagagi 927-sonli Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi (7.1.2-rasm).



### 7.1.2-rasm. Respublikaga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalg qilish sxemasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-fevraldagagi 578-sonli Qaroriga muvofiq xorijiy investitsiyalarni axborot bilan ta'minlash va ko'maklashish «O'zinfoinvest» agentligi xorijiy investorlarga axborot bilan qo'llab-quvvatlash hamda har taraflama ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan. Agentlik Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil muassasadir.

«O'zinfoinvest» agentligi 3 ta yo'nalish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalg etadi:

- 1) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: davlat investitsiya dasturi yig'ma ro'yxati loyihalari; hududiy investitsiya dasturi loyihalari; davlat kafolati ostida imtiyozli kredit mablag'larini jalg etish yig'ma ro'yxati; grant mablag'lari.

- 2) korxonalarning aksiyalar paketini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish;

3) kimoshdi savdolariga mulkiy majmua sifatida qo'yilgan korxonalarini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish.

Shuning bilan birga «O'zinfoinvest» agentligi mahalliy tadbirkorlik subyektlariga xorijiy investorlarni topish, ularni O'zbekistonga taklif qilib muzokaralar tashkil etishga ko'maklashish, investorlarga respublika investitsion salohiyati, shuningdek soliq va qonunchilikdagi boshqa imtiyozlar to'g'risida ma'lumot beradi.

## **7.2. O'zbekiston iqtisodiyotini jalb qiluvchanligini oshirishning asosiy yo'nalishlari**

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investorlar sarmoyalarini jalb qilishga quyidagi shart-sharoitlar mavjuddir:

- chet ellik hamkorlarni jalb etish uchun soliq va bojxona imtiyozlari;
- siyosiy barqarorlik;
- qulay geografik joylashuv;
- mamlakatning muhim transport koridorlari tutashuvida joylashganligi;
- Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi;
- mineral resurslar va qazilma boyliklarga boyligi;
- tasdiqlangan rezervlar 1,3 trln. AQSh dollariga teng;
- mamlakatning jami potensial mineral resurslari 3,5 trln. AQSh dollariga teng;
- inson resurslari:
  - a) deyarli 100 foiz savodlilik darajasi;
  - b) ishchi kuchining mavjudligi.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotiga o'zlashtirilayotgan chet el investitsiyalari ko'lami mintaqalarda mavjud eksport imkoniyatlariga (tabiiy-iqtisodiy, mehnat va ishlab chiqarish salohiyatlari) nisbatan ancha past darajada bo'lmoqda. Mayjud holat sababini qo'shni Afg'onistonda davom etayotgan fuqarolar urushi kabi tashqi omillar bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, xorijiy sarmoyadorlar nafaqat mamlakatdagi ichki siyosiy barqarorlikni, balki qo'shni davlatlardagi mavjud holatni ham alohida e'tiborga oliadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda 2005-2008-yillarda iqtisodiyotga horijiy investitsiyalarni yo'naltirishda mavjud tashqi omillar sezilarli darajada salbiy ta'sir qildi. 2009-2010-yillar mobaynida ichki va tashqi sarmoya manbalarini jalb etish hisobiga iqtisodiy jihatdan yetarli rivojlanmagan mintaqalarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojitanrishga erishiladi. Bu esa mayjud resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlagani holda, mintaqalarga chet el investitsiyalarini yanada keng miqyosda o'zlashtirishga imkon beradi. Pirovardida barcha mintaqalar o'z eksport imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yuqori sifatli, raqobatbardosh hamda zamonaviy mahsulotlar bilan jahon bozoridan munosib o'r'in ola boshlaydi.

## **7.3. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashuv**

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashuv Respublikaning har bir hududining rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi.

Agarda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida,

hamda Navoiy va Farg'ona vodiysi viloyatlarining qishloq hududlarida bo`lsa, u holda quyidagi soliqlardan to`liq ozod etiladi:

- yagona soliq to`lovi;
- daromad (foyda solig`i);
- multk solig`i;
- infratuzilmani rivojlantirish solig`i.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskin farqlanishni oldini olish borasida ko`rilayotgan choralarga qaramasdan, hozirgi vaqtida XIKlarni tashkil etish va faoliyat yuritishida hududiy nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Bu esa o`z navbatida eksport-import operatsiyalari hajmlarida katta farqlanishni yuzaga keltirmoqda. Andijon, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahri eksport darajasi barqaror yuqori bo`lgan hududlarga kiradi. Mazkur 3ta hududda xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan yirik mashinasozlik, metallurgiya va to`qimachilik tarmoqlari korxonalari joylashganligi sababli ularda respublikaning barcha XIK eksportining 80 % si shakllantiriladi.

Hozirgi kunda ana shunday nomutanosibliklar yuzaga kelmasligi uchun har bir viloyatning investitsiya kiritilishi lozim bo`lgan iqtisodiyot tarmoqlari aniqlangan. (7.3.1-jadval)

Keyingi yillarda tashqi bozorlarga mahsulot chiqarish ulushlari past bo`lgan hududlarda ham eksport salohiyati o'sishida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. Eksport o'sishi indeksining respublika bo'yicha o'rtacha darajasidan yuqori bo`lgan ko'sratkichlar Jizzax (3,5 marotabaga), Qashqadaryo (1,7 marotabaga), Surxondaryo (3,4 marotabaga), Sirdaryo (2,6 marotabaga) va Xorazm (2,8 marotabaga) viloyatlarida qayd etilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida eksportning jadal o'sishi hisobiga eksport ulushi 1 foizdan kam bo`lgan hududlar soni kamaygan.

Mamlakatimiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti samaradorligi bevosita investitsiya siyosatining tavsifi va miqyoslariga bog'liq. Investitsiyalar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy tafovutlar va nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi bo`lib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hududlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va shu orqali iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishga imkon beradi.

Hozirgi kunda Surxondaryo, Jizzax va Namangan kabi ba`zi viloyatlar va ko`plab qishloq tumanlari budjetlarining dotasiyada qolib ketayotgani, ya`ni respublika budjeti hisobidan ta'minlanayotgani birinchi navbatda mazkur hududlarda zamonaviy korxonalar, kichik biznes sohasi, savdo tarmoqlari, umuman infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor berilmayotgani bilan bog'liq, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Jizzax va Qashqadaryo, Navoiy, Namangan va Surxondaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ahvol bundan yaxshi emas.

O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakat va uning hududlari iqtisodiyotini tizimli qayta qurishning muhim omili sifatida chet el investitsiyalarni ushbu jarayonga faol jalb qilishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy o'sishga erishish uchun nafaqat investitsiya hajmini ko`paytirish, balki ular yo`nalishini va tuzilmasini to`g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarini tanlash zarurki, ular tezda o`zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara berish lozim.

### 7.3.1-jadval

## Viloyatlarning yetakchi tarmoqlari va potensial investitsiya takliflari (2008-yil)

Viloyatlar	Mavjud yetakchi va ilg`or tarmoqlar	Xorijiy investitsiya kirishishi mol`jallangan ustuvor tarmoqlar	Investitsiyalar hajmi (mln. AQSh doll.)
Andijon	Qishloq xo`jaligi, avtomobil sanoati, mashinasozlik, to`qimachilik, turizm	To`qimachilik Ipakchilik Kimyo Oziq-ovqat	5,0 3,0 3,0 3,0
Buxoro	Neft va gaz, to`qimachilik, qurilish materiallari, turizm	To`qimachilik Qurilish materiallari	150,0 2,0
Farg`ona	Qishloq xo`jaligi, neft-gaz, kimyo (neft kimyosi), to`qimachilik, mashinasozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, turizm	To qumachilik Ipakchilik Oziq-ovqat	20,0 2,0 10,0
Jizzax	Qishloq xo`jaligi, kimyo, mashinasozlik	Qurilish materiallari Oziq-ovqat Kimyo Energetika	400,0 2,0 5,0 60,0
Qoraqalpog`iston	Energetika, neft kimyosi, kimyo, kon-metalluriya	To`qimachilik	8,0
Xorazm	Qishloq xo`jaligi, engil, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik, turizm	To`qimachilik Gilamchilik	150,0 50,0
Namangan	Qishloq xo`jaligi, engil, to`qimachilik, mashinasozlik	To`qimachilik Ipakchilik Qurilish materiallari Oziq-ovqat	10,0 15,0 10,0 10,0
Navoiy	Kon-metalluriya, kimyo, qurilish materiallari, mashinasozlik, to`qimachilik	Kimyo Qurilish materiallari, Energetika To`qimachilik	170,0 100,0 250,0 10,0
Samarkand	Qishloq xo`jaligi, xalq iste`mol tovarlar ishlab chiqarish, to`qimachilik, mashinasozlik, qurilish materiallari, kimyo, elektrotexnika, turizm	To`qimachilik Oziq-ovqat Kimyo	20,0 30,0 30,0
Sirdaryo	Qishloq xo`jaligi, oziq-ovqat, to`qimachilik, enoil sanoat, turizm	To`qimachilik Mebel Farmasevtika Energetika	4,0 9,0 4,0 20,0
Surxondaryo	Qishloq xo`jaligi, neft va gaz, qurilish materiallari, engil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik, turizm	To`qimachilik Oziq-ovqat Tog`-kon sanoati	25,0 9,0 15,0
Toshkent shahri	To`qimachilik, yengil, kimyo, farmasevtika, qurilish mater., turizm, oziq-ovqat, mashinasozlik	Elektrotexnika Mashinasozlik, To`qimachilik Qurilish materiallari, Kimyo Farmasevtika	16,0 50,0 25,0 100,0 6,0 1,0
Toshkent viloyati	Yengil sanoat, rangli metallar, qurilish mater., kimyo, yoqilg`i-energetika	Oziq-ovqat, Kimyo Rangli metallurg. Tog`-kon va energetika Farmasevtika	15,0 10,0 50,0 72,0 600, 0 15,0
Qashqadaryo	Qishloq xo`jaligi, to`qimachilik, neft-gaz, qurilish mater., mashinasozlik, yengil, oziq-ovqat	To`qimachilik Oziq-ovqat Tog`-kon sanoati	100,0 10,0 13,0

Manba: [www.uzinfoinvest.uz](http://www.uzinfoinvest.uz).

Bunday holatda investitsiyaning tezda qaytarilishi va qanchalik samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu investitsion jarayonni jonlantirish uchun turki berish, keyinchalik esa investitsiyalash uchun afzal tarmoqlar va xo'jalik yuritish subyektlarini tanlashga imkoniyat yaratish mumkin.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi hududlarda qulay investitsiya muhitini, bir qator makroiqtisidiy omillarini keskin darajada kuchaytirishini taqozo etadi. Bu sohada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izohlanadi. Hududlarning iqtisodiy o'sishini va qulay investitsiya muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlash, jadallashтирishda hal qiluvchi rolni ishlab chiqarish investitsiyalar o'ynashi kerak.

Faqat investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Biroq bu hozirgi yuksak darajada integratsiyalashgan xo'jalik sharoitida davlatning muvosfiqlashtiruvchi roli obyektiv ravishda ancha salmoqli bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan investitsiya muhitni yaxshilashda barcha hududlarga olib kelayotgan investorlar faoliyatiga davlatning faol aralashuviga yaqin yillar mobaynidagi makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa strategik maqsad – hududlar iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun amalga oshirilmog'i, bu raqobatbardoshlik va hudud iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi mezonlariga javob berishi lozim. Strategik maqsadga erishish qulay investitsion muhitini yaratish asosida ta'minlanishi mumkinki, investitsiya jarayonlarini davlat yo'li bilan makro boshqarib turish bunday rejalab turishning eng muhim yo'nalişlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Hududlardagi investitsiya muhitini shakllantirishning hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Bunday o'sish alohida investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadiki, u taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga, investitsiya resurslari va chet el investitsiyalarini jaib qilish sifatida mablag lardan foydalanishning mavjud imkoniyatlariiga taya'nishi lozim bo'ladi. Chet el investitsiyalarini jaib etmay turib, hozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlab chiqarishning tashkil etilishini ta'minlash mumkin emas.

Hududlar investitsiya jarayonlarini izga solib turishning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tug diruvchi shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, hududlarda qulay investitsiya muhitini yaratishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin.

Respublika hududida investitsiya muhit bilan o'zaro bog'langan amalga oshirish jarayoniga qaratilgan subyektlar tarkibiy o'zgartirishlar strategiyasi ma'nosini chuqur anglab olishlari, globallashuv, iqtisodiyotlarning xalqaro raqobat va o'zaro hamkorligi natijalarini, mamlakat hududlari taraqqiyoti va hududlar korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqish istiqbollarini oldindan ko'ra bilishlari kerak. Bularniig hammasi investitsiya muhitini faol ta'minlashda ishlab chiqish, tanlab olish, amalga oshirish va ularni ichki manbalar hamda tashqaridan jaib qilinadigan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish istiqbollarini belgilashda asosiy o'rinda turadi.


#### **7.4. Strategik ahamiyatga ega bo`lgan loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalarning o`rni**

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan ayni damda, iqtisodiyotning real sektor korxonalarini, shu bilan birga infratuzilma obyektlari rivojlanishini qo`llab-quvvatlash maqsadida investitsiya mablag`liarni topish va ularni maqsadli yo`naltirish muhim omillardan biriga aylanmoqda.

O`tgan 2009-yilda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo`nalishga aylandi.

2009-2012-yillarga mo`ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan asosiy yo`nalishlarning uchinchi bo`limi «Iqtisodiyotning real sektori sohasida resurs bazasini kengaytirish va investitsiya faolligi o`sishini ta`minlash choraiari»ga qaratilgan bo`lib, birgina 2009-yilning o`zidayoq dastur ijrosini ta`minlash, ya`ni tijorat banklari tomonidan korxonalami modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 2,4 trln. so`m miqdorida yoki 2008-yilga nisbatan 1,6 barobarga ko`p investitsion kreditlar ajratildi.

**2009-2014 yillarda amalga oshirish ko`zda tutilgan investitsion loyihalar Dasturi (iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida, mln. dollar.)**



##### **7.4.1-rasm.**

Xususan o`tgan 2009-yilda investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo`yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, shulardan 303 tasi muvaffaqiyatlari yakunlandi. Yil davomida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 8,2 milliard dollarni tashkil etgan bo`lsa, bu o`tgan 2008-yilga nisbatan qariyb 24,8 foizga ko`p ekanligidan dalolatdir. Jalb etilgan

xorijiy investitsiyalarning hajmi 68 foizga o'sdi, ularning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalarni tashkil etdi.

2009-2014-yillarda amalga oshirish ko'zda tutilgan investitsion loyihalar Dasturini to'liq amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan jami 42,5 mlrd. dollar miqdorida mablag` ajratilishi ko'zda tutilgan.

2010-yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 milliard AQSh dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshishi rejalashtirilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday yirik loyihalarni amalga oshirish uning ichki resurslarini 2007-yilda tashkil etilgan Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'i evaziga moliyalashtirilishi ko'zda tutilmoqda. Buning asosiy, ya'ni infratuzilma obyektlarini rivojlantirish uchun ajratilishi belgilanayotgan investitsiyalarga urg'u berilayotganligidan asosiy maqsad – infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va xalq farovonligini ta'minlashga erishishdan iboratdir. Bugungi kunda faqatgina mazkur jamg'arma mablag'lari emas, balki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va korxonalar mablag'larini jalb qilish yo'li bilan iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari ham amalga oshirilmoqda.

## **Qisqacha xulosalar**

Mamlakatimiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti samaradorligi bevosita investitsiya siyosatining tavsifi va miqiyoslariga bog'liq. Investitsiyalar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy tafovutlar va nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi bo'lib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hududlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va shu orqali iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishga imkon beradi.

Hududlardagi investitsiya muhitini shakllantirishning hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Bunday o'sish alohida investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadiki, u taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga, investitsiya resurslarini va chet el investitsiyalarini jalg qilish sifatida mablag'lardan foydalanishning mavjud imkoniyatlariga taya'nishi lozim bo'ladi. Chet el investitsiyalarini jalg etmay turib, hozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlab chiqarishning tashkil etilishini ta'minlash mumkin emas.

Hududlar investitsiya jarayonlarini izga solib turishning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tug'diruvchi shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, hududlarda qulay investitsion muhit yaratishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan ayni damda, iqtisodiyotning real sektor korxonalari, shu bilan birga infratuzilma obyektlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida investitsiya mablag'larni topish va ularni maqsadli yo'naltirish muhim omillardan biriga aylanmoqda.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotini jalg qiluvchanligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini sanab bering.
2. Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan chet el investitsiyalari ko'lamni qanday holatda ?
3. O'zbekiston Respublikasida valuta operatsiyalarini rivojlantirish muammolari nimalardan iborat ?
4. O'zbekiston Respublikasida qanday valuta cheklanishlari mavjud ?
5. Valuta operatsiyalarini va valuta bozorini rivojlantirishdagi o'zgarishlar mohiyatini yoritib bering.
6. Xorijiy investitsiyalarni jalg etishga hududiy jihatdan yondashuv qanday imkoniyatlarni beradi ?
7. Hududlarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida keskin farqlanishni oldini olish borasida xorijiy investitsiyalar qanday ahamiyatga ega?
8. Hududlar iqtisodiyotining samaradorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning o'ziga xos qanday jihatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq ?

## **8-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI XORIJUY INVESTITSIYALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

### **8.1. Mamlakatimizning eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotini rivojlanterishning asosiy yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasi eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotini rivojlanterish, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining eksport faoliyatini takomillashtirish iqtisodiy qayta qurishning hozirgi bosqichida muhim hisoblanadi. Shu bilan birga O'zbekiston oldida mamlakatning xomashyo tovarlari eksportiga qaramligini pasaytirish, import va eksport bozorlarini diversifikasiya qilish hamda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tovarlar eksportini jadallashtirish kabi masalalar turibdi.

Ba'zi mamlakatlar va chet el iqtisodchilarining fikriga ko'ra, eksportni mo'ljal qilib tashqi savdoni rivojlanterish xomashyo bo'lмаган tovarlar eksport ulushini oshirishga asos bo'lishi mumkin. O'zbekiston ko'p afzalliklarga ega ekanligi umuman tan olingan, ularning ba'zilari quyidagicha:

- mineral xomashyo ko'p turlarining boy sanoatbop turi;
- ko'pgina qishloq xo'jalik o'simliklarini yetishtirish uchun qulay, shuningdek issiqlik va elektr energiyasini tejash imkonini beruvchi tabiiy iqlimi sharoit;
- turizm va tadbirdorlikning turdosh xillarini rivojlanterish imkonini yaratuvchi butun olamga dong'i ketgan boy madaniy va tarixiy meros;
- yuqori malaka bilan birga nisbatan arzon ishchi kuchi;
- salmoqli ilmiy salohiyat va amaliy tadqiqotlarning yuqori darajasi;
- rivojlangan infratuzilma va boshqalar.

Biroq, mamlakatning solishtirma afzalliklarini baholash kompleks reyting usuli qo'llanishini talab etadi. Oddiyroq shaklda solishtirma afzalliklar ishlab chiqarish xarajatlarining nisbati yoki shunday o'xshash tovarlarning jahon bozoridagi narxlari nisbati bo'yicha chamalanashi mumkin. Standart usul ekspert chandalash asosida O'zbekistonning raqobatbardoshlik darajasi (xarajatlar bo'yicha, mahsulot sifati omili hisobga olinmagan holda) bo'yicha solishtirma afzalliklari eksportning tovar guruhlari bo'yicha shartli ravishda raqobatbardosh, raqobatbardoshga yaqin va hozirgi paytda raqobatbardosh bo'lмаган tovarlar guruhlariga tasniflash mumkin.

Shuningdek, raqobat muhitini yaratish mamlakat eksport imkoniyatlarini o'stirish va yanada rivojlanterish uchun eng muhim shart hisoblanadi. Bir qator mamlakatlar va chet el iqtisodchilarining fikriga ko'ra, mamlakat ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagilar shart:

- xo'jalik faoliyatining barcha subyektlari uchun teppa-teng sharoitlarni yaratish, ya'ni har qanday imtiyozlar barcha tarmoqlarga taalluqli bo'lishi shart;
- resurslarning mobilligini oshirish, eng avvalo bank tizimi samaradorligini oshirish orqali sarmoya ni erkin o'tishini ta'minlash, shuningdek, tovar - xom ashyo resurslari bozorini erkinlashtirish va ma'muriy boshqarishdan voz kechish va xomashyo tovarlarini sanoat ishlab chiqarish va eksport uchun taqsimlash;
- mahsulotlar importiga chegaralangan tarzda yo'l qo'yilishi bilan birga

texnologik zanjir bo'ylab narxlarning oshishiga olib kelayotgan yuqori narxlarni yakka tarzda saqlab turish amaliyoti saqlanib kelayotgan konsernlar, assotsiatsiyalar, xoldinglar va milliy kompaniyalar tizimini monopoliyadan chiqarish;

- soliq tizimi va uni ma'muriylashtirishni takomillashtirish;
- tashqi savdoni erkinlashtirish.


Ayniqa qayta ishslash sohalarining eksportini rivojlantirish xorijiy mamlakatlar bozoriga chiqish imkoniyatlariغا ham yuqori darajada bog'liq. Xomashyo eksporti amalda xorijiy bozorlarga chiqishda to'siqlarga uchramagan bir sharoitda tayyor tovarlar eksporti xorijiy mamlakatlarda ko'pincha tarif va notarif to'siqlarga duch keladi.

Bugungi kunda mamlakat eksportini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri importga nisbatan tarif va notarif proteksionizmning yuqori darajada mavjudligidir. Ayni vaqtida yuqori savdo to'siqlari nafaqat iste'mol tovarlarini (pirovardida foydalanish uchun tovarlarni) import qilishni, shu bilan birga ham eksportga, ham ichki bozorga yo'naltirilgan milliy ishlab chiqarishlarni rivojlantirish zarur bo'lган oraliq tovarlar importini ham cheklab qo'yadi. Bundan tashqari, ichki bozorda tashqi raqobatni cheklash iqtisodiy resurslarni samarasiz taqsimlash uchun omil yaratadi. Natijada o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda importdan himoya qilingan tarmoqlarning nisbatan raqobatbardoshlik qobiliyati pasayib ketadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarga va investorlarga barqaror sharoit va qo'llab-quvvatlashni ta'minlab beradigan, odilona raqobat rivojlanishiga yordam beradigan va suiste'molning oldini oladigan qulay sharoitni yaratish eksportni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish va oqibatda iqtisodiy o'sishning zarur sharti hisoblanadi.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarни qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda (8.1.1-rasm).

**O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi dinamikasi, mln. AQSH doll.**



**8.1.1-rasm.**

Ma'lumotlardan ko'rindik, respublikamiz tashqi savdo aylanmasi muttasil o'sib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2009-yilda 21209,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2005-yilga nisbatan 2,23 marta, 2008-yilga nisbatan 0,06 foizga o'sdi. Bu eksport hajmi 2,4 foizga o'sgani holda import hajmining 2,74 foizga kamayishi natijasida ro'y berdi.

Ayni chog'da, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida ko'pchilik mamlakatlarda eksport hajmining keskin qisqarishi kuzatilmogda. Jumladan, 2009-yilda eksport hajmlarining qisqarishi Rossiya Federatsiyasida 44,2 foizni, Ukrainada 48,7 foizni, Qozog'istonda 47,7 foizni tashkil etdi.

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo'lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zgarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarini og'ir ahvolga solib qo'yishi mumkin. Buning natijasida eksport hajmining qisqarishi valuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonli davlatlarga bog'lanib qolishi ham qaltsi holat hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ma'ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikasiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhning iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

2000-2009-yillarda eksport va importni diversifikasiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobji siljishlar ro'y berdi (8.1.1-jadval).

Xususan, boshqa tovarlar pozitsiyalari bo'yicha eksport hajmining jadal o'sishi Paxta tolasining jami eksportdagi ulushini 2000-yildagi 27,5 foizdan, 2008-yilda 9,3 foizga, 2009-yil yakunlariga ko'ra esa 8,6 foizgacha pasayishiga olib keldi.

2000-2009-yillarda respublikamiz importi tarkibida ham ijobji siljishlar ro'y berdi.

### 8.1.1.-jadval

#### O'zbekiston eksportining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000-yil	2005-yil	2008-yil	2009-yil
Eksport jami (mln. AQSh doll.)	3267,6	4853,0	11493,3	11771,3
Eksport jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,3	8,6
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	2,9	5,3	5,6	5,0
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	7,0	5,0
Mashina va uskunalar	3,4	8,4	7,6	2,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,8	4,5	6,0
Energiya resurslari	10,3	11,1	24,7	34,2
Xizmatlar	13,7	12,2	10,4	8,8
Boshqalar	30,2	30,5	30,9	29,5

Mamlakatni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miyosda amalga oshirilishini ta'minlash jami import hajmida mashina va uskunalar importi ulushining jadal o'sishiga olib keldi (8.1.2.-jadval).


### 8.1.2.-jadval

#### O'zbekiston importining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000 -yil	2005-yil	2008-yil	2009-yil
Import jami (mln. AQSh doll.)	2944,5	4091,3	9704,0	9438,3
Import jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	13,6	13,6	11,6	11,1
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	7,7	6,3
Mashina va uskunalar	35,4	43,3	52,4	56,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	7,0	8,3	9,0
Energiya resurslari	3,8	2,5	4,6	5,3
Xizmatlar	8,5	10,4	4,4	4,4
Boshqalar	17,8	12,9	11,0	9,2

Tashqi savdo aylanmasi, xususan eksportning geografik tarkibida MDH mamlakatlarining ulushi 2009-yil yakunlariga ko'ra 33,9 foizni tashkil etdi (8.1.2.-rasm). 2009-yilda mamlaktimiz korxonalari eksportining 21,0 foizi Rossiya Federatsiyasi, 7,2 foizi Ukraina, 6,2 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri keldi.

## O'zbekiston eksportining davlatlararo tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



**8.1.2. –rasm.**

Uzoq xorij davlatlariga qilingan eksportning jami eksportdagи ulushi 2008 yilda 65,8 foizni, 2009 yilda esa 66,7 foizni tashkil etdi. Bu mamlakatlar bo'yicha mamlakatimiz eksportining diversifikatsiyalashuv darajasi nisbatan chucherroq bo'lib, 2009-yil ma'lumotlariga ko'ra faqat Xitoy (9,7 %), Shveysariya (7,9 %), Afg'oniston (3,3 %), Turkiya (3,2 %), Eron (2,7 %), Germaniya (2,2 %), AQSh (1,7 %) ning mamlakatimiz eksportidagi ulushi 1 foizdan yuqoridir.

Xorijiy davatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Jahon bozorlarida korxonalar mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;
- ularni tashqi bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;
- transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish;
- yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va h.k.

Bu borada har bir tarmoq uchun ishlab chiqilishi ko'nda tutilayotgan 2010-2012-yilga mo'ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha maxsus dasturlarda eksport hajmini oshirish, eksport qilinadigan yuklarni tashish

tizimini takomillashtirish, eksportchi korxonalarni marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalari o'z aksini topadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini divesifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

Bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning urnumiy iqtisodiy siyosatning ajralmas bir qismidir.

Eksport salohiyatini yuksaltirish, uning hajmini oshirish, tarkibini takomillashtirish, geografiyasini kengaytirish muhim va dolzarb vazifadan biri bo'lib, bir vaqtning o'zida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlaming eng murakkab vazifalari qatoriga kiradi.

Ma'lumki, mintaqalar eksport salohiyati samaradorligani oshirish ko'p jihatdan jahon xomashyo bozoridagi talab va taklif jarayonlariga uziyi bog'liqdir. Juhon bozorida kuzatilayotgan talab-ehtiyojlar tahlili shuni ko'rsatadi, O'zbekiston mintaqalari eksport salohiyatining yaqin istiqboldagi rivojlanishi kimyo, rangli metalluriya sanoat mahsulotlari, shuningdek, mashina-jihozlar va chuqur qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport hajmining keskin ortishiga bog'liq bo'lib qoladi. Chunki oxirgi o'n yilliklarda jahon bozorida aynan shu mahsulotlarga nisbatan barqaror narx va doimiy talab kuzatilmoxda. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarda ishlab chiqilgan Davlat eksport siyosati 2008-2010-yillarda ham saqlanib qoladi va mazkur siyosat mintaqalar eksport salohiyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan huquqiy hamda iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltiriladi. Bu esa mintaqalarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish hisobiga chuqur qayta ishlangan, raqobatga chidamli mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi hamda eksportbop mahsulotlar turining keskin ortishiga olib keladi.

Mintaqalar eksport salohiyatining kengayishida yoqilg'i-energetika majmuasi ulkan istiqbollar ochadi. Yaqin kelajakda mavjud neft-gaz zaxiralaridan samarali foydalanish hisobiga Buxoro, Qashqdaryo va Farg'on'a viloyatlari eksport salohiyati sezilarli darajada ko'tarildi. Jumladan, Buxoro viloyatida chet el investorlari (Fransiya va Turkiya) bilan hamkorlikda 1996-1998-yillar davomida neftni qayta ishlash zavodining birinchi bloki ishga tushirildi. Ushbu zavodning quvvati yiliga 2 mln. tonna gaz kondensati va 5 mln. tonna neft mahsuloti ishlab chiqarishga mo'ljalangan.

Respublikamizda 2009-2010-yillarda uglevod ishlab chiqarishda asosiy xomashyo hisoblangan neft-gaz kondensati hajmini oshirish va mahsulotni qayta ishslash hisobiga eksport hajmini yanada kengaytirish mo'ljalanganmoqda. Shu bois neft va gaz kondensati ishlab chiqarish hisobiga Farg'on'a va Qashqdaryo viloyatlari eksport hajmida chuqur tarkibiy o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Hozirda ushbu mintaqalar hududida Farg'on'a va Oltiariq neftni qayta ishslash zavodlari hamda Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishslash majmualari mavjud. Respublikamizda

yukساқ texnika va texnologiyalarni jalb etish asosida qora metallurgiya sanoatini rivojlantirish istiqbolları mavjud.

Mintaqalarda rangli metallurgiya sanoatini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Bu esa xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishda ulkan istiqbollar ochadi. Jumladan, Samarqand (Ingichka, Qo'ytosh, Yaxton), Jizzax (Ugat) hamda Navoiy (Sariqtog', Sautbas) viloyatlarida volfram xomashyosiga o'ta boy zaxiralar mavjud. Shuningdek, Jizzax va Surxondaryo viloyatlaridagi Uchquloch va Xavdiza konlariда qo'rg'oshin, rux rudasi qazib olishni 2 barobarga oshirish imkoniyati mavjud. Rangli metallurgiya sanoati bo'yicha eksport salohiyatini yuksaltirishda asosiy muammollardan biri mineral xomashyo zaxiralaridan foydalanshda zamonaviy uskunalarini chetdan keltirish hisoblanadi. Ayniqsa, Toshkent va Navoiy viloyatlarida mavjud tarmoq korxonalarini ta'mirlash va texnik qayta jihozlash asosida jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkoniyati mavjud. Olmaliq va Qizilqumdag'i mis rudasi zaxiralarini xomashyosi negizida turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjudligiga kelgusida ushbu mahsulot eksportini oshirish imkoniyatini beradi. Mintaqalar eksport salohiyatini kimyo sanoati bo'yicha oshirishda asosiy e'tibor mavjud kimyo qayta ishlash korxonalarini ta'mirlashga qaratilmoqda. Ayniqsa, Navoiy, Farg'on'a, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent, Samarqand viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida qulay shart-sharoitlar mavjud. Hozirda mammakatimizda ishlab chiqarilayotgan kaprolaktarning 70-80 % qayta ishlovchi vositalarni ishga tushirishda qo'llanilmoqda. Yaqin kelgusida kapron iplar ishlab chiqaruvchi fabrikalarni qurish taxmin qilinmoqda. Shuningdek, ko'pgina mintaqalarda qisman mahalliy ehtiyoj uchun hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yengil sanoat korxonalarini qurish mo'ljallanmoqda.

Mintaqalar bo'yicha mashinasozlik eksport salohiyatini oshirish masalasi chet el investorlari va firmalarini keng jalb qilish asosida yangi tarmoqlarni rivojlantirish mo'ljallanmoqda. Davlat investitsiya dasturiga muvofiq, Andijon, Jizzax, Toshkent, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida mashinasozlik majmuuni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini, amalga oshirish bo'yicha aniq rejalar loyihasi ishlab chiqilmoqda. 2009-2010-yillarda qayta ishlangan mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi qo'shma korxonalar faoliyatini ijobiy ahamiyat kasb etishi kutilmoqda. Bu turdaga hamkorlik Toshkent shahri, Andijon, Surxondaryo, Jizzax va Farg'on'a viloyatlarida yanada rivoj topgan. Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Italiya, Shveytsariya, Amerika, Fransiya, Angliya va Litva davlatlari bilan tuzilgan qo'shma korxonalarda paxta tolasidan ip, shoyi, trikotaj, velyur, sun'iy teri, jinsi, jakard gazlama, teridan tayyorlangan oyoq-kiyim mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Xulosa qilib aytganda, yaqin istiqbolda qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashda xorijiy sarmoyadorlar bilan o'zaro hamkorlikni qo'shma korxonalar shaklida yanada keng yo'lga qo'yish mintaqalar eksport faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **8.2. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish konsepsiysi**

O'zbekiston Respublikasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamizning Yaqin Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga yaqinligi, chegaradoshligi, Yevropa va Osiyo mamlakatlari savdo yo'lida joylashganligi tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Buning natijasida eksportga ixtisoslashgan qo'shma subyektlarni tashkil etish, erkin iqtisodiy hududlarni shakllantirish negizida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keladi.

Hozirgi kunda respublikamizda importning o'mini qoplash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo'nalishlarga jadalroq jalb qilishga, ularga kafolat va imtiyozlar berishga, litsenziyalarni, "nou xau"lar sotib olishga, valuta tushumlarini kadrlarni tayyorlashga sarflashda erkinliklar berishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish – ushbu sohadagi boshqaruvni takomillashtirish, eng avvalo, sanoat yo'nalishidagi subyektlarni boshqarish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini yaratishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Jahon andozalari darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun subyektlarni zamонавија ilg'or texnologiya, eng yangi uskunalar, ayniqa kichik va o'rta subyektlar uchun mo'ljallangan ixcham uskunalar bilan jihozlash talab qilinadi.

O'zbekistonda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozlar berilgan bo'lib, ularning ayrimlari quydagilardan iborat:

- subyekt o'zi ishlab chiqargan mahsulotni erkin almashtiriladigan valutaga sotadigan bo'lsa, unga akkreditivsiz eksport qilish huquqi beriladi;

- tovar eksporti ichki bozor bahosidan past bahoda amalga oshirilganda soliqqa tortish haqiqatda sotiladigan baho bo'yicha amalga oshiriladi;

- eksportga chiqarilayotgan tovarlarning hajmi umumiy sotish hajmining 30 foizini yoki undan ortig'ini tashkil qilsa, daromad solig'ining miqdori ikki martagacha qisqartiriladi;

- MDHga mahsulot eksport qiladigan subyektlar 1998-yil 1-yanvardan boshlab aksiz solig'i va qo'shimecha qiymat solig'idan ozod qilinadilar;

- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha ishlab chiqarish subyektlari chet davlatlarda o'zlarining uylarini, vakolatxonalarini ochishlari mumkin. Shu bilan birga, ularga konsignatsiya shartlari asosida tovar yetkazib berishlariga ruxsat beriladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, hamda zarur bo'lgan infratuzilmalarni yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki,

Xorijiy sarmoyalalar bo'yicha agentlik, "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini kiritishimiz mumkin. Bu tashkilot va muassasalarning respublikamizga xorijiy sarmoyalarning kirib kelishini tezlashtirishda, ustuvor yo'naliishlarni aniqlashda, ularni sug'ortalashda, bank va konsalting xizmatlari ko'rsatishda beqiyos ahamiyatga egadir.

### **8.3.Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarini kreditlash**

Bugungi kunda Respublikamizda pul-kredit dastaklarining tijorat banklari faoliyatida ta'siri mexanizmi nuqtai nazaridan olib qaraganda, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalaridagi beriladigan kreditlar miqdori markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga, markaziy bankning so'mdagi depozitlar bo'yicha majburiy zaxira stavkasiga va kreditlarning o'ttacha foiz stavkasiga teskari mutanosibdir. Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy bankingin kredit resurslari miqdoriga esa to'g'ri mutanosibdir. Buning sababi shundaki, Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari oshirilishi tijorat banklarining kreditlash salohiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri pasaytiradi. Majburiy zaxira ajratmalarini tijorat banklarining jalb qilingan resurslariga nisbatan hisoblanadi. O'z navbatida jalb qilingan resurslarning asosiy qismi tijorat banklarining kredit resurslari hisoblanadi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan kreditlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan kreditlar hajmi, kreditlarning o'ttacha foiz stavkasi, Markaziy bankning so'mdagi depozitlari bo'yicha majburiy zaxira stavkasi, TIF Milliy bankingin kredit resurslarini keltirish mumkin.

TIF Milliy bankingin xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning kreditlash salohiyatiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan yana biri, kredit resurslarining yetarlilik darajasi hisoblanadi. Kredit resurslarining yetarli darajada bo'lishi tijorat banklariga o'z mijozlarini barqaror tarzda kreditlash imkonini beradi. Xalqaro bank amaliyotida kredit resurslarining yetarlilik darajasi quyidagi ikkita ko'rsatkich orqali aniqlanadi:

#### **1. Transaksion depozitlar ko'rsatkichi.**

Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun transaksion depozitlar summasi tijorat bankingin jami depozitlari summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, agar tijorat banklari depozitlarining salmog'i 30 foizdan oshmasa, bankning depozit bazasi barqaror hisoblanadi.

#### **2. Tijorat banki umumiy kapitalining yetarlilik darajasi.**

Buni aniqlash uchun umumiy kapital summasi bank aktivlarining riskka tortilgan summasiga bo'linadi va olingan natija 100 %ga ko'paytiriladi. Xalqaro Basel standarti bo'yicha tijorat banklari umumiy kapitalining yetarlilik koeffitsiyentini minimal darajasi 8 %ni tashkil etilishi lozim. Agar bu koeffitsiyentining haqiqatdagi darajasi 8 %dan past bolsa u holda tijorat bankingin umumiy kapitali yetarli emas deb hisoblanadi.

Jahoning yetakchi banlari ekspertlarning tavsiyasiga ko'ra, sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasi 4,5 %ni, sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasi esa, 1,25 %ni tashkil etadi. Milliy bank tizimida sog'lon raqobat muhitida

mavjud bo'lgan sharoitda tijorat banklari ana shu belgilangan darajalarda faoliyat yurita oladilar. Agarda bank tizimida sog'lom raqobat muhit shakllantirilmagan bo'lsa, u holda monopol banklar ushbu ko'rsatkichlarning yuqori darajasida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar, kichik va o'rta tijorat banklari esa bu ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasini ham ta'minlay olmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda TIF Milliy bankining xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar kreditlash salohiyatiga asosan uchta omil ta'sir ko'rsailmoqda. Bular Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomasining o'zgarishi, kreditlarning foiz stavkalari o'zgarishi va TIF Milliy banki kredit resurslarining yetarilik darajasidir. Shu sababli, ushbu omillar bankning kreditlash salohiyatiga nisbatan yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy ta'sirlarga barham berish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### **8.4. Xorijiy investitsiyali korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati**

O'zbekiston Respublikasida me'yoriy-huquqiy asoslarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini rag'batlantirish, kelgusida xorijiy kapitalni jalg qilish, yangi qo'shma korxonalar yaratish uchun qulay iqtisodiy zaminni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar maqsadli yo'naltirilgan holda amalga oshirilmoqda.

Korxonalarни xususiy lashtirishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'mning konvertatsiyasini joriy qilish, ayrim iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarни qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari boshqa soliq to'lovlaridan ozod qilish, shuningdek, bojxona tariflari yordamida tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar xorijiy investitsiyali korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarning ijobiyligi o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ko'plab korxona va birlashmalar, korporatsiya va kompaniyalar, firma va boshqa tashkilotlar xorijlik sheriklar bilan tashqi savdo aloqalarini muvaffaqiyatli rivojlantirmoqda, xorijlik investorlar ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Xorijiy investitsiyali korxonalar ishlab chiqaruvchi mahsulotlar xalqaro sifat standartlari talablariga javob bera oladi. "GM O'zbekiston", "O'zKeysMash", "O'zBAT", "Doyche Kabel AG Tashkent", "Green World", "Oqsaroy to'qimachi LTD", "Xobas Tapo" va boshqa bir qator xorijiy investitsiyali korxonalar o'z mahsulotlariga ISO 9001 standarti sertifikatlarini olgan. Yaqin yillarda respublikamizda "Toshkentsut" AJ, "O'zgo'shtsutsanoat" va Rossiya kompaniyasi asosida yaratilgan "Vimm-Bill-Dann-Markaziy Osiyo Toshkent" qo'shma korxonasida sut mahsulotlari (sut, tvorog, pishloq) ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. Bu esa respublika ichki bozorini ta'minlash va Qozog'iston, Xitoy va Turkiyaga sut mahsulotlari eksport qilish imkonini beradi. Yengil sanoatda ham xorijiy investitsiyali korxonalarning faoliyati sezilarli darajada kengaytirilishi rejalashtirilmoqda. To'qimachilik tovarlari eksporti 2 barovar o'sishi kutilmoqda. Loyihalarning asosiy hankorlari AQSH, Germaniya, Shveysariya va Turkiya mamlakatlaridir. Xorijiy investitsiyalarni jalg

qilgan holda ustuvor loyihalarni amalga oshirish respublika bozorini to'ldirishdan tashqari, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozorlariga eksport qilish imkonini beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini diversifikasiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi. Bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, investitsiya faoliyatini rag'batlanirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismidir.

Tashqi savdo munosabatlari geografiyasini, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobidan sifat jihatidan o'zgarmoqda. 4.Keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infiltratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'yangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarning natijasidir.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiyligi o'zgarishlarni misollar yordamida izohlang.
3. Jahon moliyaviy-iquisodiy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri qaysi yo'nalishlarda namoyon bo'ldi?
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish qaysi omillarga bog'liq?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli nimalardan iborat?
6. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini kreditlashning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
7. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan kreditlarga qaysi omillar ta'sir qiladi?
8. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportini rivojlantirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

## **9-bob. XORIJIV INVESTITSIYALARINI SUG'URTALASH VA TAVAKKALCHILIK**

### **9.1. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining rivojlanishi**

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbuslari bilan moliyaviy bozorni yanada rivojlantirish, uning oshkoraliqi va barqaror faoliyatini ta'minlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan investitsiyalar jalg etilishini faollashtirish borasida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida, aholi turmush tarzini yaxshilanishiga, ishsizlikni oldini olishga va eng asosiysi kambag'allikni yo'qotishga turki bo'ladi. Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha sohalarida shu jumladan, sug'urta sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlanishiga chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008-yil 21-maydagi 872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlanishiga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, sug'urta, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirishning yaqqol misolidir.

Bundan tashqari, mazkur Prezident qarori asosida, mol-mulk sug'urtasi va hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha aholi va korxonalarining to'lagan sug'urta mukofotlari ularning daromad solig'i bazasidan chiqarilishi belgilandi, bu bilan shaxsiy sug'urtani va avvalo jamg'arib boriladigan sug'urta turlarini rivojlanishiga ulkan asos yaratib berildi. Hozirda O'zbekistonda 29 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritish kelmoqda. Ushbu sug'urta kompaniyalaridan 4 tasi davlat ulushiga ega sug'urta kompaniyalarini hisoblanadi, bular "O'zbekinvest" EIMSK, "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK va "Madad" Sug'urta agentligidir. "O'zbekinvest hayot" sug'urta kompaniyasi hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yuritadi va yana bitta qayta sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi "Transinshurans" sug'urta kompaniyasi mavjud. Qolgan 27 ta sug'urta kompaniyasi umumiy sug'urta sohasida faoliyat yuritmoqda.

[Yalpi sug'urta mukofotlari hajmining yalpi milliy mahsulotdagi ulushi, sug'urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich oxirgi yillarda 0,3 % atrofidagi barqarorlikka erishdi.]bu mahalliy sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta xizmatlariga bo'lgan to'lovga qobil talabning to'liq qondirilganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, shuni ta'kidlab o'tish joizki O'zbekistonda sug'urtalash va qayta sug'urtalash faoliyati yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turibdi va sug'urtaning iqtisodiyotdagi ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda.

### **9.2. Xorijiy investitsiyalarini sug'urtalash**

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarini jalg etishni faollashtirishga katta e'tibor qaratilib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'lovlarini sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoitlar va

kafolatlar tizimi shakllantirildi. Bunday tizimning tarkibiy qismi bo'lgan sug'urtaning shakllantirilishi xorijiy investorlarga siyosiy va tijorat xatarlaridan sug'urta kafolatini taqdim etish imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston hukumati tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish amalga oshirilmoqda.

Hozirgi paytg'a kelib, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi, umumiy, maxsus qonunchilik hamda qonunga asoslangan va ma'muriy - me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oluvchi qonunchilik tizimi yaratildi. Bunday sug'urtalash huquqiy tizimining mavjudlig'i respublika sug'urta bozorini rivojlantirishga va takomillashtirishga asos bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining sug'urta qonunchiligi O'zbekiston hududida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta tashkilotlarini tashkil etishda investorlarning nizom sarmoyasida qatnashish ulushini qattiq chegaralashni nazarda tutmaydi.

2000-yilning oxiriga kelib respublikamizda 28 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatdi. 2009-yilga kelib, ulardan 25 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 300 bo'linmasi, shu jumladan, chet el sug'urta bozori vakillari ishtirokida tuzilgan to'rtta sug'urta va brokerlik kompaniyasi ish olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarining ustuvor yo'nalishlari amalga oshirilishi investitsiya faoliyatini jadallashtirishga xorijiy investitsiyalarни keng jalb etishga, eksport salohiyatini kengaytirish va eksportning o'sishiga ko'maklashishga qaratilgan. Bu esa, sug'urta kompaniyalari faoliyatini keng qamrovda rivojlantirishni taqozo etadi.

Xususan, [mahsulot va xizmatlar bozorlarida O'zbekiston eksportchilariga sug'urta himoyasini taqdim etish maqsadida, «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Bu sug'urta kompaniyasi milliy eksport qiluvchilarning iqtisodiy manfaatlarini chet ellarda xorijiy hamkorlar tomonidan qabul qilingan kontrakt majburiyatlarining bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi siyosiy, tijorat va tadbirkorlik xatarlaridan sug'urtaviy himoya qilishni hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga sarmoya sarflayotgan xorijiy investorlarning mulkiy va shaxsiy manfaatlarini kompleks sug'urtaviy himoya qilishni ta'minlaydi. Siyosiy xatarlardan sug'urtalash bo'yicha xalqaro tamoyillarga asoslangan holda «Uzbekinvest-intermeyshn» AJ xorijiy investitsiyalar va savdoni sug'urtalash sohalarida o'zining sug'urta xizmatlarini taqdim etadi.]

Bugungi kunda, bu kompaniya xorijiy investitsiyalarini quyidagi siyosiy xatarlardan sug'urtalamoqda: mulkni musodara qilishdan; ekspropriatsiyadan; mulkdan mahrum qilishdan yoki milliylashtirishdan; qo'shimcha xatarlar sifatida - tanlovli kansitishlardan; aktivlardan majburiy mahrum etilishdan; eksport - import embargosidan; litsenziya bekor qilinishidan; urush va fuqarolar g'alayonidan; hukumat shartnomasi bekor qilinishidan hukumat kafolatlarining noqonuniy ravishda yo'q qilinishidan va boshqalardan. Uzoq muddatli xatarlarni qoplash bo'yicha kompaniya jahon sug'urta biznesining yetakchi sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari, xalqaro moliyaviy institutlari hamda davlat eksport - kredit agentliklari bilan, qisqa muddatli xatarlar bo'yicha siyosiy xatarlarni sug'urtalovchi xususiy bozor kompaniyalari bilan faol hamkorlikni rivojlantirmoqda. Yirik investitsiya loyihalarini qoplash bo'yicha qo'shma korxonaning AIG (AQSh)

sug'urta kompaniyasi va Lloyds bozoridagi xususiy kompaniyalar bilan shartnomalari bor.

Kompaniya faoliyati davomida qayta sug'urtalashni keng yo'lga qo'ygan holda, tashqi savdo shartnomalari va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar bo'yicha umumiy hisobda 884,76 mln AQSh dollari miqdorida sug'urta himoyasi taqdim etildi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalari va tashqi savdo shartnomalarini xorijiy banklar tomonidan ushbu davlatlarning eksport-kredit agentliklarining kafolatlarisiz moliyalashtirish uchun qulay sharoit yaratish bo'yicha qo'shimcha tarzda kompaniya tomonidan maqsadli strategik reja amalga oshirilmoqda. Siyosiy bo'hronlardan imtiyozli shartlar asosida sug'urtalashning taqdim etilishi neft qazib olish va gaz-kimyo tarmoqlari, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, avtomobilsozlik, telekommunikatsiya sohasi hamda paxta tolasi va respublika metallurgiya sanoati mahsulotlarining eksport shartnomalari bo'yicha avans to'lovlarini o'z vaqtida olish uchun ushbu banklar resurslarini jalb etish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, respublikamizda xorijiy investitsiyalarni, umuman, investitsiya faoliyatini sug'urtalash mexanizmi yaratildi. Mavjud mexanizmni yanada takomillashtirish, xorijiy investorlarga sifatlari, arzon va qulay sug'urta xizmatlarini ko'rsatish milliy va qo'shma sug'urta kompaniyalarimizning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish va jahon talablariga to'la javob bera oladigan sug'urtalash tizimini yaratish uchun:

- birinchidan, sug'urta bozorida ma'lumotlarning ochiq namoyon etilishi, ya'ni sug'urtalanuvchi va sug'urta nazorati organlarining sug'urta kompaniyalarining ishonchlilik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi;

- ikkinchidan, sug'urta kompaniyalari faoliyatini boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, ya'ni samarali boshqaruvni tashkil etish;

- uchinchidan, xorijiy sug'urta institutlari ustidan faol nazorat olib borilishi;

- to'rtinchidan, xo'jalik-moliyaviy ahvoli yomon holatda bo'lgan yoki bankrotlik ehtimoli yuqori bo'lgan sug'urta kompaniyalari bilan ishlash uslublarini yaratish;

- beshinchidan, sug'urta sohasi bo'yicha yetuk mutaxassislarini tayyorlash, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rghanish muhimdir.

Chet el investorlari uchun zarur moliya-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan chet el investorlarini himoyalashning Milliy sug'urta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasini himoyalash rasmiy davlat sug'urta agentligi hisoblangan sug'urtalash tizimi va chet el sug'urta kompaniyalari ishtirokidagi qo'shma sug'urta kompaniyalari orqali ta'minlanadi.

### **9.3. O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlarni qo'llash masalalari**

Xalqaro kafolatlar tovar va kapitallar harakatini uzlusiz va doimiy harakat kilinishi ta'minlanishiga xizmat qildi. Xalqaro kafolatlar import qiluvchilarni sifatsiz tovarlar qabul qilishdan, eksport qiluvchilarni esa tovarlar haqini ololmay qolish xavfidan saqlaydi.

Xalqaro kafolatlar xalqaro operatsiyalarning barcha asosiy turlarida qo'llaniladi. Jumladan, bularga:

- xalqaro kreditlar bo'yicha beriladigan kafolatlar;
- eksport-import operatsiyalar bo'yicha beriladigan kafolatlar;
- to'g'ri va portfelli investitsiyalar bo'yicha beriladigan kafolatlarni kiritish mumkin.

Xalqaro kafolatlar markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi. Xalqaro kafolatlar banklar va boshqa kafolat bcruvchi tashkilotlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi, ammo bular yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi.

Xalqaro kafolatlarda uchinchi bir tomonning ishtirok etishi shartdir. Aynan mana shu kafolat beruvchi tomonning to'lovga layoqatliligi asosiy masala hisoblanadi. Xalqaro kafolatlar xalqaro miqyosda tan olingan subyektlar tomonidan beriladi.

Xalqaro kafolatlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

To'g'ri kafolat - kafolat beruvchi tomonning bevosita eksport-import operatsiyalar uchun beradigan kafolatidir. Bunda mazkur to'lov bo'yicha majburiyatlarni to'liq o'z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi.

Vositashgan kafolatlarda kafolat beruvchi o'ziga xos tarzda vositachilik vazifasini o'taydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlataladi.

Tasdiqlangan kafolatlar berilgan kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, bank o'z mijozи bo'lgan import qiluvchining to'lov majburiyatları bo'yicha kafolat bergen bolsa, eksport qiluvchining banki ham ushbu kafolatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Bu esa mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo'li bilan amalgalashiriladi.

Xalqaro kafolatlarning yana quyidagi asosiy shakllari ham mavjud:

1. To'lov bo'yicha berilgan kafolatlar.
2. Sifatlari mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha berilgan kafolatlar (jarima, qo'shimcha xarajatlar).

O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlardan foydalanish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Respublikada katta summada moliyalashtirilayotgan loyihalarning aksariyatida davlat ulushining ko'pligi sababli, xalqaro kafolatlarni ishlatuvchi subyekt hukumatdir. Bunday yirik loyihalarga Ko'kdumaloq neft majmuuni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Olinayotgan xalqaro kreditlarning asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati bilan olinmoqda. Xalqaro kafolatlarni berishda tijorat tuzilmalari va banklarning ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasida xalqaro

kafolatlar o'rnini bosuvchi majburiyatlarni pul mablag'lari bilan ta'minlash tizimi keng qo'llaniladi.

#### **9.4. Investitsiyalarning tavakkalchilik darajasi**

Investitsiyalar tavakkalchilik darajasi bo'yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkalchiliklik deganda investitsiyalarga mutlaq yoxud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam bo'ladi, boshqacha aytganda «tavakkalchilik» atamasи kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi. Qo'yilma mablag'lariiga foydani mutlaq yoxud nisbiy miqdorlarining yoyilishi qanchalik keng bo'lsa tavakkalchilik shunchalik katta bo'ladi va aksincha. Yakka investor eng kam tavakkalchilikka ega bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlardan tortib eng yuqori tavakkalli tovarlargacha bo'lgan vositalarni keng tanlash imkoniyatiga ega. Albatta, tavakkalchilik ko'p hollarda emitentning, vositachining yoki muayyan moliyaviy vositalarni sotuvchisining sofiddilligiga bog'liq. Past tavakkallik investitsiyalar muayyan daromad olishni xavfsiz vositasi hisoblanadi. Aksincha, yuqori tavakkalli investitsiyalar xavfli hisoblanadi.

### **Qisqcha xulosalar**

1. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga katta e'tibor qaratilib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'lovlari sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoit va kafolatlar tizimi shakkantirildi. Bunday tizimning tarkibiy qismi sug'urtaning shakkantirilishi xorijiy investorlarga siyosiy va tijorat xatarlaridan sug'urta kafolatinini taqdim etish imkoniyatini yaratdi.

2. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasini himoyalash rasmiy davlat sug'urta agentligi hisoblangan sug'ortalash tizimi va chet el sug'urta kompaniyalari ishtirotidagi qo'shma sug'urta kompaniyalari orqali ta'minlanadi.

3. Xalqaro kafolatlar tovar va kapitallar harakatini uzlucksiz va doimiy harakat qilinishi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro kafolatlar import qiluvchilarni sisatsiz tovarlar qabul qilishdan, eksport qiluvchilarni esa tovarlar haqini ololmay qolish xavfidan saqlaydi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining rivojlanishi borasidagi o'zgarishlarni sanab bering.

2. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari va ularning xorijiy investitsiyalarni sug'ortalashdagi ahamiyatini tushuntirib bering.

3. Xorijiy investitsiyalarni sug'ortalashning mohiyati nimalardan iborat?

4. Sug'urta kafolatini taqdim etish nimani anglatadi?

5. O'zbekiston Respublikasining sug'urta qonunchiligi nimalarni nazarda tutmaydi?

6. O'zbekiston eksportchilariga sug'urta himoyasini taqdim etish maqsadida qaysi sug'urta kompaniyasi tashkil etildi?

7. Siyosiy xatarlardan sug'ortalash bo'yicha xalqaro tamoyillarga asoslangan holda qaysi sug'urta kompaniyasi tuzilgan?

8. Chet el investorlari uchun zarur moliya-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan chet el investorlarini himoyalash bo'yicha qanday qaror qabul qilingan?

9. Xalqaro kafolatlar qachon va nima uchun qo'llaniladi?

10. Xalqaro kafolatlarning asosiy turlari va ularning mazmunini tushuntirib bering.

11. Investitsiyalarning tavakkalchilik darajasini tushuntirib bering.

## 10-bob. XORIJY INVESTITSIYALARING IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH


### 10.1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasini aniqlash

Iqtisodiyotning investitsiyaga bo'lgan talabi, investitsiya yo'naltiriladigan mablag'larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Chunki qo'yilgan kapital mablag'dan samarali foydalanish natijasida ko'proq foyda olish mumkindir.

Xalqaro kapital harakatning iqtisodiy samarasini ko'rsatish uchun, kapital qo'yilmalardan olinadigan foya turli mamlakatlarda turlicha degan tasavvurdan kelib chiqish zarur. Jahonda ikki mamlakat mavjud deb hisoblaylik. I mamlakat  $AK$  miqdorda, II mamlakat  $AK'$  miqdorda kapitalga ega. Ikkala mamlakatning umumiy kapitali  $KK'$  ga teng.  $S_1$  va  $S_2$  to'g'ri chiziqlar I va II mamlakatlarda qo'yilgan kapital hajmiga bog'liq ravishda ishlab chiqarish hajmini o'sishini aks ettiradi. Agar xalqaro kapital harakati mavjud emas deb faraz qilinsa, I va II mamlakatlar o'z kapital mablag'larni mamlakat ichkarisida sarflab daromad oladi (I mamlakat  $KS$  hajmida, II mamlakat  $K'D$ , aymda). I mamlakatning o'z kapitali yordamida ishlab chiqarish hajmi  $a+b+c+d+e+f$  segmentlarining yig'indisiga teng bo'lib, bulardan kapital egalarining foydasи  $a+f$  ga teng buladi, qolgani esa yer va mehnat kabi boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining foydasidir. II mamlakatning ishlab chiqarish hajmi  $i+j+k$  ga teng bo'lib, bundan kapital egalarining foydasи  $j+k$ , qolgani esa boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining foydasidir.  $KC < K'D$  ekanligi I mamlakatda kapital qo'yishdan olinadigan foya II mamlakatnikidan kam ekanligini anglatadi (10.1.1-chizma).

"I" mamlakat

"II" mamlakat



#### 10.1.1-chizma

Agar ikkala mamlakat kapitalning xalqaro harakatini taqiqlovchi cheklavlarni olib tashlasa I mamlakatdagi kapitalning bir qismi (*AV*) II mamlakatga ko'chadi, chunki investitsiyalardan keladigan foya ikkala mamlakatda turlichadir. Shundan so'ng investitsiyalardan keladigan foya *BR* darajasida balanslashadi. Buning natijasida I mamlakatning o'z kapitali yordamidagi ishlab chiqarish hajmi  $a+b+c+d+e+f+h$  segmentlarining yigindisiga teng bo'lib,  $a+b+c+d$  mahsulotlar ichki investitsiyalar hisobiga,  $h+e+f$  - II mamlakatga qilingan xorijiy investitsiyalar hisobga olingandir. Kapitalni bir qismini II mamlakatga investitsiyalash hisobiga yalpi ishlab chiqarish (yalpi kapital hajmi o'zgarmagan holda) ma'lum bir hajmga ( $h$  segment hajmiga) o'sadi. Bunda kapitaldan olingen daromad ham *KS* dan *KE* darajagacha oshadi. Kapital egalarining daromadi  $a+b+d+e+f+h$  hajmgacha o'sib, boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi  $c$  segment hajmida bo'ladi, xolos.

Boshqa tomondan, kapitalni I mamlakatdan II mamlakatga oqib kelishi unda kapitaldan olinadigan foydani *K'D* hajmidan *K'F* hajmgacha qisqarishiga olib keladi. Shu vaqtning o'zida I mamlakatdan jalb qilingan va o'zining ichki kapitalini ishlatish natijasida II mamlakatda ishlab chiqarish hajmi  $i+j+k$  dan  $i+j+k+g+h+e+f$  gacha kengayadi. Albatta,  $h+e+f$  segmentlar xorijiy kapital hisobiga ishlab chiqarilgan bo'lib, natijada I mamlakat investorlariga foya tariqasida berilish zarur. Shunday qilib II mamlakatda ichki ishlab chiqarishning sof o'sishi  $g$  segmentga teng bo'ladi. II mamlakatda kapital qo'yilishidan olinadigan foya pasayishi natijasida kapital egalarining daromadi  $j+k$  hajmdan  $k$  hajmgacha qisqaradi, boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi esa  $i$  dan  $i+g+j$  hajmgacha o'sadi.

Jahon xo'jaligi miqyosida qaralganda kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oqib o'tishi natijasida yalpi ishlab chiqarish hajmi  $[a+b+c+d+e+f]+[k+j+i]$  dan  $[a+b+c+d]+[e+f+g+h+i+j+k]$  hajmgacha, ya'ni  $g+h$  hajmgacha o'sadi. Bunda  $h$  I mamlakatning kapitalini II mamlakatga investitsiya lab samaralirok foydalanish natijasida yuzaga keladi,  $g$  esa II mamlakatga tegishli bo'lib, shu mamlakatda investitsiyalanadigan kapital hajmini o'sganligi natijasida vujudga keladi.

Shunday qilib, kapitalning xalqaro harakati (tovarlarning xalqaro harakati kabi) ishlab chiqarish omillarini samaraliroq qayta taqsimlash va ulardan foydalanish evaziga yalpi umumjahon ishlab chiqarishni o'sishiga olib keladi. Bunda, kapitalni eksport qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadi o'sadi va boshqa omil (ayniqsa mehnat va yer) egalari daromadi esa qisqaradi. Kapitalni import qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadlari qisqaradi va ishlab chiqarishning boshqa omillari egalarining daromadlari esa o'sadi.

Mamlakatlarning xalqaro kapital migratsiyasi (XKM) jarayonlarida qatnashishi bir qator ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Bularga kapital eksporti (importi) hajmi, kapital eksporti-importi saldosи, mamlakatdagi xorijiy kapitalli korxonalar soni, ularda band bo'lganlar soni va boshqalar kiradi. Saldodan kelib chiqib, jahon xo'jaligi mamlakatlarini quyidagicha guruhash mumkin:

- kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar (Yaponiya, Shveysariya);
- kapitalni import qiluvchi mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya);

- taxminiy muvozanatdagi mamlakatlар (Germaniya, Fransiya).

Boshqa guruh ko'satkichlar esa kapitalni eksport-import qilish darajasiga bog'liq holda mamlakatlarning XKM dagi taqsimlanishini aks ettiradi. Ular quyidagilardir:

1) Kapital importi koeffitsiyenti ( $K_{IK}$ ) - xorijiy kapital (XK)ning mamlakat YalMdagi ulushini aks ettiradi:

$$K_{IK} = \frac{XK}{YalM} \times 100\% \quad (10.1.1.)$$

Yevropa mamlakatlari ichida eng yuqori ko'satkich Belgiya va Lyuksemburgga tegishli.

2) Kapital eksporti koeffitsiyenti ( $K_{EK}$ ) - eksport qilinadigan kapitalni (EK) mamlakat YAIMga nisbatini aks ettiradi:

$$K_{EK} = \frac{EK}{YalM} \times 100\% \quad (10.1.2)$$

Evropa mamlakatlari ichida maksimal ko'satkich Niderlandiyaga tegishli.

3) Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida xorijiy kapital ulushini aks ettiruvchi ko'satkich:

$$K_{EV} = \frac{XK}{D(K)} \times 100\% \quad (10.1.3)$$

bu yerda:  $K_{EV}$  – ehtiyoj koeffitsiyenti, XK – xorijiy kapital, D(K) – mamlakatda kapitalga bo'lgan talab.

AQShning kapitalga bo'lgan ichki ehtiyojlarining 33 % xorijiy kapital hisobiga qondiriladi.

4) Boshqa nisbiy ko'satkichlar – milliy ishlab chiqarishda xorijiy yoki aralash kompaniyalarining ulushi, o'tgan davrga nisbatan kapital eksporti (importi)ni o'sish sur'atlari, mamlakat aholisining har biriga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi va boshqalar.

## 10.2. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorligini baholash usullari

Iqtisodiy samaradorlik -investitsiya uchun qo'yilgan kapitaldan foydalilanligi uchun olingen foyda, daromad tushunilsa, ijtimoiy-iqtisodiy samara esa investitsiya ni ishlatishdan olingen foydadan tashqari, kishilarning hayoti yaxshilanishi, tabiatni saqlash, ilmiy texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi ham tushuniladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda «iqtisodiy samara» va «iqtisodiy samaradorlik» atamalariga e'tibor berish lozimdir.

Iqtisodiy samara - qo'yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingan natijasi bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik esa olingan iqtisodiy samara eki investitsiya natijasida olingan foyda bilan investitsiya miqdori o'tasidagi munosabatni bildiradi.

Iqtisodiy samara bu qo'yilma hisobiga olingan daromaddan qo'yilgan kapital summasi ayirilib topiladi va quyidagicha hisoblanadi:

$$E = D - K \quad (10.2.1.)$$

bu yerda:

$E$  - iqtisodiy samara;

$D$ - qo'yilgan kapitaldan daromad;

$K$ - qo'yilgan kapital summasi.

Iqtisodiy samaradorlik qo'yilgan investitsiyadan olingan foyda, daromadni qo'yilgan kapital summasiga bo'lish orqali topiladi:

$$E_1 = \frac{If}{K} \quad (10.2.2.)$$

bu yerda:

$E_1$  - iqtisodiy samaradorlik;

$If$  - investitsiyadan foyda;

$K$  - qo'yilgan kapital.

Mamlakat iqtisodiyoti miqyosida investitsiyaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi mamalakatda yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdorini mamalakat miqyosida kiritilgan investitsiya miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

$$E = \frac{YaMM}{K} \quad (10.2.3)$$

bu yerda:

$E$  - iqtisodiy samaradorlik;

$YaMM$  -yalpi milliy daromad;

$K$ -  $YaMM$ ni yaratish uchun qo'yilgan kapitalning summasi.

Iqtisodiy samara vaqt funksiyasi hisoblanib, boshlanishida u salbiy ko'rinishda bo'ladi, chunki qo'yilgan kapitaldan hali daromad olinmagan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan kapital qaytmi bo'lgan sari daromad orta boradi va bu ijobjiy natijaga erishiladi, ya'ni qo'yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt o'tgan sari qo'yilgan kapital miqdoridan orta boradi.

Qo'yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt utgan sari qo'yilgan kapitalga tenglashadi. Bu davr investitsiya ni qoplash davri deb ataladi. Bu ko'rsatkich iqtisodni ishlab chiqarish sohasiga qo'yilgan kapital qo'yilmaning samaradorligini

ko'rsatadi. Investitsiya'ni qoplash davri kichik biznes sohasida 2-3 yil, uzoq muddatli qo'yilmalar esa 10-15 yilgacha davom etadi. Kapital qo'yilmalarni qoplash davrining me'yorlari degan tushuncha mavjud bo'lib, bu iqtisodiyot tarmoqlarida qo'yilgan kapital qo'yilmalarni qoplash davrining o'rtacha miqdori deb tushuniladi. O'rta hisobda investitsiya'ni qoplash davri qilib iqtisodiyotda 6-8 yil deb qabul qilingan.

Investitsiyaning milliy daromaddagi hissasi investitsiya normasi deb ataladi. Bu quyidagi formula asosida hisoblanadi;

$$YalN = \frac{YalS}{YalM} \times 100\% \quad (10.2.4.)$$

bu yerda:

$YalN$ - yalpi investitsiya normasi;

$YalS$ - yalpi investitsiya summasi;

$YalM$ - yalpi milliy daromad.

Investitsiyaviy loyihaning (IL) tijorat (moliyaviy) samaradorligi – ushbu IL ni yuzaga keltiruvchi loyihani, uning ishtirokchilari o'z maqsadlari va manfaatlari muvofiqligini aks ettiruvchi kategoriyadir.

Samaradorlik quyidagicha bo'lishi mumkin:

- loyihaning umumiy samaradorligi;
- loyihadagi ishtirok samaradorligi.

Loyihaning umumiy samaradorligi ishtirokchilar uchun ularning manfaatdorligini aniqlash va moliyalashtirish manbalarini izlash maqsadida baholanadi. Samaradorlikning ushbu turi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi;
- loyihaning tijorat samaradorligi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari IL amalga oshirilishining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini hisobga oladi.

Tijorat samaradorligi ko'rsatkichlari esa, ushbu loyihani amalga oshirayotgan ishtirokchi uchun moliyaviy natijalarni hisobga oladi. Bunda ushbu ishtirokchi loyihani amalga oshirish uchun lozim bo'lgan barcha xarajatlarni ko'tarishi va loyiha natijalaridan to'la foydalaniishi ko'zda tutiladi. Umuman olganda, loyiha samaradorligi ko'rsatkichlari texnik, texnologik va tashkiliy loyiha qarorlarini iqtisodiy nuqtai nazardan tavsiflaydi.

Loyihadagi ishtirok samaradorligi IL-ni amalga oshirilishi va barcha ishtirokchilar manfaatdorligini aniqlash maqsadida aniqlanadi.

Loyihadagi ishtirok samaradorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonaning loyihadagi ishtiroki samaradorligi (ishtirokchi-korxonalar uchun IL samaradorligi);
  - korxona aksiyalariga investitsiyalar qo'yish samaradorligi (ishtirokchi-aksiyadorlik korxonalar aksiyadorlari uchun IL samaradorligi);
  - iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari, moliya-sanoat guruhlari, uyushmalar va xolding tuzilmalari uchun – tarmoq samaradorligi;

- IL ning budjet samaradorligi (barcha darajadagi budjetlar xarajat va daromadlari nuqtai nazaridan, loyihada davlat ishtiroki samaradorligi).

IL samaradorligini baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich loyihaning samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu bosqichning maqsadi – loyihami qarorlarning umumlashtirilgan tarzda iqtisodiy baholash va investor izlash uchun zarur bo'lgan qulay sharotlarni yaratishdir. Lokal loyiha halarga nisbatan faqatgina ularning tijorat samaradorligi baholanadi, va u qulay bo'lgan taqdirdagina, baholashning ikkinchi bosqichiga o'tish tavsiya qilinadi.

Baholashning ikkinchi bosqichi, moliyalashtirish sxemasi ishlab chiqilgandan keyingina amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda ishtirokchilar tarkibi, ularning har birini moliyaviy ishtiroki va samardorligi aniqlanadi. (Четыркин Е.М. Методы финансовых и коммерческих расчетов. - М., 1995.)

Sof diskontlangan daromad (SDD) va daromadilikning ichki me'yori (DIM)ni hisoblash uchun investitsiyalardan olinadigan daromadni bo'lish lozim. Bu daromadni topish uchun esa, mahsulot (xizmat) narxini yoki boshqacha qilib aytganda investitsiyaviy qo'yilmalar natijalarining qiymat bahosini bilish lozim. Bundan kelib chiqqan holda, natijaning qiymat bahosi bo'lмаган taqdirda, SDD va DIM ko'rsatkichlari yordamida loyihaning mutlaq samaradorligini aniqlab bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo, masala bunday qo'yilganda ham, SDD va DIM ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin. Gap shundaki, bunda ikki xil variant ko'rib chiqiladi: birinchi (loyiha) va ikkinchi (nollik muqobil) variantlar. Bunday yondashuvda daromad obyektni ekspluatasiya qilish xarajatlarini tejash bilan almashtiriladi, nollik variant bo'yicha investitsiyaviy qo'yilmalar esa, nolga tenglashtiriladi. Nollik variant bo'yicha qo'yilmalar haqiqatan ham nolga teng bo'lgandagina bunday yondashuv to'g'ri bo'ladi. Nollik variantdagi masala yechimini ko'rib chiqaylik. Taqqoslama samaradorlik ko'rsatkichidan foydalanamiz:

$$C_r = \frac{T_1 - T_2}{K_2 - K_1} \quad (10.2.5.)$$

bu yerda:  $T_1$  va  $T_2$  – taqqoslana yotgan variantlar bo'yicha yillik mahsulot tannarxi.

$K_1=0$  ekan, unda taqqoslama samaradorlik ko'rsatkichi  $E_s$  mutlaq samaradorlik ko'rsatkichiga aylanadi va uni rentabellik ( $R$ ) orqali belgilash mumkin, ya'ni:

$$R = \frac{X_1 - T_2}{K_2} \quad (10.2.6)$$

Haqiqatan ham,  $K_1=0$  bo'lsa birinchi variant bo'yicha amortizatsiya ham nolga teng,  $T_2$  esa,  $X_1$ ga teng bo'ladi ( $T_2=X_1$ ). (X-xarajatlar).

Shunday qilib,  $(X_1 - T_2)$  yillik tejashga olib kelayotgan  $K$  ( $K_2, K_1=0$  da) kapital qo'yilmalari amalga oshirilmoqda. Kapital qo'yilmalar samaralimi yoki yo'qmi degan savolga quyidagi ko'rsatkich yordamida javob berish mumkin:

$$X_1 - T_2 > CK \text{ yoki } X_1 - T_2 - CK > 0 \quad (10.2.7.)$$

Haqiqatan ham, agarda rentabellik kattaligini  $S$  bilan taqqoslansa, unda  $K_2$  samaradorligining sharti bo'lib  $R = \frac{(X_1 - T_2)}{K_2} > E$  xizmat qiladi.

Agar obyektning xizmat muddati ( $T$ ) dagi joriy xarajatlar tejamini hisobga olsak, unda loyiha samaradorligi quyidagi tengsizlik bilan aniqlanadi:

$$\frac{(1+C)^T - 1}{(1+C)^T \cdot C} \cdot (X_1 - X_2) - K > 0$$

Obyekt xizmat ko'rsatish muddatidagi SDD:  $CDD^T = \frac{(1+C)^T - 1}{(1+C)^T \cdot C} \cdot (X_1 - X_2) - K$

Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlash uchun o'ttacha yillik sof daromad (annuitet) dan ham foydalanish mumkin. Annuitet yillik tejam kattaligidan kichik bo'lmasa, kapital qo'yilmalar varianti samarali hisoblanadi.

$$(X_1 - X_2) - K > K \frac{C(1+C)^T}{(1+E)^T - 1} \quad (10.2.8.)$$

Loyiha samaradorligi darajasini esa, DIM ko'rsatkichi yordamida aniqlash mumkin.  $SDD^T=0$  dagi daromadlilik DIMdir.

Pul oqimi unsurlarining har xil vaqtida paydo bo'lishi munosabati bilan ularni o'zaro taqqoslash muammosi tug'iladi. Chunki, har xil vaqtida olingan bir xil pul summalarini teng qiymatli deb bo'lmaydi. Biznesning "oltin" qoidasiga muvofiq: bugungi pullar ertaga olinadigan pullardan qimmatliroqdir.

Moliyaviy tahlillarda vaqt omilini hisobga olishga bo'lgan turli yondashuvlar qo'llaniladi. Eng targalgan uslub bu keljakdagi ne'matlardan hozirgisi afzalliroq ekanligining nisbiy darajasini aks ettiruvchi va taqqoslovchi funksiya uslubidir. Amaliyotda, ko'p hollarda ushbu maqsad bilan murakkab foizlar ko'rinishidagi funksiya qo'llaniladi. Bunday yondashuvda pullarning joriy va keljakdagi qiymatlari murakkab foiz formulasini bilan o'zaro bog'langan:

$$S_n = S_0 - (1 + r)^n \quad (10.2.9.)$$

bu yerda:

$S_n$  – pul mablag'larining joriy summasi;

$S_0$  – n ta bir xil vaqt oraliqlaridan keyingi pul mablag'lari summasi (pullarning qo'shilgan summasi);

$r$  – bir vaqt oraliq'idagi daromadlilik stavkasi (foiz stavkasi).

Buning ma'nosini shundaki, agarda  $r$  yillik daromadlilik stavkasiga ega bo'lgan ishga  $S_0$  so'm pul qo'yilsa, unda  $n$ -yildan so'ng biz  $S_n$  so'm pulga egalik qilishimiz mumkin bo'ladi. Va aksincha, joriy vaqtga keltirilgan,  $S_n$  kelajakdagi pul summasining real qiymati, quyidagi formula bo'yicha baholanadi:

$$S_o = S_n \cdot dm_n \quad (10.2.10.)$$

bu yerda:

$dm_n$  – diskont ko'paytiruvchisi;

$r$  – stavkasi bo'yicha,  $n$  davriga tegishli bo'lgan diskont ko'paytiruvchi quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$dm_n = 1/(1+r)^n \quad (10.2.11.)$$

Demak, kelajakdagi daromadlarni joriy vaqt davriga olib kelish jarayoni diskontlash deyiladi, ya'ni, bugungi olingen bir so'm, bir yildan so'ng olinadigan bir so'mdan yanada yuqoriqoq baholanishini aks ettiradi. Buning sababi faqatgina inflatsiya emas, balki daromadlarni ko'paytirishning turli imkoniyatlari mavjudligi va ulardan voz kechish kelajakdagi muayyan pul summasini yo'qotish bilan tengdir.

Diskont me'yorini tanlash investitsiyaviy tahlilning murakkab muammosidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida diskont me'yorini birinchi navbatda korxona pul resurslarini ishlatish bo'yicha muqabil investitsiyaviy imkoniyatlarni aks ettirishi lozim. Diskontlash operatsiyasi investitsiyaviy loyihamar samaradorligini baholashda keng qo'llaniladi, chunki u vaqtning turli davrlariga tegishli daromad va xarajatlarni taqqoslash imkonini beradi.

### 10.3. Investitsiya loyihamarini baholash muammolarini

Hozirda O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab turgan chet clik tashkilotlar vakolatxonalarining biznesga texnikaviy yordam berish va qo'llab-quvvatlash salohiyatidan to'liqroq foydalanish imkoniyatlari mavjud. Masalan, nemis iqtisodiyoti vakolatxonasi zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, uskunalar ishlab chiqaradigan firmalar rekvizitlari bo'yicha axborotlar olish mumkin. Bundan tashqari, katta ekspertlar jamiyatni marketing sohasi, iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish menejmenti buyicha nemis mutaxassislarining bepul maslahatlarini tashkil etadi. GTZ, ICE, TICA va hokazolardagi xuddi shunga uxshash mutaxassislarining moliyaviy va tashkiliy yordamlaridan foydalangan holda chet elda eksport mahsulotini reklama qilish va olg'a siljitishtirish bo'yicha ko'rgazmalar, shuningdek o'quv seminarlari tashkil etish mumkin.

Hozir O'zbekistonda moliya bozori yetarlicha rivojlantmagani sababli, loyihami moliyalash ko'pchilik hollarda bank kreditlashi shaklida amalga oshirilmoqda. Bunda jahonda keng yoyilgan boshqa usullar - qimmatli qog'ozlar chiqarish (o'z kapitali), investitsiya fondlari, bank konsorsiumlari, nafaqa jamg'armalari, lizing kompaniyalari va boshqalardan yetarlicha foydalananmayapti. Qator afzalliklarga, shu jumladan, soliq sohasida imtiyozlarga ega bo'lgan lizing investitsiya loyihamarini moliyalashning keng tarqalgan usullaridan biridir, lekin u hali

yeterlicha rivojlangani yo'q. O'zbekistonda loyihaviy moliyalash korxonalarining, ayniqsa, kichik biznes korxonalarining o'z mablag'lari yetishmasligi, shuningdek tijorat banklari beradigan kreditning narxi amalda barcha turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishdagi uning moliyaviy samarasidan yuqoriroq ekanligi tufayli muammolar paydo bo'lmoxda. Hozirgi paytda investitsiya loyihasi qarz mablag'lari qaytarilishining o'rtacha muddati 5-8 yildir. Eksportga yo'naltirilgan loyihalar ustuvor deb topilganligi sababli, loyihalarning katta qismi raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini beradigan zamonaviy yuqori unumli texnologiyalar va uskunalarini joriy etish yo'li bilan amalg'a oshirilmoxda. O'zbekistonda yangi loyihalarini amalg'a oshirish uchun asosan tijorat banklarining kreditlari jalb etilmoxda. Bunda uskunaning pirovard qiymati uskunaning hisoblab chiqilgan narxi (yetkazib berish va montaj qilishni ham hisobga olgan holda), kredit liniyalarini eksport sug'urta mukofotining qiymati, kredit uchun to'lanadigan foizlar, mahsulot yetkazib beruvchi firmalar xizmatlarining qiymati, investitsiya davridagi foizlar va bank komissiyalarini, shuningdek uskunalarini sug'ortalash qiymatidan tarkib topadi.

Loyihani baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi kompaniya'ning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent bo'ladi. Kompaniya'ning layoqati va barqarorligiga ishonch hosil qilgandan keyingina loyihaning o'zini tahlil qilish va uning moliyalash-to'g'risida qaror qabul qilish mumkin bo'ladi.

Investitsiya kiritish asosida kelajakda foyda olish ko'zda tutiladi. Buning uchun albatta, puxta o'ylab ish tutish lozim. Dastlab investitsiya kiritish loyihasi tuzib olinishi shart. Har qanday loyiha tuzish asosida albatta, bir qancha fikrlar majmuasi, nazariy yoki amaliy tadqiqotlar asosida malakali konstruktchlarni yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratishga undaydi. Bunday fikrlarni albatta, mutaxassislar, olimlar va malakali ishchi xizmatchilar bildirishadi. Fikrlar marketing tadqiqotlarida unumli samara berishi mumkin. Shulardan real fikrlarga ko'prok e'tibor berish lozimki, bu fikrlar quydagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligi;
- foydaning o'sish darajasi;
- mahsulot hajmining ortishi;
- mahsulotning boshqa bozorlarga chiqish imkoniyati;
- mahsulotni turib qolishini kamayishi;
- foydalilanayotgan kapitalning samaradorligi;
- firma imidjining o'sishi.

Bundan ko'rindaniki, har qanday firma yoki korxonaning samaradorligini yuqorida qoldi, omillar yordamida aniqlash mumkin. Har qanday loyihalar ma'lum bir muddatga tuzilib, vaqt o'tishi bilan o'z samarasini yo'qotadi. Investitsiya loyihalarini baholashda yana bir doimiy asosiy o'rinda turadigan vaqtlik omili mavjuddir. Bu omil investitsiya jarayonining lokomotivi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, investitsiyalashtirish va uni moliyalashtirish investoring talabiga muvofiq o'zgarib turishi mumkin.

Investitsiyalashtirishdan oldingi o'rganish jarayonini quydagilarga ajratiladi:

- imkoniyatlarni o'rganib chiqish;
- tayyorlov yoki loyihalashtirishdan oldingi izlanish;

- iqtisodiy-texnik izlanish.

Investitsiyaviy izlanishning oraliq farq darajalari doim shartli belgilanadi. Investitsiyalashtirishdan oldingi kuzatish ishlarni olib borish uchun kapital qo'yilmaning umumiy qiymatidan 0,8 - 5 %ogacha ajratiladi. Investitsiyallashdan oldingi bosqichni muddatini aniq belgilash juda murakkab bo'lib bu loyihalashtirishga bog'liq bo'ladi.

Loyihalarni investitsiyalash jarayoni davomida korxona aktivlari ya'ni, o'z mablag'lari shakllanib boradi. Shu bilan birga boshqa korxonalar bilan mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilib boradi, ishchi xizmatchilarni ishga qabul qilish jarayoni boshlab yuboriladi

Investitsiyadan foydalanish jarayonida loyihaga qo'yilgan investitsiyadan kelgan samaradorlik belgilanadi.

Bu jarayonda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarilgan mahsulotni sertifikatsiyalash;
- broker va diller aloqalarini tashkil qilish;
- loyihani iqtisodiy ko'rsatkichlari monitoringini o'tkazish.

Har qanday investitsiya ni loyihalashtirish ma'lum bir darajadagi bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Shu o'rinda aytish joizki, har qanday investitsiya loyihasini samaradorligini aniqlash uchun bu loyihani qanday fikr asosida tuzilganiga, uning muddatiga, investitsiya miqdoriga va inflatsiya ning darajasiga e'tiborni qaratish lozim. Bu bilan biz investitsiya jarayonida uchraydigan bir qancha muammolarni oldini olgan bo'lamiz.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Iqtisodiyotning investitsiyaga bo'lgan talabi, investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag' larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Chunki qo'yilgan kapital mablag' idan samarali foydalanish natijasida ko'proq foyda olish mumkindir.

2. Xalqaro kapital harakatning iqtisodiy samarasini ko'rsatish uchun, kapital qo'yilmalardan olinadigan foyda turli mamlakatlarda turlicha degan tasavvurdan kelib chiqish zarur. Kapitalning xalqaro harakati (tovarlarning xalqaro harakati kabi) ishlab chiqarish omillarini samaraliroq qayta taqsimlash va ulardan foydalanish evaziga yalpi umumjahon ishlab chiqarishni o'sishiga olib keladi. Bunda, kapitalni eksport qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadi o'sadi va boshqa omil (ayniqsa mehnat va er) egalari daromadi esa qisqaradi. Kapitalni import qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadlari qisqaradi va ishlab chiqarishning boshqa omill egalarining daromadlari esa o'sadi.

3. Iqtisodiy samara vaqt funksiyasi hisoblanib, boshlanishida u salbiy ko'rinishda bo'ladi, chunki qo'yilgan kapitaldan hali daromad olinmagan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan kapital qaytmi bo'lgan sari daromad orta boradi va bu ijobjiy natija beradi, ya'ni qo'yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt o'tgan sari qo'yilgan kapital miqdoridan orta boradi.

4. Loyihani baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi kompaniya ning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent bo'ladi. Kompaniya ning layoqati va

barqarorligiga ishonch hosil qilgandan keyingina loyihaning o'zini tahlil qilish va uning moliyalash to`g'risida qaror qabul qilish mumkin bo`ladi.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Xalqaro kapital harakatning iqtisodiy samarasini tushunchasini yoritib bering.
2. Investitsiyalardan keladigan foyda qanday aniqlanadi?
3. Kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oqib o'tishi qanday omillarga bog'liq?
4. Kapitalning xalqaro harakati ishlab chiqarish omillarini samaraliroq qayta taqsimlash va ulardan foydalanish evaziga qanday natijalarga olib keladi?
5. Mamlakatlarning xalqaro kapital migratsiyasi (XKM) jarayonlarida qatnashishi qaysi ko'satkichlar orqali namoyon bo'ladi?
6. Kapital importi koeffitsiyentini aniqlash formulasini yozing va tushuntirib bering.
7. Kapital eksporti koeffitsiyentini aniqlash formulasini yozing va tushuntirib bering.
8. Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiyligi hajmida xorijiy kapital ulushini aks ettiruvchi ko'satkichning mohiyatini yoritib bering.
9. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va uni baholash usullarini tushuntiring.
10. Investitsiya loyihalarini baholash muammolarini sanab bering.

## **11-bob. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKKA XORIJY INVESTITSIYALARINI JALB ETISH**


### **11.1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati**

O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini barpo etish orqali mustaqil xo'jalik yurituvchi mulk egalari shakllandi. Kichik biznes korxonalari bozor iqtisodiyotiga xos turli makroiqtisodiy shart-sharoitlar va talablariga moslashishi imkoniyatlariiga egaligi bilan ustuvor ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyotining keskin avj olishi natijasida ularning mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot salmog' idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

2009-yilda Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinnarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2009-yilda 50 foizdan oshdi. Holbuki, 2000-yilda bu ko'sratkich 30 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotgani samarasidir (11.1.1-rasm).

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning  
YAIM dagi ulushi, foizda**



**11.1.1-rasm.**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2008-yildagi 13,9 %dan 2009-yilda 16,9 %ga, qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 97,8 dan 97,9 %ga, asosiy kapitalga investitsiyalar

hajmida – 23,1 dan 23,7 %ga, pullik xizmat ko`rsatish hajmida – 48,5 foizdan 48,7 foizga, eksport hajmida – 12,4 dan 14,6 %ga qadar oshdi (1.4.1-jadval).


#### 11.1.1-jadval

#### O`zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyot asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmidagi ulushi, foizda

T/r	Ko`rsatkichlar	2008-yil	2009-yil
1.	Sanoat	13,9	16,9
2.	Qishloq xo`jaligi	97,8	97,9
3.	Qurilish	48,3	41,6
4.	Savdo	48,1	46,5
5.	Asosiy kapitalga investitsiya	23,1	23,7
6.	Pullik xizmat	48,5	48,7
7.	Eksport	12,4	14,6
8.	Import	35,7	42,5

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag`batlantiruvchi rol o`ynayotganligi hisoblanadi. Jumladan, bu borada 2009-yilda kichik sanoat korxonalarini uchun yagona soliq to`lovi 8 dan 7 %ga pasaytirildi, yakka tartibdagisi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o`rtacha 1,3 barobar kamaytirildi (11.1.2-rasm).

#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari



#### 1.4.2-rasm.

Rasmdagi ma'lumotlardan ko`rinadiki, 1996-2010-yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 7 foizgacha, ya`ni 5,4 marta qisqargan. 2009-yilda ham tadbirkorlarning o`z ishini

tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarini qisqartirish ishlari davom ettirildi. Masalan:

- arxitektura-rejalarashtirish topshiriq to`plamlarini olish qiymati – 4 barobar; - loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o`tkazish – 2,5 barobar;
- kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish qiymati – 2 barobarga pasaytirildi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi ruxsat berish jarayonlarining qisqartirilishi va to`lovlarning optimallashtirilishi bilan bog'liq tadbirlar natijalarini quyidagi jadval orqali yaqqolroq ko`rish mumkin (11.1.2-jadval).

#### 1.4.2-jadval

##### Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirilishi va to`lovlarning optimallashtirilishi

Ruxsat berish bilan bog'liq jarayonlar turlari	To`lov miqdori				To`lov miqdorining qisqarishi, foizda	
	Avval amalda bo`lgan		Yangi kiritilgan			
	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so`mда*	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so`mда*		
Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish	5	140200	2	56080	- 60	
Bankda hisobraqamini ochish	1	28040	0,5	14020	- 50	
Arxitekturarejalarashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish	40	1120000	10	280400	- 75	
Yer uchastkasini rasmiylashtirish	-	130000	-	58000	- 56	
Ekologik ekspertiza	25	701400	1	28040	- 96	
Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish	10	280400	3	84120	- 70	
Qurilish davomida nazorat-ijro syomkalari o`tkazish	5	140200	3	84120	- 40	
Normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini o`tkazish	75	2103000	1	28040	- 98,7	
Gigiyenik sertifikatlar olish	10	280 400	3	84 120	- 70	
Jami to`lovlar qiymati (litsenziya va ruxsatnomalarsiz)	-	5037660	-	830960	- 83,5	

\* Izoh. eng kam ish haqi miqdori to`lovlarni qisqartirishga oid me'yoriy hujjatlar qabul qilingan davrga tatbiqan olingan.

Jadvaldan ko'rinadiki, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirish va to'lovlarni optimallashtirish tadbirlari ahamiyatli darajada amalga oshirilgan. Masalan, me'yorlar loyihibalarining ekologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha to'lov miqdori 75 marta, ekologik ekspertiza qiymati 25 marta kamaytirilgan. Buning natijasida har bitta tadbirkorlik subyekti uchun o'z faoliyatini tashkil etishda umumiy holda 4207 ming so'm miqdorgacha mablag'larni tejash imkoniyati paydo bo'ldi.

2009-yil davomida inventarizasiya natijasida aniqlangan qariyb 2 mingta bo'sh bino kichik tadbirkorlik subyektlariga ijara berildi. Bunda binolarni ijara berish tariflari tadbirkorlik subyektlarining qayerda joylashgani va ularning faoliyat turiga qarab 3 barobardan 10 barobarga qadar kamaytirildi. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi imtiyoz va qulayliklar yaratildi:


- mahsulotlarning gigiyenik sertifikatini amal qilish muddati ilgarigi 3 yildan endilikda cheklanmagan muddatga o'tkazildi;
- fitosanitariya xulosalarini berish muddatlari qisqartirildi;
- elektr va issiqlik tarmoqlariga ularish uchun texnik shartlarni bajarish muddatlari 1 oydan 3 kungacha qisqartirildi;
- binolarni turar joydan noturar joy toifasiga o'tkazish jarayoni soddashtirildi;
- davlat mulkidagi bo'sh binolar ijara haqlari 10 va undan ko'p barobargacha tushirilishi natijasida ularning 81 foizi (aniqlangan 3650 tadan 2939 tasi) tadbirkorlik subyektlariga ijara berildi;
- tashqi reklamani joylashtirish tariflari o'rtacha 20 dan 30 foizgacha pasaytirildi hamda ayrim hududlarning qishloq joylarida haq olish bekor qilindi. Buning natijasida tashqi reklama beruvchi tadbirkorlarning ulushi 34 foizgacha oshdi;
- tashqi reklamani joylashtirish qiymati Toshkent, Farg'on'a, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyatlarining qishloq joylari uchun 50 foizgacha pasaytirildi;
- elektr energiyasini oldi-sotti shartnomasida belgilangan hajmga nisbatan kam sarflanishi uchun jarimalar bekor qilindi va ortiqcha sarflash bo'yicha jarimalar 50 foizga qisqartirildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tadbirlari kuchaytirildi. Xususan, 2009-yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 1 trln. 850 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi (11.1.3-rasm).

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo'naltirilayotgan kreditlar miqdori 2001-2009-yillar mobaynida deyarli 11 barobar o'sgan.

Kichik korxonalarni rivojlantirishda bank moliya tizimining o'rmini alohida ta'kidlash lozim. Iqtisodiyotda kichik korxonalarining faoliyat yuritishi yirik korxonalarni ayrim xarajatlardan xolos etib, ko'p hollarda yirik korxonalarda qo'llaniladigan yangi texnika va texnologiyaning kichik korxonalarda qo'llanishida ko'proq samara beradi. Kichik korxonalar jamiyat uchun boshqa korxonalarga nisbatan ko'proq yangi tovarlar yetkazib bera oladi hamda iste'molchilarning talabini kengroq o'rganib, o'z faoliyatini talabga moslashtira oladi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori



**11.1.3-rasm.**

Kichik korxonalarda mehnatni tashkil etish iste'dodli kadrlarning ijodiy faoliyatidan samarali foydalanish bilan birga ularning jamiyatga tanilishiga ham imkoniyat yaratadi. Boshqa korxonalarga nisbatan kichik korxonalarda tajribali mutaxassisilardan foydalanish nihoyatda yuqoridir. Mahalliy xomashyolardan foydalanish, chiqindilar va mehnat salohiyatidan foydalanishda kichik koxonalar uchun imkoniyatlar mavjud. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan talab kapital aylanishining tezlashishi aynan kichik korxonalarda yo'naltirilgan kapitalning o'z-o'zini boshqarayotgan korxonalarga nisbatan uch marotoba yuqoriligi isbotlangan.

Yuqoridagi fikrga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining samarali natijasi sifatida mammakatimizda bandiik, aholi farovonligi ta'minlanmoqda va bu soha makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy iqtisodiy omillardan biri vazifasini bajarmoqda.

### **11.2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya muhitining roli**

Kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mammakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko'rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog'iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta'minlanganligi, mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, shuningdek, mana shu va boshqa omillar bilan bog'liq xatarlar bor yoki yo'qligi g'oyat muhimdir.

Hozirgi davrda mammakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishiga unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma

muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli ta'sir ko'rsatmeqda (11.2.1-jadval).

Jadvaldan ko'rindiki, bugungi kunda mamlakatimiz kichik biznes sohasiga o'ndan ortiq turdag'i 8 mingga yaqin infratuzilma muassasalari xizmat ko'rsatib, faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

#### 11.2.1-jadval

##### O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma obyektlari (2010 yil 1 yanvar holatiga)

T/r	Infratuzilma obyekti nomi	Soni
1.	Tijorat banklari filiallari	1042
2.	Minibanklar	2318
3.	Axborot-maslahat markazlari	262
4.	Konsalting markazlari	327
5.	Auditor firmalari	113
6.	O'quv markazlari	917
7.	Baholash kompaniyalari	138
8.	Tovar xomashyo birjasining saydo maydonchalari	204
9.	Mikrokredit tashkilotlari	32
10.	Kredit uyushmalari	103
11.	Biznes-inkubatorlar	34
12.	Sug'urta tashkilotlari	32
13.	Brokerlik idoralari	1424

Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinalarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda (11.2.2-jadval).

#### 11.2.2-jadval

##### 2009-yilda O'zbekistonda yaratilgan ish o'rirlari

T/r	Ko'rsatkich	Soni, nafar
1.	2009-yilda yaratiladigan jami yangi ish o'rirlari	940532
2.	O'tgan yilga nisbatan, foizda	142,3
3.	Shundan quyidagi asosiy yo'nalishlarda yaratilgan ish o'rirlari:	
4.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida	391809
5.	o'tgan yilga nisbatan, foizda	104,7
6.	Uy mehnatining barcha shakllarini tashkil etish, jami	196745
7.	Shu jundlidan, korxonalar bilan kooperatsiyada (mehnat shartnomasi asosida)	77466
8.	Yangi obyektlarni ishga tushirish, mavjud ishlab chiqrishlarni qayta qurish va kengaytirish	70587
9.	Ish joylarini ko'paytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari (Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar)	281391

Jadvaldan ko`rinadiki, mamlakatimizda 2009-yilda yaratilgan jami 940,5 mingdan ortiq yangi ish o`rinlarining 391,8 mingtasi (41,7 foizi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to`g`ri kelmoqda. Bu o`tgan yildagiga nisbatan 4,7 foizga ko`proq demakdir. Jami yangi ish o`rinlarining deyarli 21 foizi turli shakllardagi uy mehnatini yo`lga qo`yish, 7,5 foizi yangi obyektlarni ishga tushirish, mavjud ishlab chiqarishlarni qayta qurish va kengaytirish, deyarli 30 foizi ish joylarini ko`paytirishning qo`shimcha chora-tadbirlari amalga oshirish hisobiga tashkil etilgan. Buning natijasida, kichik tadbirkorlikda band bo`lganlarning jami iqtisodiyotdagи band bo`lganlarga nisbatan ulushi 2008-yilda 73,1 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2009-yilga kelib 74,2 foizga yetdi.

Bundan ko`rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda.

Xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shuki, uning uchun mintaqaviy omillar qoida tariqasida, investitsiyalar jalb etish jarayoniga ta'siri jihatidan ustunlik qiladi. Investitsiyaviy muhit tahlilini tarmoqlar bo'yicha olib borish zarurligini ko`rsatib o'tish kerak. Chunki, ijobjiy investitsiyaviy omillar turli tarmoqlar uchun o'ziga xos jihatlarga ega. Ba'zi hollarda bir tarmoqda ijobjiy rol o'ynashi mumkin bo`lgan omillar boshqa tarmoq uchun salbiy bo'ladi yoki agar muayyan tarmoq uchun biron-bir ko`rsatkich yetarli darajada namoyon bo`lsa, shu ko`rsatkichning o'zi boshqa tarmoqning muvaffaqiyatlari rivojlanishi uchun mutlaqo kam bo`lishi mumkin.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik uchun tarmoqlar bo'yicha investitsiya muhiti alohida qiziqish tug`diradi. Kichik biznes uchun o'ziga xos ba'zi ko`rsatkichlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi va infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqaviy ko`rsatkichi;
- egallab turgan bozor sektorlari bo'yicha (masalan, xizmatlar yoki savdo sohasida) raqobatlashuvchi yirik firmalarning mavjudligi va rivojlanish darajasi;
- mahalliy bank tizimining rivojlanish darajasi va boshqa omillar.

Kichik korxonalar o'zlariga xos xususiyatlar tufayli investitsiya resurslarini jalb etish uchun xizmat qiladigan ko'p sonli manbalarning ayrimlaridangina foydalana oladilar. Masalan, shuni qayd etish kerakki, kichik tadbirkorlikdagi ichki moliyalash manbalari tadbirkor o'zini o'zi investitsiyalashi uchun beradigan imkoniyatlar yirik firmalarning imkoniyatlari darajasida emas. Shunga qaramay, bu manbalardan kichik tadbirkorlikda foydalanish sezilarli samara berishga qodir bo`lib, jalb etish samaradorligi jihatidan bir qancha afzalliklarga ega. Shunday qilib, investitsiya resurslarini shakllantirishning qulay manbalari sonini ko`paytirish hamda mavjud manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish hozirgi vaqtida, birinchi navbatda, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tuzilmalarining muhim vazifasi bo`lib qolmoqda.

Kichik korxonaning muhim xususiyati shuki, u moddiy shaklda oladigan resurslardan yirik firmalarga qaraganda ancha samarali va moliyaviy resurslarga qaraganda nisbatan samaraliroq foydalanish xususiyatiga ega. Ushbu xususiyatiga

sabab shuki, eng avvalo, kichik korxonani boshqarish tuzilmasi, odatda unchalik konservativ bo`lmaydi. Bu esa moliyaviy mablag`lardan foydalanish uchun salbiy omil, buyum holidagi investitsiyalar uchun esa ijobiy omildir. Moliyaviy investitsiyalarni qidirib topish, jalb etish va ishlab chiqarishga kiritish jarayoni hamma vaqt ancha rasmiylashgan va me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan bo`ladi. Qoida tariqasida yuqori darajali professional moliyachilarga ega bo`lmagan kichik korxona uchun esa bu operatsiya qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli kichik korxonalar moddiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarni kengaytirishdan manfaatdor. Intellektual resurslar (texnologiyalar, "nou-xau", savdo markalari va boshqalar) bundan mustasno, lekin bu sohada ham kichik korxona nazarida tayyor mahsulotni sotib olishi uchun mablag` yetarli emas, balki investitsiyalar sifatida shu tayyor mahsulotning o'zini olish ma'qulroq.

Bozor islohotlarini amalga oshirayotgan bir qator mamlakatlarda moddiy investitsiyalarni jalb etishning turli shakllari orasida lizing, franchayzing va tolingdan juda faol foydalanilmoqda. Buning ustiga, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash organlarining mayjud va ishlab chiqilayotgan dasturiy hamda me'yoriy hujjatlarida mazkur shakllarga katta o'rinn berilmoqda. Moddiy investitsiyalashning turli shakllaridan foydalanish samarasi ko'p jihatdan bunday operatsiyalarda vujudga keladigan munosabatni tartibga soladigan maxsus me'yoriy bazaning rivojlantish darajasi, tegishli bozor infratuzilmasining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Xususiy tadbirkorlikni va bu sohaga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan davlat siyosatini amalga oshirish institusiyyaviy va huquqiy tizimni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bu tizimning samarali ishlashi uning barcha unsurlari bir-birining vazifasini juda kam takrorlagan holda doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lishini hamda faoliyatlarini muvofiglashtirilishini taqozo etadi. 2000-yilda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun kichik biznesni tartibga solishning huquqiy asoslarini rivojlantirish sohasida davlat faoliyati takomillashuviga olib keldi. Shu bilan birga, aytish kerakki, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash rag'batlantiradigan, tanlab qo'llaniladigan bozor mexanizmlarida muvozanat buzilishiga olib kelmaydigan bo'lishi kerak.

### **11.3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'naliishlari qatoridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ham o'rinn olgan. Binobarin, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanshida muhim ahamiyat kasb etayotganligini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.

Tadbirkorlar o'z faoliyatlarini bilan eng muhim, dolzarb muammoni, ya'ni ichki bozorning keng xalq iste'mol mollariga bo'lgan talabini qondirish va ishsizlikni tugatishdek ijtimoiy muammoni yechishga yordamlashadi.

Hozirgi kunda respublikamizda tadbirkorlar yangi ijtimoiy qatlam va sinf

sifatida shakllanmoqda. Respublika Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi va bevosita rahbarligida mamlakatimizda xususiy mulkning rivojlanishi va shu asosda aholi-keng tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kengaytirishga qaratilgan qator farmon hamda hukumat qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2005-2007-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish to'g'risida"gi 2004-yil noyabr Qarorini hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning eksport va import operatsiyalarining qonuniyligini ta'minlash va daromadlarini hisoblashga doir bir qator yangiliklarni o'z ichiga olgan Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan qabul qilingan 2004-yil 11-noyabrdagi "Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorlarning tovar operatsiyalari va daromadlarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarorlari ham xususiy tadbirkorlarga yaratilgan yangi bir yo'nalişdir.

Bundan tashqari, respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qancha chora-tadbirlar, jumladan, 2004-yil may oyidan boshlab asosiy maqsadi - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni doimiy ravishda zamonaliv texnologiyalar va yangi bank xizmatlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan "Bussines Leasing" kompaniyasining faoliyat yuritishi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2004-yil 7-iyulda xususiy tadbirkorlikka kelajakda yanada yaxshi sharoitlar yaratish, biznes muhitini takomillashtirish, respublika tadbirkorlarning xorijiy tadbirkorlar bilan aloqalarini o'rnatish, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozordagi faoliyklarini oshirish, mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni ko'proq, jalb qilish maqsadida O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining tashkil qilinishi kabilar ham mamlakatimizda tadbirkorlikka katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish va uning YAIMdag'i ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyoti talablariga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirish hamda mahsulot eksportini oshirishda:

- xorijiy investitsiyalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;
- davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash;
- xususiy tadbirkorlarning resurslar va sotish bozorlarida ishtirokini kengaytirish;
- moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etishdagi asosiy vazifalar jumlasidandir.

Tadbirkorlik mamlakatning nafaqat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda asosiy bo'g'in, balki aholi bandligi va daromadlari manbaining takomillashuvi hamda milliy farovonlikka erishishning muhim omilidir. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rnlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'limgan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning

ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan.


Kichik biznesni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijasi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- kichik biznesning mamlakatimiz YAIMdagi ulushi 2009-yilda 50,1 %ga yetganligi;
- ish bilan band xodimlar pul daromadlarining 70 %i aynan kichik biznes sohasida shakllanayotganligi;
- kichik biznes korxonalarining mamlakat eksportidagi ulushi 2009-yilda 14,3 %ga yetganligi va h.k.

Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularni kreditlash hajmining oshishi sohani rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. 2009-yilda sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 8 foizdan 7 foizga tushrilishi natijasida 23,6 mlrd. so'm miqdoridagi mablag' mazkur korxonalar ixtiyorida qoldirildi.

Shu yili kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 1 trln. 850 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi (11.3.1-rasm). Bu 2001-yilgiga nisbatan qariyib 11 marta, 2005-yildagiga nisbatan 4 marta ko'p.

### **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlassh uchun ajratilgan kreditlar miqdori, mlrd. so'm**



**11.3.1-rasm.**

Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning 462 mlrd. so'mi «Mikrokreditbank» hissasiga to'g'ri keldi. Soha rivoji uchun shu yili Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki (KfV), XXR

Hukumati va boshqa xorijiy investorlar mablag'lari hisobidan jami 121,8 mln. doll. yoki 2008-yilga nisbatan 1,5 barobarga ortiq kredit resurslari jalb qilindi.

2010-yilda kichik biznesni jadal rivojlantirishni q'llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Masalan, 2009-yilda sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalar uchun yagona soliq stavkasi 7 %ga tushirilgan bo'sha, 2010-yildan e'tiboran 7 %li soliq stavkasi barcha kichik biznes korxonalar uchun joriy etildi.

Qaysi tarmoqda faoliyat yuritishlariga bog'liq ravishda kichik biznes subyektlari quyidagi soliq imtiyozlardan foydalaniishlari mumkin:

- 2014-yil 1-yanvargacha yangidan tashkil etilayotgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari soliqlarning barcha turlaridan va ayrim majburiy ajratmalarini to'lashdan ozod qilingan;

- 2012-yilning 1-yanvarigacha go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovi stavkasi 50 %ga kamaytirildi va ularning chetdan olib kelinadigan texnologiya uskunalarini bojxona to'lovlaridan ozod qilingan;

- 2012-yil 1-yanvargacha 15 xildagi nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mikrofirmalar va kichik korxonalar foyda solig'i va mulk solig'i, yagona soliq to'lovleri va Respublika yo'llamg' armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan, shuningdek ishlab chiqarishda foydalilaniladigan uskunalarini import qilishda bojxona to'lovlaridan ozod qilingan.

Kichik biznesni rivojlantirish borasida yaratilgan qulay shart-sharoitlar sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi, aholini ish bilan bandliligi va daromadlarining o'sishidagi roli yanada kuchayishi hamda YalM, eksport va tarmoqlar hamda sohalarning ishlab chiqarish ko'sratkichlaridagi ulushi ortib borishiga xizmat qiladi.

#### **11.4. Kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirish**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarining ustuvor yo'naliishlaridan biri kichik biznes xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Xalqaro andozalar talablariga mos ravishda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun kichik biznes subyektlariga rivojlangan xorij davlatlarining ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun kichik biznes subyektlariga rivojlangan xorij davlatlarining ishlab chiqarish texnologiyalari zarur bo'ladi, lekin bunday ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish istagi bo'lgan kichik biznes subyektlarining barchasi ham o'z mablag'lari hisobidan bu ishni amalga oshira olmaydi. Bunda kichik biznes subyektlarining yaxshi investitsion loyihalari xorijiy kredit liniyalari va banklar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda xorijiy kredit liniyalari mablag'lari banklar orqali real sektorga jalb qilish hisobiga kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ular negizida moliyaviy jihatdan baquvvat ko'p tarmoqli yiroik ishlab chiqarish korxonalar shakllanishi ko'zda tutildi.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar tadbirkorlik subyektlariga eksportga mo'ljalangan va import o'mini bosuvchi mahsulotlar ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa milliy xomashyo resurslarini qayta ishlashni mashinasozlik va

elektronika sanoati uchun detallar va uzellar hamda kundalik ehtiyoji xalq iste'moli tovarlarini nazarda tutadigan investitsion loyihalarga o'rta va uzoq muddatga beriladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki "Agrobank", "O'zsanotqurilishbank", "Asakabank", "Ipoteka bank", "Ipak Yo'li banki", va "Hamkorbank" tomonida kichik va o'rta biznes subyektlarining investisiya loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy kredit liniyalari jalb qilingan.

Shu sohada erishilayotgan yutuqlarimizdan tashqari ayrim muammolarga ham duch kelinmoqda.

Tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan texnik-iqtisodiy asosnomalar (TIA)larning yaxshi ishlamaganligi xorijiy kredit liniyalari o'zlashtirilishining kechikishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Aksariyat hollarda taqdim etilgan TIA'larda sotib olinadigan xomashyolar narxlarining kamaytirilib ko'rstilishi sotib olinadigan texnologik uskunalar hamda sotiladigan mahsulotlar narxlarining real narxlarga nisbatan oshirib ko'rsatilishi TIA'larning qayta tayyorlashiga va tadbirkorlikning ortiqcha vaqt sarflashiga sabab bo'lmoqda.

Chet el kreditlari o'z vaqtida o'zlashtirilmastigining yana bir sababi kredit berilishida asosiy shartlardan biri bo'lgan kredit ta'minotining yetishmasligidir. Investitsiya loyihalari ma'qullagan tadbirkorlik subyektlarining 40-50 foizi belgilangan miqdordagi yoki likvidli ta'minot taqdim etilmaganligi sababli moliyalashtirish kechikmoqda.

Hozirgi kunda ushbu muammolarning yechimini topishga ayrim omillar ya'ni:

- ko'chmas mulk bozorining (ishlab chiqarish tavsifidagi) rivojlanmaganligi;

- qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli rivojlanmaganligi;

- kafil bo'la oladigan moliyaviy barqaror korxonalarining kamliqi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kichik biznes subyektlarining kredit olishda ta'minotining yetishmasligi muammo faqat bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda emas, balki rivojlangan AQSh, Yaponiya va Yevropa davlatlarida ham mavjud. Ushbu davlatlarda bu muammo Davlat kafolat fondi orqali tijorat banklari kreditlarining 50-80 foizgacha miqdordagi kafillilik berish orqali o'z yechimini topadi. Ushbu muammoning dolzarbligini inobatga olib kredit berilishida ta'minotning yetishmasligi muammosini hal etish maqsadida, kichik va xususiy tadbirokrlikni rivotantirishni rag'batlantirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashning 2003-yil 25-iyundagi yig'ilishida moliya vazirligi va boshqa mutasaddi vazirliklarga kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat fondini tuzish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Davlat kafolat fondini tashkil etishdan asosiy maqsad, kredit olishda ta'minoti bo'lmasan yoki qisman bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga kafolat beradigan moliyaviy institutni vujudga keltirishdir.

Ushbu fond bank depozitiga qo'yiladigan kafolat kapitaliga ega bo'lib, qarzdor kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga noqobil bo'lib qolgan taqdirda, uni to'lash manbai bo'lib xizmat qiladi. Jamg'arma tomonidan kafolat bo'yicha majburiyatlar bajarilgandan keyin, unga qarzdordan kafolat bo'yicha bankka to'langan suminani olish huquqi o'tadi.

Tadbirkorlik subyektlarining kafolat fondiga yoki fond bilan hamkorlik qilayotgan bankka taqdim qilgan arizasi unga kafolat berishga asos bo'lib xizmat

qiladi. Kafolatlar faqatgina asosiy qarz bo'yicha va to'lov asosida beriladi. Tashkil etiladigan fond, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat hududlari va tarmoqlarida kapital qo'yilmalarini taqsimlaydigan instrument bo'lib xizmat qiladi. Fond ushbu vazifani milliy iqtisodiyot yoki ma'lum bir hudud rivojlanishi dasturi va konsesiyasiga mos tushadigan investitsiyalarning qaytishi uchun kafolat berish yo'li bilan bajaradi. Davlat kafolatlari odatda, investorlar tomonidan har tomonlama ishonchli vosita sifatida tan olinadi. Fond tomonidan 100 foizli kafolatlarning taqdim qilinishi mumkin emas. Sababi, bunday holat qarzdorlar faoliyatining noratsional qilib qo'yadi, ya'ni kreditorlar tavakkalchilikni jiddiy tahlil qilmasligi va investitsiyaning o'zini oqlash darajasini hisobga olmasligi mumkin. Shuning uchun qarz oluvchi to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganda fond tomonidan investitsiyaning o'rtacha 50 %idan oshmagan miqdorda kafolat berish tartibini o'matish maqsadida muvoffaq bo'ladi. Milliy iqtisod manfaatlari nuqtai nazaridan muhimroq hisoblangan investitsiyalar uchun mazkur me'yor oshirilishi, muhimlik darajasi pastroq bo'lgan loyihibar uchun kamaytirilishi mumkin.

Kreditlarii kafolatlash nafaqat qarzdorni turli moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladi, u hattoki butun tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining muhim instrumenti sifatida ham xizmat qiladi. Chunki, davlat kafolat jarayonida ishtiroy etib kreditorlar bilan birqalikda tavakkalchilikni o'zaro o'rtada taqsimlagan holda kredit mablag'larini jalb qilishni tezlashtiradi.

Xorijda kafolatlash tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning eng ommaviy shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi va davlat kafolat fondlarining asosiy ta'sischisi sifatida qatnashadi.

Hozirgi kunda AQSh Kichik biznes Ma'muriyati (The Small Business Administration), Kanada kichik biznes kreditlari to'g'risidagi qonuni tizimi (SBLA), Buyuk Britaniyadagi Kredit kafolati tizimi (LGS) faoliyat yuritishmoqda. Kafolatlash tizimi 1994-yildan boshlab Germaniya, Belgiya, Ispaniya, Fransiya va Italiya davlatlarida ham o'z faoliyatini amalg'a oshira boshladi. Janubi-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlarda, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya va Indoneziya davlatlarida mazkur amaliyot 30 yildan ortiq davr mobaynida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Misol uchun, Yaponiyada mazkur tizim 1947-yildan, Janubiy Koreyada 1971-yildan, Malayziyada 1971-yildan va Indoneziyada 1972-yildan boshlab davlat kafolat tizimi amal qila boshlagan.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash Davlat kafolat fondining boshlang'ich mablag'ini esa quyidagi mablag'lar, ya'ni:

- davlat mulkini xususiy lashtirishdan tushgan tushumlar;
- davlatning boshqa likvidli aktivlari (aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat aksiyalari);
- jamg'arma faoliyatining daromadlari;
- homiylik ajratmalari hisobiga shakllantirish mumkin.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, kichik biznes subyektlariga kreditlar berilishida ta'minotning yetishmaslik muammosini hal etish maqsadida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash Davlat kafolat fondini tuzish maqsadga muvofiqdir

Bu esa mamlakatimizga jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar miqdorining

ortishiga va ularning o'zlashtirilishining tezlashishiga olib keladi. Natijada banklarimiz bilan xorijiy kredit muassasalari o'tasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari yanada samarali bo'ladi hamda mahalliy xomashyolar negizida ishlab chiqarilayotgan import o'rmini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tovarlar hajmi ortadi va ko'plab yangi ishchi o'rnlari yaratiladi.

### **11.5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar va ularning mohiyati**

Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida «2009-yilda xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirish – ustuvor vazifa bo'lib qoladi», deb belgilab berdilar.

2009-yilda kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash vazifasi har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kichik biznes yangi-yangi ish o'rnlarini yaratib, bizning sharoitimizda ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

Shu sababli Inqirozga qarshi choralar dasturida kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institusional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Jumladan, yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Imtiyozli kredit jamg'armasining resurs bazasini ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Buning natijasida kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar miqdori yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda.

Shu bilan birga, berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati uzaytirildi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarning eng uzoq muddati 12 oydan 18 oyga oshirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan xomashyo va resurslardan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari amalgalashirildi. Jumladan, birja savdolari orqali sotiladigan yuqori likvidli, monopol mahsulotlar turlari ko'rsatkichlari 136 tadan 195 tagacha ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 4-martdag'i 36-sonli «Mahsulotlarning monopol turlarini mavsumiy talabini hisobga olgan holda birja savdolariga qo'yish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga monopol mahsulotlarni birja savdolariga majburiy qo'ydirish bo'yicha vakolat hamda yuqori likvidli tovarlar moddiy balanslariga tegishli o'zgartirish kiritish bo'yicha imkoniyat berildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining birja savdolarida ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida birja xizmatining komission xarajatlari

<sup>1</sup> Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yuzunlari va 2009-yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkaması majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2009-yil 14-fevral

o'rtacha 25 %gacha pasaytirildi va birja savdolarida qatnashish uchun to'lanadigan garov puli 10 %gacha oshirildi.

Tadbirkorlar uchun yengillik yaratish maqsadida quyidagi to'lovlar miqdorini kamaytirish bo'yicha hujjatlar loyihasi ishlab chiqildi:

- arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini (ART) ishlab chiqishga ketadigan to'lovlar – 2 martagacha;

- ekologik ekspertizadan o'tkazish to'lovları – 20 foizdan 90 foizgacha;

- turar joylarni noturar joy toifasiga o'tkazish xarajatlari – 9 martagacha;

- loyihalash hujjatlarini ekspertiza qilish xarajatlari – 2 martagacha.

Shuningdek, bankda hisob raqami ochish va yopish uchun olinadigan to'lovlar umuman bekor qilindi.

### **Qisqacha xulosalar**

O'zbekiston sharoitida kichik biznes korxonalarini barpo etish orqali mustaqil xo'jalik yurituvchi mulk egalari shakllandi. Biznesning boshqa tashkiliy-iqtisodiy shakllaridan farqli ravishda mazkur kichik korxonalarini tashabusskor ishbilarmon shaxslar boshqarib, turli byurokratik elementlarning xo'jalik faoliyatiga aralashuvidan xolos etadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyotining keskin avj olishi natijasida ularning mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot salmog'idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mamlakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko'rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog'iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta'minlanganligi, mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlantishdarasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, shuningdek mana shu va boshqa omillar bilan bog'liq xatarlar bor yoki yo'qligi g'oyat muhimdir.

Xususiy tadbirkorlikni va bu sohaga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan davlat siyosatini amalga oshirish institusiyyaviy va huquqiy tizimni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bu tizimning samarali ishlashi uning barcha unsurlari bir-birining vazifasini juda kam takrorlagan holda doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lishini hamda faoliyatlarini muvofiqlashtirilishini taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda xorijiy kredit liniyalari mablag'larini banklar orqali real sektorga jalb qilish hisobiga kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ular negizida moliyaviy jihatidan baquvvat ko'p tarmoqli yiroik ishlab chiqarish korxonalarini shakllanishi ko'zda tutiladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatini tushuntirib bering.

2. Iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillari qaysilar?

3. Kichik korxonalarini rivojlantirishda bank moliya tizimining o'rni qanday?
4. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasi nimalarga bog'liq?
5. Xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati investitsiyalar jalb etish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
6. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar tadbirkorlik subyektlariga asosan qanday maqsadlarda beriladi?
7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar va ularning mohiyati nimalardan iborat?
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining birja savdolarida ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirildi?

## IZOHLI LUG'AT

**Aylanma mablag'lar** – korxona mablag'larining bir ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilinuvchi qismi bo'lib, o'z ichiga xomashyo, material, yoqilg'i, energiya, ehtiyoj qismlari kabilarni oladi.

**Aholini ijtimoiy muhofaza qilish** – bu, biz aholiga davlat tomonidan yashash uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yo'naltirilgan kafolatlar tizimidir.

**Aholining real daromadlari** – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

**Bandlik** – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

**Bank aktivlari** – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valuta boyliklari ko'rinishida bo'ladi.

**Bank depozitlari** – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'ları.

**Bank kapitalining yetarlilik darajasi** – bu jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo'lib, u xalqaro Bazel kelishuviga ko'ra kamida 8 %ni tashkil etishi kerak.

**Bank tizimining likvidligi** – bankning o'z majburiyatlarini vaqtida va so'zsiz bajara olish imkoniyati.

**Banklar likvidligi** – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birlgilikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

**Bankrot** – qarzdorlik nochorlik, tadbirkorning o'z qarz majburiyatları bo'yicha mablag'i bo'lmaganligi uchun to'lashdan bosh tortishi.

**Barqarorlik** – narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalaydi.

**Biznes** – ingilizcha so'z bo'lib, foya olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

**Bozor konyunkturasi** – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tafsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilari orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

**Davlat budjeti** – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejası.

**Daromad solig'i** – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

**Daromad solig'i stavkalari** – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

**Defisit** – budjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

**Diversifikasiya** – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko`paytirish.

**Divident** – aksioner jamiyati sof foydasining bir qismi, aksionerlarga daromadlar naqd pul yoki aksiyalar bilan to`lanadi.

**Jahon banki** – 1944-yilda Xalqaro valuta jamg`armasi bilan bir vaqtida tuzilgan bиринчи давлатлараро инвеститсиya institutidir. Bank o`zining faoliyatini 1946-yil 25-iyundan boshlagan.

**Jahon bozori konyunkturasi** – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o`zgarish tendensiyalari.

**Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi** – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtiroy etish, jahon bozoridagi o`z o`rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo`lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

**Iqtisodiyotning real sektori** – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne`matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatish bilan bog`liq sohasi bo`lib, u o`z ichiga sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

**Iqtisodiy o'sish** – real yalpi ichki mahsulotning umumiylajmining yoki aholi jon boshiga to`g`ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o'sishi.

**Import** – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtini tejashta, xalq xo`jaligi, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko`maklashadi.

**Investitsion kreditlar** – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo`lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

**Investitsion loyiha dasturi**, O`zbekiston Republikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo`yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatini maqsadga muvofiqligini asoslovchi va shuningdek investitsiyalarni (biznes reja) amalga oshirish bo`yicha amaliy faoliyatning dasturdir

**Investitsion siyosat** – savdo menenjimenti umumiylari strategiyasining bir qismi bo`lib, korxona rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo`llarini tiklashni nazarda tutadi.

**Investitsion soliq krediti** – investorga soliq majburiyati bo`yicha soliq qonunchiligidagi muvofiq soliq to`lash muddatini o`zgartirish imkoniyati.

**Investitsion hamkorlik** - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko`rinishi bo`lib, resurslarini oqilona taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroy etish

natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

**Investitsiya** iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

**Investitsiya dasturi** -- ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuasi.

**Investitsiya kompleksi** - investitsiya faoliyatini ta'minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi.

**Investitsiya muhiti** – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

**Investitsiya faoliyi** - investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya majmuasi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

**Investitsiya faoliyati ishtirokchilar** - buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalar, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilar) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin.

**Investorlar** - xususiy va qarzga olingen mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va xaridorlar rolini bajarishlari, shuningdek investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishlari mumkin.

**Inqiroza qarshi mo'ljallangan choralar dasturi** – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012-yillarga mo'ljallanib inqiroza qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topgan.

**Innovatsion texnologiyalar** – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

**Inflatsiya** – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.

**Inflatsiya darajasi** – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) baholar darajasining foizdag'i o'zgarishi.

**Infratuzilma** -- tovar ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo'llar, aloqa, transport, maorif, sog'lioni saqlash.

**Iste'mol** -- ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi davri, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

**Iste'mol krediti** -- markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati vositasi (instrumenti). U banklar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan ichki kreditning maksimal miqdori rasmiy ravishda belgilanishini taqozo etadi.

**Iste'mol tovarlari** -- inson ehtiyojini qondirishga mo'ljalangan iste'mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste'mol qilinadigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlar.

**Ish bilan band bo'lgan jami aholi** -- ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi.

**Ish haqi** -- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

**Ishlab chiqarish** -- ma'lum davrda alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mol va xizmatlar qiymati.

**Ishlab chiqarish infratuzilmasi** -- ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

**Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash** -- ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarini chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarakatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

**Ihsizlik** -- iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay "ortiqcha" bo'lib, mehnat zahirasi armiyasi bo'lib qolish hodisasi.

**Kapital qurilish** - yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, obyektlar va vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarni bajarish.

**Kapital qo'yilmalar** - quvvatlarni takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurishga qaratilgan resurslar va jami ijtimoiy mehnatning qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya. Davlat tomonidan (davlat buyurtmasi), turli mulkchilik shakli darajasi korxonalar, tashkilotlar, banklar hamda xususiy shaxslar tomonidan ajratiladigan pul mablag'lari kapital qo'yilmalarning

manbalari bo'lishi mumkin. Kapital qo'yilmalar yangi korxonalar qurishga yoki amaldagi korxonalarni qayta ta'mirlashga yo'naltirilishi mumkin.

**Kapital xarajatlar** - asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar va zahiralarni o'sishi.

**Kasanachilik** – yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish.

**Kichik biznes subyektlari** – korxona ko'lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lar miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsuzlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

**Kichik korxonalar** – mustaqil xo'jalik faoliyatini olib boruvchi, o'z balansiga bo'lgan, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan foydasini o'zi taqsimlaydigan korxona.

**Konyunktura** bozorda ma'lum bir vaqtida yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

**Kooperatsiya aloqalari** – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum maxsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

**Korxonalarga preferensiya berish** – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiradigan xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek asbob-uskulalarni olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha yengilliklar (imtiyozlar) berilishi.

**Korxonalarni texnik qayta qurollantirish** – alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaliv talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatishtirish, eskirgan qurilma va uskulalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

**Korxonaning innovatsiya salohiyati** – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlaniш qobiliyati. Korxonaning innovasiya salohiyati tashkilotning ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarining (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

**Kredit** – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larlarini bir joyga jamlab, ularni ma'lum bir tamoyillar asosida berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

**Kutilayotgan inflatsiya darajasi** – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida a'lovida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflatsiya darajasi.

**Qo'shimcha qiymat solig'i** – qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliqlarning bir turi hisoblanadi. Tovarlarning realizasiysi, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlarni bajarishdan olinadi. Sotish aylanmasiga nisbatan mahsulotlarning turlariga ko'ra foizlarda belgilanadi.

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar** – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsiziik, inflatsiya darajasi va boshqalar.

**Marketing** – so'zi o'zbek tilida ham tarjimasiz ishlatalidi, u nafaqat falsafa, fikrlash tarzi va iqtisodiy tafakkur yo'naliishigina emas, balki ayrim firma, kompaniya, tarmoq va butun iqtisodiyot bo'yicha amaliyat faoliyatini qamrab oladi. AQSH va boshqa xorijiy davlatlar iqtisodiy adabiyotlarida marketingga turlicha ta'rif berilgan. Ular orasida eng keng tarqalgani quyidagi mazmundagi tarifdir: "Marketing Shunday jarayonki – uning yordamida o'yangan g'oya rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, narxlar shakllantiriladi, g'oyalar, tovarlar va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha harakatlar yo'lga qo'yiladi, ayrim shaxslar va tashkilotlarning ehtiyojlari ayirboshlash yordamida qondiriladi".

**Mikrokredit** – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoya'ni shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokreditlar: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati uchun – eng kam ish haqining 50 barobarigacha; b) mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; v) fermcer xo'jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

**Modernizatsiya** – (grekchadan moderne - yangicha) – obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

**Moliyaviy munosabatlardan** – moliyaviy munosabatlardan turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

**Moliyaviy institutlar** – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

**Moliyaviy manbalar** – iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag'larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarning manbalari, davlat budjeti mablag'lari, qarzga olingan mablag'lari, xorijiy investorlarning mablag'lari va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

**"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasasi** – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaqiy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalg' etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 3-dekabrdagi "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish

to`g`risida"gi qarori asosida tashkil etilgan. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiyo`nalishi – zamonaliviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko`lamda ishlab chiqarishdan iborat.

**Narx** (bahó) – tovar qiymatining puldagi ifodasi (shakli).

**Preferensiya** – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

**Proteksionizm** – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman ta`qiqlanadi.

**Pul - kredit siyosati** – bu davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalgalashiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

**Pul** – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiyligida ekvivalent sifatida foydalilanadigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

**Rekonstruksiya** (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani ma`naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo`g`inlar va yordamchi xizmatdagi nomutancibliklarni yo`qotish yo`li bilan almashtirish yordamida to`liq yoki qisman o`zgartirish. Qayta tiklashda eski sexlar o`rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

**Rentabellik** – korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko`rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelli, xususiy kapital rentabelli va sotilgan mahsulot rentabelli. Bu ko`rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko`rsatkichini korxona aktivlarining o`rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbatli bilan aniqlanadi.

**Saldo** - muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosi), xorijiy to`lovlari va tushumlar (to`lov balansi saldosi) o`rtasidagi farq.

**Samarali iqtisodiy siyosat** – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o`zaro uyg`unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.

**Sektor** – institusion birliklar yig`indisi bo`lib, ularning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va funksiyalari bir xil bo`ladi, natijada ularning iqtisodiy huquqi ham o`xshashib ketadi.

**Soliq imtiyozi** – soliq to`lovchilariga ayrim toifalariga qonun hujjalarda belgilangan tartibda soliq to`lashdan to`liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

**Soliq stavkasi** – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to`g`ri keladigan soliq me`yorini ifodalaydi.

**Soliq yuki** – soliq to`lovchining muayyan davrda budjetga to`langan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning yig`indisini ifodalaydi.

**Soliq yukini yengillashtirish** – soliqlarning foiz stavkalarini kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

**Soliqlar** – bular majburiy, qaytarilmaydigan to`lovlar. Ular davlat organlari tomonidan ishlab chiqarish birliklaridan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalganlari uchun olinadi.

**Tannarx** – mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan barcha xarajatlarning qiymati.

**Tarkibiy o`zgarishlar** – milliy iqtisodiyotning samarali va barqaror tarkibiy tuzilishini ta'minlash maqsadida uning tarmoq va sohalarini izchil ravishda o`zgartirib borish. Tarkibiy o`zgarishlar o`z ichiga yangi tarmoqlarni barpo etish, ba`zilarini kengaytirish, ayrim samarasiz, istiqbolga ega bo`lmagan tarmoqlarni qisqartirish kabi chora-tadbirlarni oladi.

**Tashqi qarz** – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag`larining janii hajmi.

**Tashqi savdo** – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

**Tashqi savdo siyosati** – Bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko`zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

**Tijorat banklari** – sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlash, shuningdek xususiy mijozlarga turli turdag`i bank xizmatlarini ko`rsatishga ixtisoslashgan banklar.

**Turmush darajasi**, aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne`matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasidir.

**To`g`ridan** – **to`g`ri investitsiyalar** – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo`yilmalar kiritish. To`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

**To`lov balansi** – bu xalqaro operatsiyalarning balans hisob varag`idir, ya`ni tovarlar, xizmatlar, kapitallar olib kirish va olib chiqish ko`rsatkichlari nisbati shaklidagi xalqaro xo`jalik tarmoqlari kompleksining qiymat ifodasi.

**Foud bozori** – qimmatli qog`ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

**Xizmat ko`rsatish sohasi** – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko`rinishiga ega bo`lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo`naltirilgan sohalari. U o`z ichiga moddiy xizmatlar ko`rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko`rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o`qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

**Kususiy tadbirkorlik** fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o`zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo`jalik faoliyatidir.

**Eksport** – tashqi bozorda sotish uchun tovar-pullarni chet elga chiqarish.

**Emissiya** – qog'oz pullarning g'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagipul belgilarini muomalaga chiqarish.

**Yagona soliq to'lovi** – kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli soliq va yig'implar o'rniiga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi soliq turi.

**Yalpi ichki mahsulot** – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so`zi, 2010-yil 30-yanvar.

2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so`zi, 2010-yil 28-yanvar.

3. O'zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi. //Xalq so`zi, 2009-yil 6-dekabr.

4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

5. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasи majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so`zi, 2009-yil 14-fevral.

6. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.

7. O'zbekiston Respublikasining "Chet elliq investitsiyalari to`g`risida"gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.

8. O'zbekiston Respublikasining "Chet elliq investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to`g`risida"gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to`g`risidagi Qarori. 2010- yil 27- yanvar.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi Investitsiya dasturi to`g`risida"gi Qarori. 2009- yil 28-oktyabr.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2008- yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida"gi Qarori. 2009-yil 13-fevral.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi Qarori. //Soliqlar va bojxona xabarlari, 2003-yil 16-may.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmoni. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2005-yil 11-aprel.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoyishi. 2008-yil 19-noyabr, F-4010-son.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2008-yil 18-noyabr, PF-4053-son.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
19. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo'lida. -T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b.
20. Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shamshieva N.N. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari. Ilmiy-ommabop qo'llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2009. – 92 b.
21. Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G'afurov U.V. va Ne'matov I.U. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo'lida. Ekspress-prospekt. -T.: Iqtisodiyot, 2009. – 5 b.
22. Боди, Зви, Кейн, Алекс, Маркус, Алан. Принципы инвестиций, 4-е издание. /Пер. с англ. "Вильямс", 2008. - 984 с .
23. Дамодаран А. Инвестиционная оценка: Инструменты и методы оценки любых активов. /Пер. с англ. - 4-е изд.-М.:Альпина Бизнес Букс, 2007. - 1340 с.
24. Андрианов А.Ю., Валдайцев С.В., Воробьев П.В. и др. Инвестиции: Учебник. -2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. - 584с.
25. Шарп У., Александр Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М. ИНФРА-М, 2007. -1028 с.
26. Смитиенко Б.М., Поспелов В.К. Карпова С.В. и др. Внешнеэкономическая деятельность: Учебник. Под ред. Б.М. Смитиенко, В.К. Поспелова. - 4-е изд., перераб. и доп.- М.: «Академия», 2007. - 304 с.
27. Расулов Н.Н. Стимулирование привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. -Т.: «ФАН», 2003.-165 с.
28. Игошин Н.В. Инвестиции, организация, управление, финансирование: Учебник. -3-е изд. -М.: «ЮНИТИ- ДАНА», 2005.- 448 с.
29. Дегтярёв О.И. Внешнеэкономическая деятельность: Учебное пособие. /Дегтярёва О.И., Полянова Т.Н., Саркисов С.В. –М.: Дело, 2005. – 325 с.

30. Диценко Н.И. Основы внешнеэкономической деятельности в РФ. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2004. – 286 с.

31. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 1-qism. /Bekmurodov A., Boltabaev M., G'oyibnazarov B., Amanbaev M., Toshxo'jaev M. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. – T.: TDIU, 2005.

32. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 2-qism. /Bekmurodov A., Hakimov R., Safarov B., Zaxidov G. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakati. – T.: TDIU, 2005.

33. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 3-qism. /Bekmurodov A.Sh., Sattorov S., To'raev J., Soliev K., Ro'ziev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. - T.: TDIU, 2005.

34. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 4-qism. /Bekmurodov A., Tojiev R., Qurbonov X., Alimardonov M. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. – T.: TDIU, 2005.

35. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 5-qism. /Bekmurodov A., Tairov SH., Maxmudov E., Isakov M., To'raev N. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. – T.: TDIU, 2005.

36. "Qo'shma korxonalarni tashkil etishga investitsiyalarni kiritishning ustuvor yo'nalishlari va vazifalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2008.

37. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha statistik to'plamlari

38. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti

39. [www.uzinfoinvest.uz](http://www.uzinfoinvest.uz) - «O'zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.

## ОГЛАВЛЕНИЕ

	<b>Введение</b>	<b>6</b>
Глава 1	Понятие об иностранных инвестициях и их значение.....	8
1.1.	Понятие об инвестициях.....	8
1.2.	Государственное регулирование инвестиционных отношений.....	10
1.3.	Иностранные инвестиции и причины их привлечения.....	13
1.4.	Роль иностранных инвестиций в развитии экономики Узбекистана.....	15
1.5.	Источники финансирования инвестиционной деятельности.....	17
Глава 2	Формы и виды иностранных инвестиций.....	20
2.1.	Виды иностранных инвестиций.....	20
2.2.	Объекты и субъекты правовых отношений инвестиционной деятельности..	25
2.3.	Прямые и портфельные инвестиции.....	27
Глава 3	Инвестиционные процессы в условиях глобализации и экономических интеграций.....	31
3.1.	Значение иностранных инвестиций в глобализации мировой экономики.....	31
3.2.	Разработка и внедрение инвестиционных проектов в рамках механизма Чистого развития Киотского Протокола.....	32
3.3.	Разработка инвестиционных проектов в Республике Узбекистан.....	35
3.4.	Экспорт и импорт инвестиций.....	40
Глава 4	Особенности правового положения иностранных инвесторов.....	45
4.1.	Права иностранных инвесторов в Республике Узбекистан.....	45
4.2.	Правовые основы привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан.....	46
4.3.	Инвестиционные контракты.....	48
Глава 5	Научно-методические основы привлечения иностранных инвестиций.....	54
5.1.	Экономическая сущность иностранных инвестиций и об'ективная необходимость их привлечения .....	54
5.2.	Инвестиционная политика Республики Узбекистан.....	56
5.3.	Формы привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику и мировой опыт их регулирования.....	58
5.4.	Основные направления привлечения инвестиций в Республику Узбекистан.....	61
5.5.	Инвестиционная программа Республики Узбекистан.....	63
Глава 6	Современные формы и методы стимулирования привлечения иностранных инвестиций.....	70
6.1.	Льготы для предприятий с участием иностранных инвестиций в Республике Узбекистан.....	70
6.2.	Стимулирование привлечения иностранных инвестиций в создании совместных предприятий.....	73
6.3.	Стимулирование привлечения прямых частных иностранных инвестиций.....	74
Глава 7	Основные направления повышения привлекательности экономику Республики Узбекистан для иностранных инвесторов.....	80

7.1.	Проводимые мероприятия по привлечению иностранных инвестиций в экономику страны.....	80
7.2.	Основные направления повышения привлекательности экономики Узбекистана.....	84
7.3.	Региональный подход при привлечении иностранных инвестиций.....	85
7.4.	Значение инвестиций при выполнении проектов стратегического назначения.....	88
<b>Глава 8</b>	<b>Аспекты развития внешнеэкономическую деятельность с помощью иностранных инвестиций в Республике Узбекистан.....</b>	<b>91</b>
8.1.	Основные направления развития экономики нашей страны ориентированной на экспорт .....	91
8.2.	Концепция развития внешнеэкономической деятельности в Республике Узбекистан.....	98
8.3.	Кредитование предприятий с участием иностранных инвестиций, ведущих внешнеэкономическую деятельность.....	99
8.4.	Внешнеэкономическая деятельность предприятий с участием иностранных инвестиций.....	100
<b>Глава 9</b>	<b>Страхование иностранных инвестиций и риск.....</b>	<b>102</b>
9.1.	Развитие рынка страхования в Республике Узбекистан.....	102
9.2.	Страхование иностранных инвестиций.....	103
9.3.	Аспекты применения международных гарантов в Республике Узбекистан.....	106
<b>Глава 10</b>	<b>Определение экономической эффективности иностранных инвестиций.</b>	<b>108</b>
10.1.	Определение экономического эффекта иностранных инвестиций.....	108
10.2.	Методы оценок экономической эффективности инвестиционных проектов.....	110
10.3.	Проблемы оценка инвестиционных проектов.....	115
<b>Глава 11</b>	<b>Привлечение иностранных инвестиций в малый бизнес и частный предпринимательство.....</b>	<b>119</b>
11.1.	Значение малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии экономики нашей страны.....	119
11.2.	Роль инвестиционного климата в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане.....	123
11.3.	Роль иностранных инвестиций в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане.....	126
11.4.	Кредитование малого бизнеса и частного предпринимательства за счет иностранных кредитных линий.....	129
11.5.	Принятые меры и их сущность по поддержанию малого бизнеса в условиях мирового финансово-экономического кризиса.....	132
	<b>Глоссарий.....</b>	<b>135</b>
	<b>Литература.....</b>	<b>144</b>

## CONTENTS

	<b>Introduction</b>	6
<b>Chapter 1</b>	The concept of foreign investment and their value .....	8
1.1.	The concept of investment .....	8
1.2.	State regulation of investment relations .....	10
1.3.	Foreign investment and the reasons for their involvement .....	13
1.4.	The role of foreign investment in the development of Uzbekistan's economy..	15
1.5.	Sources of financing investment activity.....	17
<b>Chapter 2</b>	Forms and types of foreign investments .....	20
2.1.	Types of foreign investments .....	20
2.2.	Objects and subjects of legal relations investing activities .....	25
2.3.	Direct and portfolio investments .....	27
<b>Chapter 3</b>	Investment processes in the context of globalization and economic integration.....	31
3.1.	The value of foreign investment in the globalizing world economy	31
3.2.	Development and implementation of investment projects under the Clean Development Mechanism of the Kyoto Protocol.....	32
3.3.	Development of investment projects in the Republic of Uzbekistan.....	35
3.4.	Exports and imports of investments .....	40
<b>Chapter 4</b>	Features of the legal status of foreign investors.....	45
4.1.	The rights of foreign investors in the Republic of Uzbekistan.....	45
4.2.	The legal framework for attracting foreign investment in the Republic of Uzbekistan .....	46
4.3.	Investment contracts .....	48
<b>Chapter 5</b>	Scientific and methodological foundations for attracting foreign investments .....	54
5.1.	The economic essence of foreign investment and the objective need for their involvement.....	54
5.2.	Investment policy of the Republic of Uzbekistan.....	56
5.3.	Forms of attracting foreign investments into national economy and the world experience of their management .....	58
5.4.	The main directions of investments in the Republic of Uzbekistan...	61
5.5.	Investment program of the Republic of Uzbekistan.....	63
<b>Chapter 6</b>	Contemporary forms and incentives to attract foreign investment...	70
6.1.	Benefits for enterprises with foreign investments in the Republic of Uzbekistan.....	70
6.2.	Stimulating foreign investment in joint ventures .....	73
6.3.	Promote the attraction of direct private foreign investment .....	74
<b>Chapter 7</b>	The main directions of improving the attractiveness of the economy of the Republic of Uzbekistan for foreign investors.....	80
7.1.	Interventions to attract foreign investment in the economy.....	80

7.2.	The main directions of improving the attractiveness of the Uzbek economy .....	84
7.3.	Regional approach in attracting foreign investments .....	85
7.4.	The value of investments in the implementation of projects of strategic purpose .....	88
<b>Chapter 8</b>	<b>Aspects of development of foreign trade activities with foreign investment in Uzbekistan.....</b>	<b>91</b>
8.1.	The main directions of economic development of our country's export-oriented .....	91
8.2.	The concept of development of foreign economic activity in the Republic of Uzbekistan .....	98
8.3.	Lending to enterprises with foreign investment leading foreign trade .....	99
8.4.	Foreign economic activity of enterprises with foreign investments..	100
<b>Chapter 9</b>	<b>Insurance of foreign investments and risk .....</b>	<b>102</b>
9.1.	The development of the insurance market in the Republic of Uzbekistan .....	102
9.2.	Insurance of foreign investments .....	103
9.3.	Aspects of international guarantors of the Republic of Uzbekistan..	106
<b>Chapter 10</b>	<b>Determining the economic efficiency of foreign investment .....</b>	<b>108</b>
10.1.	Determining the economic effect of foreign investments.....	108
10.2.	A method for estimating the economic efficiency of investment projects .....	113
10.3.	Problems of evaluation of investment projects.....	115
<b>Chapter 11</b>	<b>Attracting foreign investment in small business and private entrepreneurship.....</b>	<b>119</b>
11.1.	The value of small business and private entrepreneurship in the economic development of our country.....	119
11.2.	The role of the investment climate in the development of small businesses and private entrepreneurship in Uzbekistan.....	123
11.3.	The role of foreign investment in the development of small businesses and private entrepreneurship in Uzbekistan.....	126
11.4.	Lending to small business and private enterprise at the expense of foreign credit lines.....	129
11.5.	Measures taken and their essence to maintain a small business amid the global financial crisis.....	132
	<b>Glossary.....</b>	<b>135</b>
	<b>Bibliography.....</b>	<b>144</b>

Bekmurodov Atham Sharipovich, Karriyeva Yaqutxon Karimovna,  
Nematov Inoyatilla Ubaydullayevich,  
Nabihev Dilmurod Hamidullayevich, Kattayev Nuriddin To'rayevich

Xorijiy investitsiyalar  
(O'quv qo'llanma)

"Iqtisodiyot" - 2010.

*Muharrir Vahobova M.M.  
Texnik muharrir Mirhidoyatova D.M.  
Musahhish Boboyeva N.S.*

Bosishga ruxsat etildi 24.11.2010. Qog'oz bichimi 60x80 1/16.

Shartli bosma tabog'i 9,4. Adadi 100 nusxa.

 sonli buyurtma

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bosmaxonasida bosildi. 100003.  
Toshkent. O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy.